

65-321  
A-13 ✓

# FERMER XO'JALIGI IQTISODI




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**A. A. ABDULLAYEV, .X. A. AYBESHOV**

**FERMER XO'JALIGI  
IQTISODI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiy etilgan

Toshkent-2008



**A.Abdullayev, X.Aybeshov.** Fermer xo'jaligi iqtisodi. T., «Aloqachi», 2008, 172 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada agrar sohada ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or shakllaridan biri hisoblangan fermer xo'jaliklarining ilmiy nazariy asoslari, mavjud manbalardan oqilona foydalanish hamda ularni muvaffaqiyatli boshqarish bilan bog'liq bo'lgan masalalar atroflicha yoritilgan. Bundan tashqari, boshqarishning asosiy kuragi hisoblangan biznes reja va uni tuzib chiqishning uslubiy asoslariga alohida ahamiyat berilgan.

Qo'llanma barcha Oliy o'quv yurtlari bakalavrлari, magistrлari, ilmiy tadqiqodchilar, kasb-hunar kollejlari o'qituvchilar, tinglovchilar, fermer xo'jaligi xodimлari va ushbu sohaga qiziquvchi keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: i.f.d. Q.Muftaydinov

Taqrizchilar: i.f.n., dos. M.Ortiqov,  
i.f.n., prof. I.Qayumov

**ISBN 978-9943-326-33-0**

**«Aloqachi» nashriyoti, 2008.**

## KIRISH

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo‘jaligidagi tub iqtisodiy islohotlarni yanada chiqurlashtirish va jadallashtirish masalasi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan bo‘lib, o‘ziga alohida e‘tiborni qaratishni talab etmoqda.

Agrar sohadagi islohotlarni hayotga tatbiq etish jarayonida bugungi kunning talablariga to‘la javob beradigan tashkiliy-huquqiy asosni yaratish, davlat mulkini xususiy lashtirish, qishloqda iqtisodiyotni va agrar munosabatlarning butunlay yangi shakllarini joriy qilish borasida bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, ularga yangi rag‘batlantiruvchi omillarni yaratib berish, dehqonlarning ong tafakkurida mulkka egalik hissiyotini mustahkamlash borasida ham, e‘tiborga molik ishlar qilinmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27-oktabr 2003-yildagi «2004–2000-yillarda fermer xo‘jaliklarining rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida»gi Farmoni, «2005–2007-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-dekabr 607-son, O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahriri) va boshqa me‘yoriy hujjatlar qabul qilinishi fikrimizning dalili bo‘ladi.

Bundan yaqqol ko‘rinib turibdiki, barcha qarorlarda yagona kelgusida istiqbolda asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi subyekt bo‘lib, qoladigan dehqon va fermer xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Fermer xo‘jaliklarini zarar bilan ishlayotgan past rentabelli va istiqbolsiz shirkatlar negizida tashkil etilishi, ulardan faqatgina udaburonlik, tashabbuskorlikni talab qilibgina qolmay, balki chuqur, iqtisodiy bilimga ega bo‘lishni taqozo etadi. Shu boisdan, ularning iqtisodiy dunyoqarashini yanada kengroq shakllantirishda tayyorlanayotgan «Fermer xo‘jaligi iqtisodi» o‘quv qo‘llanmasi muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada fermer xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, istiqbolini belgilash va rejalashtirish va fermer xo‘jaliklarini boshqarish masalalari atroflicha yoritilgan. Shu bilan bir qatorda talabalar

bilimini nazorat qilish yuzasidan test savollari va alohida olingan mavzular yuzasidan tayanch so‘zlar berilgan.

Yana bir yutug‘i mavzularni yoritishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatning qabul qilingan qonunlari, Vazirlar Mahkamasining agrar sohani isloh qilish borasidagi farmonlari, qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlardan keng foydalilanligidir.

Qo‘llanma barcha Oliy o‘quv yurtlari bakalavrлари, magistrлари, ilmiy tadqiqotchilar, kasb-hunar kollejlari tinglovchilar, fermer xo‘jaligi xodimlari va ushbu sohaga qiziquvchi keng jamoatchilikka mo‘ljallangan.

---

## **1-BO'LIM**

### **FANNING MAVZUSI, USULLARI VA VAZIFASI**

#### **1.1. Qishloq xo'jaligi-xalq xo'jaligining muhim tarmog'i**

Qishloq xo'jaligi tadbirkorlik faoliyatining eng keksa sohalaridan biri va keng qamrovli, hayot uchun zarur soha sanaladi. Eramizdan 2 ming yillar avval qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bir qator turlari yetishtirilganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

U jamiyat taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan soha bo'lib, hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'rirlarni egallab kelmoqda.

Mustaqillik yillarda qishloq xo'jaligi yanada yuksaldi. Dehqonchilik va chovchilik mahsulotlarining o'rtacha yillik o'sishi sur'at 5–7 foizga oshirildi.

Bugungi kunda mamlakat miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulotining 1/4 qismi aholi iste'moli ehtiyojini qondiradigan tovarlarning 80 foizi ushbu soha mahsulidir.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishni kuchayishi aholi turmush farovonligi ortishini ta'minlaydi, uning iste'moli tuzilishida keskin tarkibiy o'zgarishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligi jamg'armani shakllanishining asosiy manbai hamdir. uning milliy daromaddagi hissasi 20–30 foizni tashkil etadi. Sarflangan kapital xarajatlarni 2–2,5 yilda qoplashiga olib keladi.

Respublikamiz jami aholisining 63,0 foizdan ortiq qismi qishloq joylarda istiqomat qilib, mehnatga layoqatli aholining yarmiga yaqini ushbu sohada mehnat qiladi. O'zbekiston qimmatbaho paxta xomashyosini yetishtirishning va chetga paxta tolasi chiqarish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchi o'rirlardan birini egallab kelmoqda.

Qishloq xo'jaligining sanoatni qimmatbaho xomashyo, aholini to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda o'rni nihoyat beqiyosdir.

Mamlakat miqyosida sanoatda foydalani layotgan xomashyo va materiallarning 50 foizdan ortig'i, jumladan, oziq-ovqat, yengil va to'qimachilik sohalarda 80–90 foizga yaqini qishloq xo'jaligi mahsuloti sanaladi.

Shu boisdan, qishloq xo'jaligi davlat iqtisodiy siyosatining muhim bir obyektlaridan hisoblanib, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilib kelingan.

I.Karimov 2006-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarini chiqurlashtirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi, mamlakatni isloh qilish bo'yicha yangi strategik vazifalarning amalga oshirilishi uchun davlat va xo'jalik boshqaruv organlarini roli va mas'uliyati haqida gapirar ekan mamlakat miqyosida yalpi ichki mahsulotning 107,3 foizga, jumladan, sanoatda 110,8 foiz, qishloq xo'jaligida 106,2 foizga o'sishga erishganlikni aytib o'tgan.

Qishloq xo'jaligi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni izchillik bilan davom ettirish;
- ishlab chiqarishni yuqori suratlar bilan o'sishi va qat'iyligini ta'minlash;
- dehqonchilik va chorvachilikning doimiy ravishda samaradorligi ortishiga erishish;
- sanoatning qimmatbaho xomashyoga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash;
- aholining o'sib borayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha zaruriy davlat zaxiralalarini yaratish va boshqalar.

Yuqoridagi murakkab masalalarning samarali hal etilishining birinchi navbatda qishloq xo'jaligida tadbirkorlikning progressiv (ilg'or) shakllarini joriy etish, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga erishish, kimyolashtirish, yerlarni meliorativ holatini yaxshilash va qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi zaruriy infra tuzilmani shakllantirishga bog'liqdir.

## **1.2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyatlari**

Qishloq xo‘jaligi xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari singari umumiy iqtisodiy qonunlar asosida harakat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i tarkibiga o‘simlikchilik, chorvachilik va yordamchi xo‘jaliklarni oladi. Shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligini rivojlanishi bir qator alohidalik xususiyatlariga egadir.

Bu **birinchidan**: qishloq xo‘jaligida yer asosiy vosita hisoblanadi undan to‘g‘ri va unumli foydalanish kelgusida yanada yuksalishga olib keladi.

Yerdan qanchalik to‘g‘ri va unumli foydalanilsa, uning unumdorligi ortib boraveradi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘payishiga olib keladi.

Yerning noyob alohidalik xususiyati asosida, dehqonchilikning oqilona tizimi shakllanadi.

**Ikkinchidan**: qishloq xo‘jaligida mulkchilikning turli shakllari mavjud. (jamoa, xususiy, davlat va aralash) Shu asosda tadbirkorlikning turli tashkiliy huquqiy shakllari tashkil topgan; Jamoa, shirkat, dehqon fermer xo‘jaliklari, agro firmalar va hokazo.

**Uchinchidan**: qishloq xo‘jaligining rivojlanishi tabiiy iqlim sharoitiga bog‘liqidir, uni hisobga olmagan holda qishloq xo‘jaligini yuksaltirish rejasini tuzib chiqib bo‘lmaydi.

Bu yerda ishlab chiqarish vositasi sifatida jonli organizm harakat qiladi. O‘simliklar dunyosi, hayvonot olami biologik qonunlar asosida rivojlanadi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligini biologik qonunlarni e’tibordan tashqarida qoldirib bo‘lmaydi.

**To‘rtinchidan**: qishloq xo‘jaligining rivojlanishi boshqa tarmoqlar taraqqiyotiga bog‘liq bo‘ladi yoki ularni yuksaltirishda aktiv rol o‘ynaydi. Shuning uchun rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda mamlakat iqtisodiy sotsial taraqqiyoti strategik yo‘nalishlaridan kelib chiqish maqsadiga muvofiq hisoblanadi.

**Beshinchidan**, qishloq xo‘jaligi butun bir mamlakat territoriyasi bo‘ylab tarqalgan katta maydonni egallaydi, har xil iqlim sharoitida bu oxirgi natijaga ta’sir etadi. Bu alohidaliklarni ishlab chiqarishni joylashtirishda hisobga olish zarur.

**Oltinchidan**, uning yana bir xususiyatlari tomoni shundan iboratki, ushbu tarmoq mahsulotlarining aksariyatini kelgusida qayta

ishlashga muhtojligidir. Bu xususiyatning tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini ishlab chiqishda hisobga olish zarur.

**Yettingchidan**, qishloq xo‘jaligida va mehnatga haq to‘lash tizimini shakllantirishda uning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish muhimdir.

**Sakkizinchidan**, qishloq xo‘jaligi mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, bu narsa ishlab chiqarishni tashkil etishda o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Bir so‘z bilan aytganda, qishloq xo‘jaligi boshqa sohalardan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi, shu sababli, qishloq xo‘jaligida tadbirdorlik faoliyatini tashkil etish, rejalshtirish va boshqarish jarayonida tadbirdordan alohida mas’uliyatni hal etishni talab qiladi.

### **1.3. Fermer xo‘jaligi iqtisodi fanining mavzusi va vazifalari**

Iqtisodiyotni tashkil etilishi va boshqarilishi keng ma’noga ega bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar majmuini anglatadi, qaysiki insonlar ishlab chiqarish jarayonida faol ishtirok etadilar. Bunday munosabatlar obyektiv qonun va qonuniyatlar shaklida ifodalanadi, buning negizida va ishlab chiqarish vositalariga nisbatan ijtimoiy munosabatlar yotadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish qonunlar va jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida moddiy boyliklarni taqsimlash masalalarini siyosiy iqtisod fani o‘rganadi.

«Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti» yangi fan hisoblanib, u obyektiv iqtisodiy qonunlarni fermer xo‘jaliklari faoliyatidagi ko‘rinishlarini o‘rganadi. U fermer xo‘jaliklarilarning alohidalik xususiyatlaridan kelib chiqib o‘rganadi va uni kelgusida rivoj topishining yo‘nalishlarini belgilab beradi. Bu fanda yana bir alohida o‘rin fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va boshqarishga qartilganidir.

Barcha ishlab chiqarish singari fermer xo‘jaliklarda ham bir qator iqtisodiy qonunlar tizimi harakat qiladi: Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish qonuni, qiymat qonuni, talab va taklif qonuni, mehnat unumdarligini o‘sish qonuni va hokazo. Yuqoridaq qonunlar harakatini hisobga olish va ongli ravishda foydalanish rejali-proporsional rivojlanishi va jamiyat a’zolarini erkin har tomonlama

rivojlanishi va ehtiyojlarini to'la qondirilishi qonunlari bilan chambarchas bog'liq.

Bir so'z bilan ayotganda, «Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti» fani - qishloq xo'jaligi tarmog'ining muhim tashkiliy shakli hisoblangan fermer xo'jaliklardagi ishlab chiqarish munosabatlarini va moddiy boylik yaratuvchi boshqa sohalar orasidagi bog'liqlikni o'rganadi. O'rganish jarayoni va nafaqat iqtisodiy qonunlar xarakteriga tayanib, balki tabiat va texnika taraqqiyoti qonunlaridan ham foydalilanildi. «Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti» fani bir qator tabiiy fanlar (biologiya, zoologiya, matematika, kimyo va hokazo), texnika fanlari (tuproqshunoslik, chorvachilik, dehqonchilik, meleoratsiya, traktor va qishloq xo'jalik mashinalari va hokazo.), ijtimoiy gumanitar fanlar (O'zbekiston tarixi siyosatshunoslik, sotsiologiya va boshqa) va ijtimoiy iqtisodiy fanlar (korxona iqtisodi, menejment, statistika, marketing, buxgalteriya hisobi va audit va hokazo) fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi.

Fanning obyekti tadbirkorlikning agrar sohadagi yangi tashkiliy huquqiy shakli – dehqon fermer xo'jaliklaridir.

#### **1.4 Fermer xo'jaligi iqtisodi fanini o'rganishning uslubiy asoslari**

Biz avval fanni o'rganishning qonuniyat (prinsiplari, usullari va uslubiy asoslari tushunchalariga oydinlik kiritishimiz kerak.

«Prinsip» lotincha so'z bo'lib «asos», «dastlabki harakat» yoki «faoliyatning asosiy qoidasi» ma'nosini anglatadi.

Qonuniyat (prinsip)ni «Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti» faniga amaliyotini negizi deb hisoblashimiz mumkin.

Prinsiplarda «Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti»ning obyekti va subyektlari orasidagi obyektiv muhim takrorlanadigan, nisbiy turg'un, aniq, muayyan aloqadorliklar ma'lum shart-sharoitlarda voqealar rivojining yo'nalishi va xususiyatini belgilab beradi.

Hozirgi «Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining o'rganish qonuniyat (prinsip)lariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligi;
- davlat bosh islohatchi;
- kuchli ijtimoiy siyosat;
- bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tish;

baynalmilalchilik va demokratiyalash;  
ilmiylik;  
umumiylilik;  
moslanuvchanlik;  
rejalilik;  
maqsadlilik va adreslilik;  
tezkorlik;  
samaradorlik;  
tarixiylik va muayyanlik.

Yuqoridagi qonuniyat (prinsip)lar fanni o'rganishda katta yordam beradi.

Usul (metod) – bu fanni o'rganishda foydalaniladigan yo'llar yig'indisidir. «Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining o'rganish usullarini 3 guruhta kiritishimiz mumkin.

Boshqarish usullari: – iqtisodiy usul, ma'muriy buyruqbozlik usuli, ruhiy usuldan;

Rejalshtirish usullari – balans, me'yoriy, maqsadli programmalashgan, iqtisodiy matematik, ekstropolatsiya, iqtisodiy bashorat qilishdan;

Tahlil etish usullari – guruhash, taqqoslash, grafik tasvirlash, faktlar tahlili, umumlashgan tahlildan iborat.

«Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti» fanining uslubiy asosi, bu uni o'rganishda foydalanadigan qonuniyat (prinsip)lar va usul (metod)lar yig'indisidan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik Palatasi va Senatining agrar sohadagi qonunlari, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari fermer xo'jaliklarini rivojlantirish borasidagi klassiklarimiz ta'limotlari, bugungi kundagi taniqli iqtisodchi olimlarimiz ilmiy qarashlari, nazariy asosini tashkil etadi.

### **O'z-o'zini tekshirish yuzasidan savollar**

1. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning zarurati va maqsadini malardan iborat?
2. Qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'mni qanday?

3. Qishloq xo‘jaligi oldida turgan asosiy vazifalarni aytib bering?
4. Ko‘p mulkchilikka asoslangan tadbirkorlikni shakllari qanday?
5. Qishloq xo‘jaligini tabiiy iqlim sharoitiga bog‘liqligi va sezoni xarakteri nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. «Fermer xo‘jaligi iqtisodi» fanining mavzusi nima?
7. «Fermer xo‘jaligi iqtisodi» fanining vazifalari nimalardan iborat?
8. «Fermer xo‘jaligi iqtisodi» fanini boshqa fanlar bilan aloqasi.
9. «Fermer xo‘jaligi iqtisodi» fanining qonuniyatlariga izoh bering?
10. «Fermer xo‘jaligi iqtisodi» fanining o‘rganish usullari qanday?

## **1-bob. QISHLOQ XO‘JALIGIDA TADBIRKORLIKNING TASHKILIY - HUQUQIY SHAKLLARI**

### **1.1. Shirkat xo‘jaliklari tasnifi va tutgan o‘rni**

Qishloq xo‘jaligi amaliyotda quyidagi tadbirkorlikni tashkiliy - huquqiy shakllari keng tarqalgan.

Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlikni tashkiliy huquqiy shakllari:

- shirkat xo‘jaliklari;
- fermer xo‘jaliklari;
- dehqon xo‘jaliklari;
- davlat mulkiga asoslangan firmalar;
- qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma (agrokimyo xizmati, seleksiya xizmati, urug‘chilik, MTP, yoqilg‘i moylash va ehtiyyot qismlar bilan ta’minlovchi firmalar, transport xizmatlari ko‘rsatuvchi maxsus korxonalar, mashina va uskunalar lizingchi, ulgurji birjalar, moliya va kredit tizimi muassasalari).

Dehqon fermer xo‘jaliklarining dastlabki bazasi hisoblangan shirkat xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlikni muhim tashkiliy shaklidir. Qonun hujjatlarida shirkat xo‘jaligiga quyidagicha ta’rif berilgan.

«Xo‘jalik yoki tadbirkorlik faoliyatini kiritish maqsadida yuridik shakllarning, yuridik shaxslar bilan, jismoniy shaxslarni, jismoniy shaxslar o‘rtasida o‘z hissadorlari mol-mulkini birlashtirish asosida o‘zaro ixtiyoriy kelishuvga muvofiq tuziladigan korxonalar xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlar hisoblanadi». O‘zbekiston Respublikasi «xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari to‘g‘risida»gi Qonuni 1-modda

Garchan so‘nggi yillarda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida shirkat xo‘jaliklarning ulushi kamayib borayotgan bo‘lsa-da, o‘z davrida shirkat xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yetakchi o‘rinni egallab kelgan.

2007-yilga kelib, shirkat xo‘jaliklarini yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi ulushi keskin kamaygan.

Shirkat xo‘jaliklari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari doirasida o‘z faoliyatini tashkil etgan.

Shirkat kamida 2 ta ishtirokchidan iborat bo‘ladi va shirkatda ishtirok etuvchilar korxonalar yuridik shaxs maqomini saqlab qoladi.

Shirkat xo‘jaliklari – bu shaxslarning birlashmasi bo‘lib, unda qatnashchilar mulkiy badallar bilangina emas, balki shaxsiy faoliyati bilan ham ishtirok etadilar.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida shirkatlar faoliyatida yuzaga kelgan bir qator muammolar ularning tashkiliy huquqiy shakllarini takomillashtirishni taqozo etdi.

## **1.2. Fermer xo‘jaliklari tasnifi va rivojlantirish istiqbollari**

Fermer xo‘jaliklari bugungi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo‘jaligida yuzaga kelayotgan tadbirdorlikning ilg‘or shakllaridan biridir.

«Fermer xo‘jaligi ijara qishloq berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir».

«Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 3- modda.

Fermer xo‘jaliklari o‘zlarining faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlariga qarab quyidagicha turkumlanadi.

a) ixtisoslashuviga qarab:

–dehqonchilikka asoslangan fermer xo‘jaliklari(paxta va boshqa)

–chorvachilik (sut, go‘sht);

–parrandachilik (parranda go‘shti va tuxumi);

–bog‘dorchilik (uzumchilik va hokazo);

–boshqa sohalar.

b) Fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarayotgan mahsulotlariga qarab xom-ashyo yetishtirishga ixtisoslashgan, yetishtirish va qayta ishslashga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari.

d) Ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra yirik, o‘rta va kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri kelishi.

e) Faoliyat doirasiga qarab: ichki va tashqi doiradagi fermer xo'jaliklari.

Respublikamizda hozirgi kunda fermer xo'jaliklari soni 215 mingtadan ortiqni tashkil etib qishloq xo'jaligi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi ulushi 94 foizga yaqinini tashkil etmoqda(1-jadvalga qarang). 1600.0 mingdan ortiq kishilar fermer xo'jaligida mehnat qilmoqda va ular hissasiga 82 foizdan ortiq ekin maydoni to'g'ri kelmoqda. Paxta xomashyosi, g'alla, dukkakli ekinlar, bug'doy, poliz, kabi mahsulotlarning 90 foiz qismini bermoqda.

Respublika doirasida bir fermer xo'jaligiga o'ttacha 30–50 ga ekin maydoni (Andijon viloyatida 9ta ekin maydoni) to'g'ri keladigan bo'lsa, o'ttacha ularda 7,5 kishi xizmat qiladi .

Faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining asosiy 86 foizi paxta va g'alla yetishtirilishga ixtisoslashtirilgan 7 foizi chorvachilik va qolgan 7 foizi meva va sabzavot yetishtirishga ixtisoslashtirilgandir.

Fermer xo'jaliklari uchun ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilmani shakillantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### Fermer xo'jaliklarining asosiy ko'rsatkichlari

*1-jadval*

t/r	Ko'rsatkichlar	O'Ichov birligi	2007-y.
1	Fermer xo'jaliklari soni	Ming birlik	215
2	Biriktirilgan yer maydoni	Ming ga	11000
3	Fermer xo'jaliklari o'ttacha yer maydoni	Ga	30- 50
4	Fermer xo'jaliklarida band bo'lgan xodimlar soni	Ming kishi	1600
5	O'rttacha xo'jalikka to'g'ri keladigan xodimlar soni	Kishi	7,5
6	Yalpiqishloq xo'jaligi mahsulotida fermer xo'jaliklarining ulushi, Jumladan, yalpi paxta hosilining, g'allaning	%	94
		%	99
		%	82

Andijon viloyatida 1-yanvar 2008-yil holatiga 16955 ta fermer xo'jaliklari ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 6389 tasi paxta va

g‘allachilik yo‘nalishi, 581 tasi chorvachilik yo‘nalishi, 7700 tasi bog‘dorchilik va g‘allachilikka ixtisoslashgan.

Andijon viloyatida 2007-yilda 500 mldr so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirildi, shundan o‘simlikchilikda 315,2 mldr so‘mlik, chorvachilikda 184,8 mldr so‘mlik. Ishlab chiqarilgan yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining hajmi o‘tgan yilga nisbatan 7,0 foizga o‘sishga erishildi. Jumladan, o‘simlikchilikda 8,5 foizga. Ularga 244,1 ming ga. Yer maydoni biriktirilgan bo‘lib, o‘rtacha har bir fermer xo‘jaligiga 14 ga. Yer maydoni to‘g‘ri keladi. Aholining 128,2 ming nafari xo‘jaliklar a’zolari hisoblanadi. So‘nggi yildagi viloyat fermer xo‘jaliklari faoliyati 2- jadvalda yaqqol aks ettirilgan.

**Andijon viloyat fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari to‘g‘risidagi 1.01.2008-yilga ma’lumot**

2- jadval

t/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Yer maydoni, ga	Hosildorlik,s	Yalpi hosil, tn.
1	Paxta	113156	27,4	310021,0
2	Boshqoli don	75419	60,1	453347,0
3	Meva	1648	210,6	34722,0
4	Go‘sht	x	x	823,0
5	Sut	x	x	4499,7
6	Tuxum, ming dona	x	x	1696,0

Fermer xo‘jaliklari faoliyatini fermer xo‘jaligi rahbari boshqaradi.

Fermer xo‘jaliklarining boshlig‘i shu xo‘jalikning muassisifermeridir. 18 yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo‘lgan shaxs fermer bo‘lishi mumkin.

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fermer xo‘jaligi nomidan ana shu xo‘jalik boshlig‘i ish ko‘radi. (O‘zbekiston fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi Qonun) 4-modda boshqarish to‘g‘risida kengroq ma’lumot qo‘llanmaning 3 -bo‘limida

### **1.3. Dehqon xo‘jaliklari tasnifi**

Dehqon xo‘jaligi xususiy tadbirkorlikni alohida bir subyekti hisoblanadi.

U oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishi uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligi tadbirkorlik faoliyatining bir qismi hisoblanib, a’zolarning istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etib yoki tashkil etmagan holda faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyati davrida yollanma mehnatdan doimiy ravishda foydalanishi mumkin emas.

Oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan dehqon xo‘jaligi hamkorlikdagi tadbirkorlik hisoblanadi va yakka tadbirkorlik toifasiga kirmaydi.

Dehqon xo‘jaliklari o‘z tomorqasida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan o‘z oilasi ehtiyojlarini ta’minlaydi va ehtiyojdan ortiqcha qismini bozor narxlarida sotadi.

#### **Dehqon fermer xo‘jaliklarining asosiy vazifalari:**

–dehqon qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishslash va sotishga chiqarish.

–chorva mollarini veteraniya qoidalari asosida parvarish qilish va ularning mahsuldarligini oshirish bilan shug‘ullanishi.

Dehqon xo‘jaligi faoliyati keng qamrovli bo‘lib, ularni turlari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash, saqlash hamda bozorlarda sotish, shu jumladan, o‘z shahobchalari orqali sotish;
- tayyor va qayta ishslash tashkilotlari bilan kontraktatsiya shartnomalari tuzish;
- xarid etiladigan mahsulotga oldindan haq to‘lanadigan fyuchgers bitimlari tuzish;
- tijorat faoliyati va marketing tadqiqotlarini tashkil qilish;
- aholiga pulli xizmatlar ko‘rsatish;
- boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlarini amalga oshirish.

Hozirgi kunda dehqon xo'jaliklarida 398,6 ming nafer aholi band bo'lib ularning 122,4 ming tasi chovachilik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadi. Dehqon xo'jaliklarining hissasi meva va sabzavot yetishtirishda, chovachilik mahsulotlarini tayyorlashda yuqoridir. O'tgan yilda dehqon xo'jaliklariga barcha ekinlar uchun 33,5 ming ga. Yer maydoni ajratilgan bo'lib, ular tomonidan 420,5 ming tonna sabzavot, 87,7 ming tonna kartoshka va boshqa ekinlar hosili yig'ib olindi. Chovachilik mahsulotlari yetishtirish haqidagi ma'lumot 3-jadvalda keltirilgan.

**Andijon viloyat dehqon xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari to'g'risidagi 1.01.2008-yilga ma'lumot**

3-jadval

t/r	Ko'rsatkichlar nomi	Bosh soni, birlik	Yalpi mahsulot, sentner
1	Yirik shoxli qoramol Jumladan: Sigirlar	510687 227908	x x
2	Qo'y va echkilar	599811	x
3	Cho'chqalar	775	x
4	Otlar	5098	x
5	Parrandalar	2294018	x
6	Chovachilik mahsulotlari yetishtirtish: Go'sht, tirik vaznda Sut Tuxum, ming dona Jun	x x x x	709024 4189872 145429 15800

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, dehqon xo'jaliklari agrar sohada yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

Hukumatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan tub iqtisodiy islohotlarda dehqon xo'jaliklarini yuqori darajada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dehqon xo'jaliklari hozirgi kunda yalpi mahsulotlaring 62,4 foizini, shu jumladan, kartoshkani 90,0 foizdan, sabzavotni 70,0



foizdan, mevani 63,0 foizdan, uzumni 55,0 foizdan, go'shtni 64,0 foizdan, sutni 96,0 foizdan, tuxumni 54,0 foizdan ortig'ini bermoqda.

Hozirgi kunda dehqon xo'jaliklari o'zлari yetishtirgan mahsulotlariga mustaqil ravishda erkin baho belgilaydi, tadbirkorlikdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan cheklanmagan miqdorda daromad olishiga haqli, mol - mulkini garovga qo'yib kredit olishga haqli, atrof-muhitni himoya qilish qoidalariga rioya qilishga majbur, yerni asrash, unumdorligi yuzasidan qayg'urish, yerga zarar yetkazmasligi kerak.

Yerlardan foydalanishda agrotexnika talablariga rioya qilishlari lozim. Dehqon xo'jaligi mol - mulkni yer va suvdan foydalanish tartiblari va boshqa holatlar dehqon xo'jaligi nizomida belgilab qo'yilgan.

Qishloq xo'jaligidagi ham xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish mumkin.

Xususiy tadbirkor yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, ishchi kuchini yollash huquqisiz mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar, dehqon xo'jaliklari va oddiy shirkat ishtirokchilari. («Tadbirkorlik faoliyatini erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2000-yil 25-may).

Qishloq xo'jaligidagi xususiy tadbirkorlik xususiy korxonadan tubdan farq qiladi. Uni xususiy korxonaga qonunda berilgan ta'rifidan bilib olishimiz mumkin. Ular, asosan, oilaviy (hamkorlikdagi) tadbirkorlik subyektlaridir.

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot, («Xususiy korxona to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 11- dekabr 2003-yil).

Garchan ayrim manbaalarda qishloq xo'jaligida nodavlat sektorning ulushi 100 % ni tashkil etadi deb ta'kidlansada, tadbirkorlik subyektlari orasida davlat mulkiga asoslangan agrofirmalar ham foliyat olib bormoqda. Ular jumlasiga urug'chilik va naslchilik bilan shug'ullanuvchi firmalarni, ularning joylardagi filiallarini misol qilib olishimiz mumkin. Ular dehqon fermer xo'jaliklariga yangi ekin navlarini yaratib va mahsuldor chorva hayvonlari zotlarini yetishtirib beradi.

O'z-o'zini tekshirish yuzasidan savollar.

1. Tadbirkorlikning tashkiliy huquqiy shakllari.
2. Shirkat xo'jaliklariga tavsifnoma.
3. Fermer xo'jaliklariga tavsifnoma.
4. Dehqon xo'jaliklariga tavsifnoma.
5. Qishloq xo'jaligida xususiy korxona va xususiy tadbirkorlik.

#### **1.4. Fermer xo'jaliklarini tashkil etish.**

##### **Fermer xo'jaliklarini tashkil etish shartlari va tartibi**

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish, shuningdek, qishloq joylarda bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish. «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga va Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora - tadbirlari to'g'risida» 2002-yil 5-yanvardagi 8-sон va «2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qarorlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaliklarini tashkil etish borasida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqlpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda maxsus komissiya tashkil etilgan.

Komissiya ish faoliyatida fermerni xo'jaliklariga aylantirish mezoni qilib quyidagilarni oladi:

- zarar ko'rib ishlaydigan past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklari;

– qishloq joylarida ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

«Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 5-moddasiga muvofiq fermer xo‘jaliklarini tashkil etishda quyidagi shartlarga rioya qilinadi:

- fermer xo‘jaliklari aksariyati hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo‘lmagan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi;

- chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklari kamida 30 shartli bosh chorva moli bo‘lmagan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo‘jaligiga ijara beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bir shartli chorva molga hisoblangan normasi viloyatlar bo‘yicha tabaqlashtiriladi. Ya’ni :

- kamida 0,3 hektar – Andijon, Namangan, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent va Xorazm viloyatlarida;

- kamida 0,5 hektar – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo Jizzax, Navoiy viloyatlarida;

- sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 hektarni tashkil etadi.

- dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklariga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami paxtachilik va g‘allachilik uchun kamida 10 hektarni, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida bir hektarni tashkil etishi.

- yer uchastkalari fermer xo‘jaliklari ixtiyoriga berilganda fermer xo‘jaligi o‘z zimmasiga qishloq xo‘jaliklari ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o‘rtacha yillik hisobotida) yerning kadastr bahosidan kam bo‘lmasligini ta‘minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijara berish shartnomasida mustahkamlab qo‘yiladi.

Fermer xo‘jaliklarini ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga qo‘yish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish targ‘ibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2003-yil 20-avgustdagи 357-son qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaliklari yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga ariza taqdim etadi.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi arizaga :

Ta’sis hujjatlarining notorial tasdiqlangan ikki asl nusxasi davlat bojining yoki ro‘yxatdan o‘tkazish yig‘imining belgilangan miqdori to‘langanligi to‘g‘risidagi bank to‘lov hujjati belgilangan tartibda shahar (tuman)lar statistika organlari tomonidan berilgan fermer xo‘jaligi nomi to‘g‘risidagi guvohnoma muhr va shtamp eskizlari 3 nusxada ilova qilinadi.

Fermer xo‘jaligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun:

Tuman hokimining yer uchastikasi berish to‘g‘risidagi protokoli, tovar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish biznes rejasи nusxasi.

Fermer xo‘jaligi-yuridik shaxslar ta’sis hujjatlarigi o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilganda, tegishli qaror rasmiylashtirilgandan keyin bir hafta muddatda ularni ro‘yxatdan o‘tkazgan organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

–ariza;

–tadbirkorlik subyektini boshqarish vakolatli organining ta’sis hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi qarori;

–o‘zgartirish va qo‘srimchalar matnining tadbirkorlik subyekti muhri bilan tasdiqlangan ikki nusxasi;

–nomi o‘zgargan taqdirda almashtiriladigan muhr va shtamp ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning asl nusxasi, shuningdek, muhr va shtamp yangi namunalarining uch nusxasi eskizi.

Fermer xo‘jaligi tugatilishi.

Fermer xo‘jaliklar faoliyati O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida» gi qonunining (yangi tahriri) 32–33-moddalarida belgilangan tartib bo‘yicha, qonunga binoan quyidagi hollarda tugatiladi:

– yer uchastkasining ijaraga olish huquqidан ixtiyoriy voz kechilganda;

– fermer xo‘jaligi bankrot deb atalganda, shu jumladan, moddiy texnika resurslarni yetkazib beruvchilar, ish bajaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar bilan hisob-kitob muntazam ravishda amalga oshirilmaganda;

– fermer xo‘jaligi boshlig‘i vafot etib, xo‘jalik faoliyatini davom ettirishni xohlovchi merosxo‘r bo‘lmasa;

– davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yoki yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun, shu jumladan, fermer xo‘jaligi yer uchastksidan belgilangan maqsadda foydalanmaganida, xususan kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilgan qishloq xo‘jlik ekinlarini ekkanida yer uchastkasini olib qo‘yish zarurati bo‘lgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Fermer xo‘jaligi tugatilishi tartibi 2 holatda amalga oshiriladi.

**Birinchi:** Fermer xo‘jaligini boshlig‘i qaroriga binoan.

**Ikkinchi:** qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sudning qaroriga binoan tugatiladi.

### 1.3. 2 Fermer xo‘jaliklari nizomi va mazmuni

Fermer xo‘jaligi nizomi (ustav) tadbirkorlik faoliyati yuritishning qonuniy hujjati hisoblanadi.

Fermer xo‘jaliklari nizom (ustav) asosda faoliyat ko‘rsatadi. Fermer xo‘jaliging na‘munaviy nizomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

(Fermerlar xo‘jaligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 8 - modda)

Demak, fermer xo‘jaligi rahbarlari o‘zlarining tadbirlik faoliyatlarini tashkil etish va nizom (ustav)ni ishlab chiqishda chiqarilgan na‘munaga asoslanadi va o‘zining alohidalik tomonlarini ham hisobga oladi.

Fermer xo‘jaliklarining na‘munaviy nizomi (ustav) o‘zida quyidagilarni aks ettiradi.

- Fermer xo‘jaligining nomi.
- Fermer xo‘jaligi boshlig‘ining familiyasi, ismi otasining ismi, yashash joyi.
- Fermer xo‘jaligining joylashgan yeri to‘g‘risidagi ma’lumotlar va pochta manzili.
  - Fermer xo‘jaligining ixtisoslashuvi va faoliyatining asosiy turlari.
  - Nizom (ustav) fondining miqdori.
  - Fermer xo‘jaligining nizomida qonun hujjatlarida zid bo‘lmagan boshqa qoidalar ham bo‘lishi mumkin.

Respublikamizda fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va xo‘jalik faoliyati yuritishining asosiy qoidalari.

- Fermer xo‘jaliklari tugatilayotgan , zarar bilan ishlayotgan past rentabelli va istiqbolsiz shirkatlar bazasida tashkil etiladi.
- Fermer xo‘jaliklari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lishi, xususiy korxona shaklida kelgusida turli shakldagi kooperatsiyalarga kirishiga haqliligi.
- Yer maydonini fermerlarga tanlov asosida ellik yilgacha uzoq muddatli asosda, ijara muddati davomida meros qilib qoldirishi huquqi bilan berilishi.
- Fermer xo‘jaligi ixtiyoriga berilgan yer maydonlarining shirkat xo‘jaligi balansidan chiqarib tashlanishi.
- Fermer xo‘jaliklarini tashkil etish uchun yer maydoni ajratilishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tasdiqlangan nizomi asosida amalga oshirilshi.
- Yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetkazib berish hamda moddiy-texnika resurslari va turli xizmatlardan foydalanish uchun shartnomalarni faqat fermer xo‘jaliklarning o‘zlarini tayyorlab qayta ishslash hamda xizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzishlari.
- Fermer yollanma xodimlar, shu jumladan, oila a’zolari orasidagi mehnat munosabalari amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq mehnat shartnomalariga asoslanadi.

## **1.6. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning huquqiy bazasi**

«Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahriri qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyatini yanada yuksaltirishda muhim bosqich bo‘ladi. Ushbu qonunning maqsadi fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat (1 - modda).

Fermer xo'jaligi faoliyatini tashkil etish va boshqarishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.

«Korxona to'g'risidagi»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1991-yil 15-fevral «Tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1995-yil 15-fevral.

«Yer to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni toshkent, O'zbekiston 1992-yil

«Mulk to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

«Ijara to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi.

«Xususiy korxona to'g'risida»gi qonuni O'zbekiston Respublikasi 11-dekabr 2003-yil.

«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni Tashkent «Adolat» 2002-yil.

«Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2005-yil 14-iyun.

«Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2005-yil 14-iyun.

«Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2005-yil 20-iyun.

«Oziq - ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2008-yil 20-sentabr, PF – 4041.

Ular orasida fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonun alohida ahamiyat kasb etadi.

**«Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi  
qonuni mazmuni**

Bo‘limlar nomi	Mazmuni
I. Umumiy qoidalar	1-modda. Ushbu qonunning maqsadi
	2- modda. Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari
	3- modda. Fermer xo‘jaligi
	4- modda. Fermer xo‘jaligi boshlig‘i
II. Fermer xo‘jaligini tashkil etish	5- modda. Fermer xo‘jaligini tashkil etish shartlari
	6- modda. Fermer xo‘jaligini tashkil etish tartibi
	7- modda. Fermer xo‘jaligini davlat ro‘yxatiga olish
	8- modda. Fermer xo‘jaligi nizomi
	9- modda. Fermer xo‘jaligi nizomining mazmuni
III. Fermer xo‘jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari berish, yerdan va suvdan foydalanish	10- modda. Fermer xo‘jaliklari yuritish uchun beriladigan yer uchastkalari
	11- modda. Fermer xo‘jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari berish tartibi
	12- modda. Qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) a’zolari tomonidan fermer xo‘jaliklarini tashkil etish xususiyatlari
	13- modda. Yerdan foydalanish yer uchastkasidan foydalanish
	14- modda. Yer uchastkasidan foydalanish uchun to‘lanadigan haq
	15- modda. Suvdan foydalanish
IV. Fermer xo‘jaliklarining huquqlari, majburiyatlarini hamda mol mulki	16- modda. Fermer xo‘jaligi hududlari
	17- modda. Fermer xo‘jaligi majburiyatlarini
	18- modda. Fermer xo‘jaligi nizom fondi
	19- modda. Fermer xo‘jaligi mol-mulki

	20- modda. Fermer xo‘jaligi mablag‘lari va hisob- kitoblari
	21- modda. Fermer xo‘jaligi molmulkini meros qilib qoldirish
V. Fermer xo‘jaligi faoliyatining tashkil etilishi	22- modda Fermer xo‘jaligini ishlab chiqarish faoliyati.
	23- modda. Fermer xo‘jaligida mehnat
	24- modda. Mahsulotni fermer xo‘jaligi tomonidan realizatsiya qilish tartibi
	25- modda. Fermer xo‘jaliklarining birgalikdagi faoliyati
	26-modda Fermer xo‘jaligini kreditlash va sug‘urtalasha.
	27- modda. Fermer xo‘jaligiga soliq solish
	28- modda. Fermer xo‘jaligi faoliyati natijalarini hisobga olish
	29- modda. Fermer xo‘jaliklarini davlat yo‘li bilan va boshqa tartibda qo‘llab-quvvatlash
	30- modda. Fermer xo‘jaligi faoliyatini tekshirish cheklanganligi
	31- modda. Fermer xo‘jaligini qayta tashkil etish
VI. Yakunlovchi qoidalar	32- modda. Fermer xo‘jaligini tugatish asoslari
	33- modda. Fermer xo‘jaligini tugatish tartibi
	34- modda. Nizomlarni hal etish
	35- modda. Fermer xo‘jaligini majburiyatlari bo‘yicha javobgarlik

Yuqoridagi barcha qonunlar, qarorlar, dasturlar va fermerlar Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, jumladan, fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishda huquqiy baza bo‘libgina qolmay, balki ularning kelgusidagi ravnaqining kafolati hamdir.

## **1.7. Fermer xo‘jaliklari rivojlantirishning muammolari**

Hozirgi kunda mamlakatimiz miqyosida fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga e’tibor qanchalik kuchaytirilmasin, uning provard natijasida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlari hisoblanmagan mahsulotlarda fermer xo‘jaliklarini ulushti pastdir.

Bunday salbiy holatni yuzaga kelishining obyektiv sabablari mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

- ma’muriy muammolar ;
- hududiy muammolar;
- iqtisodiy muammolar;
- ishlab chiqarish muammosi;
- ekologik muammolar;
- ijtimoiy muammolar.

«Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonunda ularni tashkil etish shartlari belgilangan bo‘lib, u tadbirkorlikni rivojlantirish tamoyillariga to‘la mos kelmaydi. Masalan: samarasiz, past rentabelli jamoa xo‘jaliklari bazasida tashkil etish, jamoa xo‘jaliklarini oldingi faoliyati yuzasidan ko‘rgan zararlarni yangi tashkil etilayotgan fermer xo‘jaliklari zimmasiga yuklab qo‘yish, davlat iqtisodiy siyosatida fermerlar manfaatlarini to‘la aks eta olmaslik holatlari va hokazo.

Hududiy muammolar bu fermer xo‘jaliklarining jo‘g‘rofik joylashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, ularga: sanoat ishlab chiqarish zonasiga nisbatan joylashganligi aholi zich hududlarda joylashganligi, iste’molchilarga nisbatan yaqin uzoqligi, yer maydonining bahosi va hokazo.

Iqtisodiy muammolar bu bozor infrastrukturasi tashkilotlari bilan fermer xo‘jaliklar orasidagi munosabatlarning qo‘llash mehanizimini bugungi kun talabiga to‘la mos kela olmasligi, baho mexanizmidagi kamchiliklar, daromadlarini taqsimlashdagi muammolar va hokazo.

Ishlab chiqarish muammosi – fermer xo‘jaliklarining moddiy- texnik bazasi talab doirasida emasligi, mavjud fermer xo‘jaliklarida zamонавиу texnika va texnologiya joriy etishga bazani mavjud emasligi va hokazo.

**Ekologik muammolar – chorvachilik, parrandachilik va boshqa sohadagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishslashning atrof-muhit muhofazasiga salbiy ta’siri mavjudligi, ularni joylashtirish yuzasidan ekologik talablarni hisobga olishi zarurligi va hokazo.**

Ijtimoiy muammo – qishloq xo‘jaligi xodimlari orasida fermer xo‘jaliklari tashkil etish va samarali boshqarish yuzasidan bitimlarning pastligi, sobiq ittifoq davrida bu soha bo‘yicha kadrlar tayyorlashga kam e’tibor qaratilganligi, xizmat ko‘rsatish borasida infratuzilmani shakllanishi darajasining pastligi. Yuqoridagi masalalarning hal etilishi bugungi kundagi qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohotlarning birinchi galdegisi vazifasi hisoblanadi va agrar sohada olib borilayotgan islohotlarning amalga oshivuning kafolati ham bo‘lib xizmat qiladi.

### **O‘z - o‘zini tekshirish yuzasidan savollar**

1. Fermer xo‘jaliklarini tashkil etish shartlari.
2. Fermer xo‘jaliklari tashkil etish qoidalari .
3. Fermer xo‘jaliklari na’munaviy nizomi va uning mazmuni.
4. Fermer xo‘jaliklari rivojlantirishning huquqiy bazasi.
5. «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni yangi tahriri mazmuni va mohiyati.
6. Hozirgi kunda fermer xo‘jaliklarni rivojlantirish oldida turgan muammolar.

### **I-bo‘lim yuzasidan test savollari**

1. «Fermer xo‘jaligi haqida»gi qonunining yangi tahriri qachon qabul qilingan?
  - A) 1991-yil 15-fevral
  - B) 2003-yil 11-dekabr
  - C) 2004-yil 26-avgust
  - E) 2005-yil 20-iyun
  - F) 2005-yil 14-iyun
2. «Prinsip» qanday ma’noni anglatadi.
  - A) «asos», dastlabki xatti-harakat» faoliyatning assosiy qoidasi.
  - B) O‘rganishda foydalaniladigan yo‘llar yig‘indisi.

- D) O‘rganishda foydalaniladigan prinsiplar va usullar yig‘indisi.  
E) Boshqarishning quroli.  
F) Barcha javoblar to‘g‘ri.

3. «Usul» qanday ma’noni anglatadi.

- A) «Asos», dastlabki xatti-harakat» faoliyatning asosiy qoidasi.  
B) O‘rganishda foydalaniladigan yo‘llar yig‘indisi.  
D) O‘rganishda foydalaniladigan prinsiplar va usullar yig‘indisi.  
E) Boshqarishning quroli.  
F) Barcha javoblar to‘g‘ri.

4. «Uslub» qanday ma’noni anglatadi.

- A) «Asos», dastlabki xatti-harakat» faoliyatning asosiy qoidasi.  
B) O‘rganishda foydalaniladigan yo‘llar yig‘indisi.  
D) O‘rganishda foydalaniladigan prinsiplar va usullar yig‘indisi.  
E) Boshqarishning quroli.  
F) Barcha javoblar to‘g‘ri.

5. Qaysi javobda barqarorlashtirishning asosiy shartlari to‘g‘ri tartibda berilgan.

- A) Iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligi, davlat bosh islohotchi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy himoya, bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o‘tish.  
B) Bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o‘tish, kuchli ijtimoiy himoya, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligi, davlat bosh islohotchi.  
D) Iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligi, qonun ustuvorligi, davlat bosh islohotchi, kuchli ijtimoiy himoya, bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o‘tish.  
E) Iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligi, kuchli ijtimoiy himoya, bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o‘tish, davlat bosh islohotchi.  
F) To‘g‘ri javob yo‘q.

6. Qaysi javobda fermer xo‘jaligi tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan.

- A) Tadbirkorlik faoliyatini yuritish maqsadida yuridik shaxslarning yuridik shaxslar bilan, jismoniy shaxslarning jismoniy

shaxslar o'rtasida o'z hissadorlari, mol-mulkini birlashtirish asosida iqtisodiy kelishuvga muvofiq tuzilgan jamiyat.

B) Ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalanilgan holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shugullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

D) Oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat yuridik shaxs makomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaligi.

E) Mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijorat tashkiloti.

F) To'g'ri javob yo'q.

7.Qaysi savolda shirkat xo'jaligi tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

A) Tadbirkorlik faoliyatini yuritish maqsadida yuridik shaxslarning yuridik shaxslar bilan, jismoniy shaxslarning jismoniy shaxslar o'rtasida o'z hissadorlari, mol-mulkini birlashtirish asosida iqtisodiy kelishuvga muvofiq tuzilgan jamiyat.

B) Ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalanilgan holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

D) Oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaligi.

E) Mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijorat tashkiloti.

F) To'g'ri javob yo'q.

8.Qaysi savolda hamkorlikdagi tadbirkorlik tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

A) Tadbirkorlik faoliyatini yuritish maqsadida yuridik shaxslarning yuridik shaxslar bilan, jismoniy shaxslarning jismoniy shaxslar o'rtasida o'z hissadorlari, mol-mulkini birlashtirish asosida iqtisodiy kelishuvga muvofiq tuzilgan jamiyat.

B) Ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalanilgan holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

D) Oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaligi.

E) Mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijorat tashkiloti.

F) To‘g‘ri javob yo‘q.

9. Qaysi savolda xususiy korxona tushunchasiga to‘g‘ri ta‘rif berilgan.

A) Tadbirkorlik faoliyatini yuritish maqsadida yuridik shaxslarning yuridik shaxslar bilan, jismoniy shaxslarning jismoniy shaxslar o‘rtasida o‘z hissadorlari, mol-mulkini birlashtirish asosida iqtisodiy kelishuvga muvofiq tuzilgan jamiyat.

B) Ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalaniłgan holda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.

D) Oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan dehqon xo‘jaligi.

E) Mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijorat tashkiloti.

F) To‘g‘ri javob yo‘q.

10. Andijon viloyatida fermer xo‘jaliklari uchun qancha miqdorda yer maydoni ajratiladi.

A) Kamida 0,3 ga har bosh shartli qoramolga.

B) Kamida 0,35 ga har bosh shartli qoramolga.

D) Kamida 0,5 ga har bosh shartli qoramolga.

E) Kamida 0,3 ga har bosh shartli qoramolga, sug‘orilmaydigan lalmikor yerlarda 2,0 ga.

F) Kamida 0,5 ga har bosh shartli qoramolga, sug‘orilmaydigan lalmikor yerlarda 2,0 ga.

11. Sirdaryo viloyatida fermer xo‘jaliklari uchun qancha miqdorda yer maydoni ajratiladi.

A) Kamida 0,3 ga har bosh shartli qoramolga.

B) Kamida 0,35 ga har bosh shartli qoramolga.

D) Kamida 0,5 ga har bosh shartli qoramolga.

E) Kamida 0,3 ga har bosh shartli qoramolga, sug‘orilmaydigan lalmikor yerlarda 2,0 ga.

F) Kamida 0,5 ga har bosh shartli qoramolga, sug‘orilmaydigan lalmikor yerlarda 2,0 ga.

12. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida zaruriy chorva moli bosh soni.

- A) 20 ta shartli qoramol.
- B) 30 ta shartli qoramol.
- C) 40 ta shartli qoramol.
- D) 50 ta shartli qoramol.
- E) 100 ta shartli qoramol.

13. Paxtachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida yer uchastkalarining eng kam miqdori.

- A) 0,35 ga
- B) 1,0 ga
- C) 10,0 ga
- D) 20,0 ga
- E) 40,0 ga

14. Bog‘dorchilik, uzumchilik va sabzovotga ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklarida yer uchastkalarining eng kam miqdori.

- A) 0,35 ga
- B) 1,0 ga
- C) 10,0 ga
- D) 20,0 ga
- E) 40,0 ga

15. «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni nechta bo‘lim va moddalaridan iborat.

- A) 6 ta bo‘lim 35 modda
- B) 5 ta bo‘lim 35 modda
- C) 4 ta bo‘lim 40 modda
- D) 7 ta bo‘lim 35 modda
- E) to‘g‘ri javob yo‘q

16. Qonunning qaysi moddasida fermer xo‘jaligiga ta’rif berilgan.

- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) 4
- E) 10

17. Fermer xo‘jaligi namunaviy nizomi mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan.

- A) Biznes reja, yer berish to‘g‘risida hokimiyat qarori va ariza
- B) Ariza, biznes reja, nizom, tuman hokimiyatining yer berish to‘g‘risidagi qarori.
- C) Fermer xo‘jaligi nomi, rahbari ismi va familiyasi, manzili, ixtisoslashuvi, faoliyati turi, nizom jamg‘armasi va qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa qoidalar.
- D) Fermer xo‘jaligi nomi, manzilgohi, yer hajmi, biznes reja nizom fondi.
- E) Fermer xo‘jaligi nomi, manzilgohi, yer hajmi, biznes reja nizom fondi.
- F) To‘g‘ri javob yo‘q.

18. Fermer xo‘jaligi qaysi hollarda tugatiladi.

- A) Yer uchastkasini ijara olish huquqidan ixtiyoriy voz kechganda.
- B) Fermer xo‘jaligi bankrot deb e’lon qilinganda.
- C) Fermer xo‘jaligi boshlig‘i vafot etib, xo‘jalik faoliyatini davom ettiruvchi merosxo‘r bo‘lmasa.
- D) Davlat va jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajara olmasa va qonun hujjatlarini buzganda.
- E) Barcha javoblar to‘g‘ri.

19. Qaysi javobda xususiy lashtirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘ri keltirilgan.

- A) Aksiyalashtirish.
- B) Kim oshdi savdosi.
- C) Kelgusida sotib olish sharti bilan ijara berish.
- D) Birja savdosi.
- E) Barcha javoblar to‘g‘ri.

20. Qaysi javobda hissadorlik jamiyatni turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

- A) Ijara
- B) Ochiq turdag‘i, yopiq turdag‘i
- C) Mas‘uliyati cheklangan va qo‘srimcha mas‘uliyatli jamiyat
- D) Qushma korxona
- E) To‘g‘ri javoblar yo‘q.

---

## 2-BO'LIM

### FERMER XO'JALIKLARI IQTISODIY SALOHIYATI

#### **2.1 Fermer xo'jaliklarida kapital qo'yilmalar va investitsiya siyosati**

2.1.1 Kapital qo'yilmalar va ularni fermer xo'jaliklari iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni.

Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishlarni yuksaltirish va moddiy- texnika bazasining mustahkamlashning asosi hisoblanadi.

Investitsiya – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet el iqtisodiyotini turli sohalarga uzoq muddatli kapitalning kirishi hisoblanadi.

Investitsiya fermer xo'jaliklarini yangi tashkil etish, kengaytirish va texnik jihatidan qayta qurollantirish uchun sarflangan mablag'lni ifodalaydi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda ishtirok etishga qarab investitsiyalar ikki guruhga bo'linadi:

1 - ishlab chiqarishga bog'liq bo'lgan investitsiyalar – bu texnika vositalari va inventarlar sotib olish qishloq xo'jaligi va chorvachilik komplekslari qayta ishlovchi korxonalar qurish bilan bog'liq xarajatlar, jumladan, ko'p yillik o'simliklar va bog'lar tashkil etish sarflari.

2- ishlab chiqarishga bog'liq bo'lмаган investitsiyalar bu ijtimoiy madaniy, maishiy binolar qurish bilan bog'liq bo'lgan investitsiyalar.

Umuman olganda, fermer xo'jaliklari investitsiyalarining 80–90 foizi ishlab chiqarishga bog'liq bo'lgan investitsiyalar tashkil etadi.

Ular xarajat yo'nalishlari bo'yicha quyidagi maqsadga qaratiladi:

– ishlab chiqarishga bog'liq va ishlab chiqarishga bog'liq bo'lмаган obyektlar qurish sarflari.

- texnika vositalari sotib olish xarajatlari;
- bog‘lar tashkil etish va ko‘pchilik o‘simliklar o‘tkazish bilan bog‘liq sarflar;
- yerlarini meleorativ holatini yaxshilash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;
- asosiy mahsuldor hayvonlar va ishchi podani shakillantirish bilan bog‘liq xarajatlar;
- boshqa ilmiy izlanishlar bilan bog‘liq xarajatlar.

Demak, hozirgi kunda investitsiyaning roli yuqori bo‘lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi bosh manba hisoblanadi.

Investitsiyalarning asosiy manbalari:

- fermer xo‘jaliklari shaxsiy mablag‘lari;
- yuqori tashkilotlar mablag‘lari;
- bank kreditlari;
- davlat budjet ajratmalari.

Xarajatlarni o‘z mablag‘lari hisobiga moliyalashtirishda manba bo‘lib, sof daromadini ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ajratma, amortizatsiya ajratmasi, asosiy vositalarni likvidatsiya qilishi hisobiga tushim, ko‘p yillik daraxtlarni sotishdan tushgan tushim, bank hisob raqamida oldingi yildan qolgan mablag‘lar va boshqalar kiradi. Ushbu ko‘rsatkilar fermer xo‘jaliklar faoliyati iqtisodiy samaradorligini umumlashgan holda xarakterlaydi. Ayrim manbalardan foydalanish darajalarini qo‘llanmaning navbatdagi tegishli mavzularida batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Fermer xo‘jaliklarida asosiy mahsuldor va ishchi podani tashkil etishda maxsus manbalar mavjud.Ular:

- asosiy mahsuldor va ishchi podani sotishdan olingan tushim;
- voyaga yetgan ishchi hayvonlar amortizatsiyasi;
- foydadan ajratma;
- chorva hayvonlarini o‘lganlari hisobidan olingan sug‘urta to‘lovlar;
- bank kreditlari;
- budjet ajratmalari.

Fermer xo‘jaliklarida investitsiya samaradorligi ikki ko‘zinishda aniqlanadi:

1. Investitsiya umumiy samaradorligi ( $I_{um}$ ), aniqlangan sof daromadni ( $F_s$ )sarflangan investitsiya hajmiga ( $I$ ) nisbati.

$$I_{um} = \frac{F_s}{I}$$

2. Qoplash muddati ( $T$ ) investitsiya umumiy samaradorligini teskari ko‘rinishi hisoblanib, investitsiya hajmini ( $I$ ) sof daromadga ( $F_s$ ) nibatidir.

$$T q = \frac{I}{F_s}$$

Bundan tashqari, alohida olingen uchastka va loyihalar bo‘yicha investitsiya samaradorligini aniqlashda xususiy kursatkichlardan foydalanish mumkin.

### **Bank krediti va kredit tizimi**

Fermer xo‘jaliklari faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshishida bank kreditlarining hissasi kattadir.

Kredit (lotincha Creditin-qarz, credo-ishonaman) – pul mablag‘larini tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to‘lab qaytarib berish sharti bilan ma’lum muddatlarga qarzga berishdir

Amaliyotda kredit beruvchi tomon (davlat, bank, korxona, xususiy shaxs va boshqalar kreditor oluvchi tomon, fermer va boshqa tadbirkorlik subyektlari) debtor deb ataladi.

Hozirgi kunda kreditning bir necha turlari mavjud bo‘lib ularga: tijorat, bank, davlat, iste’mol, xalqaro, ipoteka va boshqalar.

- Tijorat krediti – xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan beriladi va veksel yordamida rasmiylashtiriladi.

- Bank krediti banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga beriladi. Jahon amaliyotida bank kreditining forseyting, faktoriy, xaridorga qarz berish turlari keng qo‘llaniladi.

- Davlat krediti – bu yerda davlat qarz beruvchi va qarz oluvchi rolini o‘ynaydi.
- Iste’mol krediti – aholiga iste’mol tovarlari, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilishi xarajatlari uchun, lambardlardagi mult garovi hisobiga o‘zaro yordam hissasi va boshqa ko‘rinishlarda beriladi.
- Xalqaro kredit – muddatli qaytimli va foiz to‘lash shartlari bilan bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchi pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz.

Kredit mamlakat iqtisodiyotini yuksalishida muhim vazifalarni bajaradi. Ular ichida asosiysi bu – moliya resurslarini qayta taqsimlashdir. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni kengaytirish, iqtisodiyotni yuqori suratlar bilan o‘sishini ta’minlash, mablag‘larni samarali va istiqbolli yo‘nalishlarga yo‘naltirish va hokazo.

Respublikamizdagи tijorat banklarning kredit siyosati iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari, jumladan, qishloq xo‘jaligini jalal rivojlantirishga qaratilgan. Fermer xo‘jaliklariga imtiyozli shartlarda ajratilayotgan kreditlar va makrokreditlar fikrimizning yaqqol isbotidir.

**Kredit tizimi – Markaziy bank, tijorat banklari. Kredit uyushmalari, chet el banklari filiallari va vakolatxonalari.**

Kredit tizimi ichida Markaziy bank alohida o‘rin tutadi va emissiya maqomiga ega. Respublikamizda kredit tizimi faoliyati «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank to‘g‘risida» gi, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida» gi qonunlar bilan tartibga solinib turiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ikkita davlat banklari (O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O‘zbekiston Respublikasi Davlat tijorat xalq banki), 14 ta davlat aksiyadorlik tijorat banklari («Asaka», DATB, «Zamin» DATB, «Uy-joy jamg‘arma bank» «O‘z DATB», «O‘zbekiston aksiyadorlik tijorat sanoat – qurilish bank» AT «Paxtabank», RATB «G‘allabank», «Turon»ATB va hokazo), 12 ta xususiy banklar, 3 ta

chet el kapitali ishtirokidagi banklar,1 ta sho“ba bank faoliyat olib bormoqda.

Fermer xo‘jaliklar taraqqiyotiga «Biznes fond», O‘zbekiston Respublikasi dehqon va fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlovchi jamg‘arma, bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi kabi budjetidan tashqari jamg‘armalar o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Kredit uyushmasi bu – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kredit berish va depozitlarga o‘z a’zolaridan bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish maqsadida ixtiyoriy teng huquqli a’zolik asosida tuziladigan moliya tashkilotidir.

Ilk bor kredit uyushmalari XVIII asrning ikkinchi yarmida tashkil etilgan bo‘lib, ularning bosh maqsadi barcha mamlakatlarda ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotga ko‘mak berishidir.

Odatda, kredit uyushimalari rivojlanayotgan, o‘tish davrini boshidan kechirayotgan, mamlakatlarda milliy moliya bozoridagi ishlarning asosiy ishtirokchisi sifatida yuzaga chiqadi.

Ushbu uyushmalarga barcha turdagи tadbirkorlik faolyaiti bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar va balog‘at yoshiga yetgan jismoniy shaxslar a‘zo bo‘lishlari mumkin. Jumladan, fermer xo‘jaliklari, talabalar, nafaqaxo‘rlar, nogironlar va uy bekalari ham.

Har bir pay ko‘rinishida badallarini nizom jamg‘armasiga kiritgan yuridik va jismoniy shaxslar kredit uyushmasi a’zosi hisoblanadi.

Kredit uyushmalari bank tizimidan farq qilib o‘z a’zolariga ko‘proq imkoniyatlar yaratib beradi.

- Faoliyat quyidagi tamoyillarga asoslanadi ishonchliklilik – barcha xizmatlarni faqat o‘z a’zolarigagina ko‘rsatadi. Uyushma a’zolarining turar joylari, ish faoliyati, kasabalik aloqadorligi va fuqarolarning bir - birligiga ishonch asosida tashkil etiladi.

- Demokratik boshqaruv – uyushma a’zolari o‘z kredit uyushmasining boshqaruv organlarini saylash, ularni tasdiqlash va faoliyatini tugatish huquqiga egadirlar. Kredit uyushmalari hissadorlik jamiyatlari boshqarusvidan farq qilib, uning har bir

a'zosi, nizom jamg'armasiga qo'shgan ulushi miqdoridan qat'i nazar, bir ovozga egadir.

Shu boisdan bank omonatchilari hissadorlik jamiyatni a'zolaridan farqli o'laroq, ularda katta imkoniyatlarni mavjud.

- Kredit olish imkoniyatlari – bu yerda banklardan farqli kredit mablag'lari olishda alohida to'sqinlik qiluvchi shartlar mavjud emas. Shu bilan birga kredit uyushmalari o'z a'zolariga yangi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va kengaytirishga ham ko'maklashadi. Kredit uyushmasi a'zolari o'zlarini yaxshi biladilar bu kredit oluvchini kreditni qaytarish salohiyatini baholashda ancha qulay hisoblanadi.

- Mablag'larni kuchaytirish imkoniyatlari – bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z qiymatini yo'qotib qo'ymasligi uchun pul doimo muomalada bo'lishi kerak.

- Shu sababli kredit uyushmalarida ham nizom jamg'armasiga kiritilgan pul mablag'lari kelgusida daromad keltirishi kerak. Bu o'z navbatida har bir kredit uyushmasi a'zosiga depozit olish huquqini ham beradi, Ushbu depozitlar bank depozitlariga nisbatan yuqoriqoq daromad keltiradi.

- Notijorat faoliyat yo'nalishi – kredit uyushmalari faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad daromad olish emas, balki uyushmaning har bir a'zosi mablag'larini kelgusida kuchaytirish va vaqtincha pulga muhtoj bo'lgan a'zolariga yordam berishga qaratilgan .

Bugungi kunda kredit uyushmalari tomonidan mijoz (a'zo) lariga quyidagi xizmat turlari ko'rsatilmoqda:

- depozitlarga o'z a'zolarini bo'sh mablag'larini jalb etish ;
- kredit berish ;
- maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatish ;
- o'quv dasturlarini tashkil etish ;

Shuni unutmaslik kerakki, hozirda rivojlangan mamlakatlarda ham kredit uyushmalari – qishloq aholisiga iste'mol kreditlari olishi masalasida yetakchi moliyaviy vosita bo'lib kelmoqda.

Hozirda, jahon miqyosida 370 mingdan ortiq kredit uyushmalari faoliyat olib bormoqda va tarkibiga 108 mln.dan ortiq a'zoni jalb etgan. Kredit uyushmalarining umumiy aktivlari 400. mlrd AQSH dollarini tashkil etadi.

Respublikamizda 2002-yilda «qishloq hududlaridan omonat va kredit uyushmalari tashkil qilish» loyihasi o‘z ishini boshlagan. Ushbu loyihani Osiyo Taraqqiyot banki va AQSH rivojlantirish agentligi moliyaviy homiyiligida Butun jahon kredit uyushmalari kengashi – WOCCU amalga oshirmoqda.

Hozirgi kunda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida respublikamizda «Sherdor», «Umid», «Marvel», «Lastochka», «Ishonch», «Tayanch», «Xazina», «Madadkor», «Barakat», «Buxoro tadbirkori», «Taraqqiyot», «Oltin vodiy» kabi kredit uyushmalari faoliyat olib bormoqda.

So‘nggi yillarda bank tizimida muayyan ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi – bugun jami bank kapitali 1 trillion so‘mdan oshadi .

Mikrokredit bank tashkil etildi va o‘tgan qisqa davr ichida kichik biznes subyektlariga 25 milliard so‘mdan ortiq mikrokreditlar ajratildi. Minibanklar tarmog‘i jadal rivojlanmoqda, ularning soni bugungi kunda 1800 tadan ortdi.

Grant – bu notijorat tashkilotlar yoki xususiy shaxslarga aniq biror bir aniq maqsadga yo‘naltirilgan vazifalarни bajarish uchun taqdim qiluvchi (jamg‘armalar, korxonalar, davlat tashkilotlari yokixususiy shaxslar) tomonidan qaytarilmaslik sharti bilan beriladigan mablag‘lardir.

Grant kredit va qarz mablag‘laridan farq qilib, ular umuman qaytarilmaydi.

### Lizing operatsiyalari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida investitsiya quyilmalarining samarali turlardan biri, bu lizing xizmatlaridir.

Jahoning bir qator rivojlangan mamlakatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti dastlabki jarayonida lizing operatsiyalari keng qo‘llanilgan bo‘lib, ularning iqtisodiy o‘sishiga tutki bo‘lgan.

Lizing – mol – mulkni uzoq muddatli ijara ga olish asosida vaqtinchalik foydalanishga berish bo'yicha ishlarning mulkiy munosabatlari majmuasidir.

Shu boisdan, mamlakatimizda ham faktoring va lizing xizmatlarining yangi turlari o'zlashtirilmoqda.

Lizing xizmatidan foydalanuvchi (yuridik shaxs, yakka tartibdag'i tadbirdor) lizing xizmatini ko'rsatuvchi tomonidan sotib olingan mulkni qaramog'iغا yoki foydalanish uchun oladi. Foydalanishi jarayonida olingan daromadlari evaziga qarzlarini lizing beruvchiga to'lab beradi. Lizing operatsiyasining vaqtı tugashi bilan mulk lizing oluvchi ixtiyoriga qoladi. Mulkka egalik qilish huquqi to'la lizing oluvchiga o'tadi.

Masalan: «Oq – suv» fermer xo'jaligi Respublika «Biznes – fond» dan 1997-yilda 74 ming AQSH dollariga Olmoniyada ishlab chiqarilgan «Maral – 125» o't o'rish kombaynni lizing asosida sotib oladi. 2001-yil 1-noyabrda lizing to'lovlarini to'la to'lanadi va o't o'rish kombayini fermer xo'jaligi mulkiga aylandi.

Hozirgi kunda respublikamizda quyidagi moliya institutiari lizing operatsiyalarini amalga oshirmoqda: «O'zsel xozmashlizing» ALK, «Barak» ULK, «O'zbek lizing interneyshn AO»-, «Paxtabank ATB, Uyjoyjamg'armabank» DAUJB, «Ipak yo'li» AITB, «G'allabank» ATB, «Turonbank» ATBT, «Trastbank» ABB, «Aloqabank» ATB, «Hamkorbank» ATB, «Biznes fond», «Osiyo-Yevropa», Trast kampaniyasi AT, «O'zsanoat qurilishbank» AT, «Tadbirkorbank», «Biznesbank» XYOATB, «Savdogarbank» ATB va hokazo.

Lizing operatsiyalarini amalga oshiruvchi lizing kampaniyalari va jamg'armalar bir qator shartlar bo'yicha kelishib oladilar. Shartlar quyidagilar bo'lishi mumkin.

- lizing olinadigan asosiy vositalar turi;
- lizing oluvchilarga nisbatan shartlar;
- lizing muddati;
  - a) minimum;
  - b) maksimum;

- avans to'lovlari miqdori (lizing obyekti qiymatiga nisbatan foiz hisobida);
  - a) minimum;
  - b) maksimum;
- garov bilan ta'minlanishi (lizing obyektining qiymatiga nisbatan foiz holatida) foiz stavkasi (yillik);
  - minimum;
  - maksimum;
- lizing to'lovlarini amalga oshirish davri;
- komission yig'imlar (lizing obyektining narxiga nisbatan foiz hisobda;
- boshqa shartlar.

Masalan: «Biznes fond»da lizinga olinadigan asosiy vositalar turi cheklanmagan, barcha tadbirdorlik subyektlari foydalanish huquqiga ega, muddat ikki yildan besh yilgacha, narxi 30.0 mln so'mdan oshmasligi kerak, garov bilan ta'minlanish darajasi 80.0 foiz, foiz stavkasi 10,8 foizdan 13,5 foizgacha to'lovlar kelishilgan holda amalga oshiriladi, komission yig'imlar yo'q. Shu bilan bir qatorda lizing oluvchining loyiha qo'ylygan ulushi 30 foizdan kam bo'lmasligi lozim.

Fermer xo'jaliklari lizing xizmatidan foydalanganda quyidagi qulayliklarga ega bo'ladi:

- texnalogiya va uskunalarining tez ma'naviy eskirish sharoitida zamonaviy texnologiya va uskunalarga ega bo'lish imkoniyati;
- mulk va moliya muammolarini birdaniga hal qilish imkoniyati;
- sotib olinayotgan mulk qiymatini birdan to'lashdan ozod etilishi;
- soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi:
  - a) chetdan keltirilayotgan, lizinga berish ko'zda tutilgan texnologik uskuna bojaxona to'lovlari hamda qo'shimcha qiymat solig'idan ozod etiladi;
  - b) lizing obyekti bo'yicha lizinga oluvchi shaxs mulk solig'idan ozod etiladi;

d) daromadning soliqqa tortiladigan qismini aniqlash jarayonida lizing oluvchini yalpi daromadidan lizing bo'yicha foiz to'lovlari to'liq chegirib tashlanadi.

### **Garov va uning mohiyati**

Fermer xo'jaliklari kredit olish jarayonida garov mulkini shakllantirishi lozim.

Qonunga asosan jismoniy yoki huquqiy shaxslar o'ttasida haqiqiy bo'lgan har qanday majburiyat yoki majburiyatlarining bajarilishi garov bilan ta'minlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday majburiyat pul birliklarida ifodalanishi lozim.

Birov bir shaxsning boshqa shaxsga yoki unga nisbatan bo'lgan huquqiy majburiyatlarini ta'minlash uchun taqdim etilgan mol-mulk hisoblanadi.

Agar shartnomada yoki qonun hujjatlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mol-mulkka nisbatan garov huquqi uning obyektlarini va tarkibiy samarasini ham o'z ichiga oladi. Garovga qo'yilgan mulk evaziga olingen samara, mahsulot. daromadlarga nisbatan garov huquqi shartnomada nazarda tutilgan hollarda tatbiq etiladi.

Barcha yuridik yoki jismoniy shaxslar garovga qo'yuvchi yoki garovga oluvchi bo'lishi mumkin. Qarzdorning o'zi, uchinchi shaxs ham garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin. Mulk egasi, mulknini garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin. Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mulk egasi roziligidiz ashyoviy huquqni garovga qo'yishga yo'l quyilmaydi.

Bugungi kunda bank tizimi, budgetdan tashqari jamg'armalar xalqaro moliya tashkilotlari fermer xo'jaliklariga mikrokreditlar, oddiy kreditlar, xorijiy valutadagi kreditlar va turli ko'rinish va shakldagi moliyaviy yordamni ko'rsatishmoqda .

Bu yerda kredit manbalarini jalb etish uchun, ya’ni qaytarmaslik tavakkalchiliginu oldini olish uchun tijorat banklari garov ta’mnotinini so’rashadi.

Kreditlarni qaytmaslik xavfini oldini olish, kredit resurslaridan samarali foydalanishni ta’minalash maqsadida Markaziy bank, savdo sanoat palatasi va boshqa bozor infratuzilmasi tashkilotlari tomonidan fermer xo’jaliklariga kredit mablag’larini ajratish bo‘yicha 1074, 902 va 903-sonli tartiblar ishlab chiqilgan.

Ushbu tartibga ko‘ra har bir kreditdan foydalanuvchi kreditini qaytarilmay qolish xavfini oldini olish maqsadida tijorat banklari garov ta’mnotinini taqdim etishi shart.

Quyidagilar garov ta’mnoti bo‘la oladi:

- mulk yoki qimmatli qog‘ozlar;
- bank yoki sug‘urta tashkiloti kafolati;
- uchinchi shaxsning kafilligi;
- sug‘urta kampaniyasining kredit oluvchini, kreditini qaytara olmaslik xatarini sug‘urta qilganligi to‘g‘risidagi sug‘urta polisi;
- fuqarolar yig‘inlarining mahalliy, qishloq, ovul kengashlari kafilligi.

Shu bilan bir qatorda, tijorat banklari o‘zlarini bilan doimiy aloqaga ega bank hisob raqamida muntazam pul oqimi mavjud bo‘lgan, yaxshi mavqega ega bo‘lgan qarz oluvchilardan garov talab qilmasdan – blankli ishonchli kreditlar ajratish huquqiga egadir. Kredit oluvchi tijorat banklariga kredit hajmining 120 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda garov mulki taqdim etishi kerak.

Kredit mablag‘i hisobiga xarid qilinayotgan mulk, uning qiymatining 60–80 foizigacha bo‘lgan miqdorda garov sifatida qabul qilinishi mumkin.

### O‘z-o‘zini tekshirish yuzasidan savollar

1. Investitsiya, investitsiyalash va investitsiya siyosati.
2. Investitsiya (kapital mablag‘)larni fermer xo‘jaligi yuksalishidagi o‘rni.
3. Bank kreditlari – fermer xo‘jaliklarini moliyalashtirishning asosiy manbai ekanligi.
4. Kredit tizimi.


5. Lizing va lizing operatsiyalari.
6. Garov va uning mohiyati.

## **2.2. Fermer xo‘jaligini ishlab chiqarish fondlari**

Fermer xo‘jaligi ishlab chiqarishining majburiy shartlaridan biri – ma’lum bir miqdorda manbalarning mavjud bo‘lishligi hisoblanadi, ya’ni material va pul. Bularning ichida mehnat predmeti va mehnat vositalaridan tashkil topgan ishlab chiqarish vositasi bosh rolni o‘ynaydi.

Mehnat predmeti, tabiat in’omlari qaysiki insonlar mehnat jarayonida unga ta’sir o‘tkazadi. Bular xomashyo va yordamchi materiallarning bir qismi bo‘lib, urug‘lik yem, yoqilg‘i moylash materiallaridir. Mehnat predmetlari har bir aylanishda to‘lig‘iga foydalaniadi va shu ishlab chiqarish jarayonida yangi mahsulotga qiyamatini to‘lig‘icha o‘tkazadi. Mehnat predmetlariga inson mehnat vositalari orqali ta’sir o‘tkazadi. Bu qurilma, imorat, inshoot ishchi va mahsuldar hayvonlar. Ular o‘z tashqi ko‘rinishini yo‘qotmaydi va o‘z qiyamatini asta-sekin eskirishi ko‘rinishida yangi mahsulotga o‘tkazib boradi. Bundan shunday xulosa qilamizki, mehnat vositalari asosiy fondlar, mehnat predmetlari aylanma fondlardir.

Moddiy va pul mablag‘lar ishlab chiqarish va muomala jarayonida xizmat ko‘rsatib, fermer xo‘jaligi ishlab chiqarish fondlarini tashkil etadi.



1- chizma. Fermer xo‘jaligi ishlab chiqarish fondlari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari va ularni fermer xo‘jaligi faoliyatidagi o‘rni.

Asosiy fond deb – hisob amaliyotida va O‘zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi ko‘rsatmasiga asosan qiymati 15 minimal maosh miqdoridan ortiq bo‘lgan, 1 yildan ortiq xizmat qiluvch, o‘z qiymatini tayyor mahsulotga amortizatsiya shaklida o‘tkazib boradigan va ishlab chiqarish jarayoni oxiriga kelib, natural shaklini saqlab qoluvchi moddiy boyliklarga aytildi.

Yuqorida sanab o‘tilgan guruhlarning nisbiy taqsimlanishi fermer xo‘jaligi ishlab chiqarish va texnik tuzilishini tashkil etadi.

Harakatdagi klassifikatsiya bo‘yicha asosiy fondlar natural buyum belgisiga qarab: bino, imorat va inshoot, kuch uzatuvchi qurilmalar, mashina va jihozlar, o‘lchov va tartibga soluvchi moslamalar, laboratoriya anjomlari, hisoblash texnikalari, transport vositalari, ishlab chiqarish anjomlari, xo‘jalik anjomlari, mahsuldor va ish hayvonlari, ko‘p yillik daraxtlar, yerni meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha kapital sarflar va boshqa asosiy fondlarga bo‘linadi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga qarab ishlab chiqarishga oid bo‘lgan va ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan asosiy fondlarga bo‘linadi.

Ishlab chiqarishga oid asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi. Ularga korxona binolari, yeri, mashina va qurilmalar, o‘lchov asboblari, mahsuldor va ish hayvonlari, ko‘p yillik daraxtlar, transport vositalari.

Ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan asosiy fondlar korxonaga xizmat ko‘rsatuvchi sohaga qarashli bo‘lgan imorat va inshootlar, jihozlar hisoblanadi.

Fermer xo‘jaligida asosiy fondlarning aniq belgili tomonlari bu qiymatining yuqoriligi va xizmat muddati uzoqligidir. Bundan tashqari, bir vaqtning o‘zida ilmiy-texnika taraqqiyotiga va texnik daraja o‘sishiga faol ta’sir etadi.

Shunga asosan tadbirkorlik faoliyatida fermer xo‘jaliklariga asosiy fondlarni sotib olishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Yuqori unumdonlikka ega bo‘lishi.
2. Foydalinishda samaradorligini bo‘lishi.
3. Universalligi.
4. Ishdagisi chidamliligi va ishonchliligi.

Asosiy fondlarning yuqori qiymatga ega bo'lishi va uzoq muddat xizmat qilishini talab etishi, korxonaning katta miqdordagi pul mablag'larini ushlab qolishga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, undan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Samarali foydalanish birinchi navbatda, ularni to'g'ri hisobga olishni talab qiladi.

Barcha qishloq xo'jaligi korxonalari singari fermer xo'jaliklari ham, asosiy vositalarni hisobga olish ularning qancha hajmda ekanligini bilish emas, balki ishlab chiqarish iqtisodiyotining talabidir.

Asosiy vositalar hisobi natura va qiymat shaklida yuritiladi.

Natura ko'rsatkichlar yordamida har bir asosiy vositalarning turlari bo'yicha hisob olib boriladi.

Masalan: bino – uning soni, umumiy va foydali maydoni ( $m^2$ ), agar ishchi, mashina bo'lsa – soni, ko'rinishi va yoshi va hokazolar hisobga olinadi. Hisobga olishning ushbu shakli asosiy vositalarning tashqi tuzilishini belgilab qolmay, balki uning texnik holatini ham bildiradi. Bu sohada asosiy fondlar balansi tuziladi.

Asosiy vositalarni boshlang'ich qiymatini aniqlashda sotib olish xarajatlari, keltirish va o'rnatish xarajatlari hisobga olinadi. Bu hisob buxgalteriya balansi yuritishda amalga oshiriladi va balans qiymati moddasida qayd etiladi. U quvildagi formula orqali hisoblanadi:

$$F_b = Z_O + Z_t + Z_m,$$

bu yerda:  $F_b$  – asosiy vositalarni boshlang'ich qiymati, so'm;

$Z_O$  – asosiy vosita sotib olish qiymati, so'm;

$Z_t$  – transport xarajatlari qiymati, so'm;

$Z_m$  – qurish yoki o'rnatish xarajatlari, so'm;

Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati korxona tomonidan qancha mablag' sarflanganligini bildiradi.

Asosiy fondlar foydalanish jarayonida ikki xil eskiradi: fizik eskirish, ma'naviy eskirish.

**Fizik eskirish** – bu asosiy fondlarni foydalanish jarayonida yemirilishi va yaroqsiz holatga kelib qolishidir. Odadta, yemirilishi intensiv ravishda foydalanishi va tabiat kuchlari ta'siri ostida yuzaga keladi.

**Ma'naviy eskirish** – bu asosiy fond hali ishlab chiqarishga yaroqli bo'lsa-da, undan foydalanish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lib qolishidir. Ma'naviy eskirishning bosh omili ilmiy-texnika taraqqiyoti va asosiy fondlar ishlab chiqaruvchi sohaga mehnat unumdorligini o'sishi hisoblanadi.

**Birinchidan.** Asosiy fondlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlardagi mehnat unumdorligi ortishi, shu turdag'i qurilmalar bahosini pasayishiga olib keladi.

Bu holatdagi ma'naviy eskirishning miqdori obyekt boshlang'ich qiymatiga nisbatan foizlarda aniqlanadi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$I_m = \frac{(F_b - F_m) \cdot 100\%}{Z_b},$$

bu yerda,  $I_m$  – ma'naviy eskirish miqdori;

$F_b$  – obyekt boshlang'ich qiymati;

$F_m$  – obyekt tiklash qiymati.

**Ikkinchidan:** Ilmiy-texnika taraqqiyoti ta'sirida yangi mashina va qurilma yuzaga keladi. U oldingisiga nisbatan yuqori unumli, takomillashgan va tejamkorlik bilan ishlaydi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$I_{m_2} = Fp - \left( \frac{F_H}{PT_h} - \frac{F_p^1}{P^1 T_h^1} \right) \cdot T_0 \cdot P,$$

bu yerda,  $Fp$  va  $F_H$  – eski va yangi texnika boshlang'ich qiymati, so'm;

$P$  va  $P^1$  – eski va yangi texnikaning yillik mehnat unumdorligi;

$T_H$  va  $T_H^1$  – eski va yangi texnikaning xizmat qilish normasi, yil;

$T_0$  – eski mashinaning qolgan xizmat muddati, yil.

Umumiy ko'rinishida ma'naviy eskirish quyidagi formula orqali ifodalanishi mumkin:

$$I_m = \frac{F_p - \frac{F_B^1 P}{P^1} \cdot 100}{F_p}$$

bu yerda,  $F_B^1$  – yangi texnikaning tiklash qiymati.

Bizga ma'lumki asosiy fondlar o'z qiymatini asta-sekin qismlarga bo'lingan holda tayyor mahsulot tarkibiga o'tkazib boradi. Boshlang'ich qiymati bilan tayyor mahsulot tarkibiga o'tkazilgan qism orasidagi farq tiklash qiymati deb yuritiladi. Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlardan foydalanish oqibatida asosiy fond texnik holatini boshlang'ich darajaga nisbatan yo'qotadi va ta'mirga muhtoj bo'ladi. Bu vaqtida kapital ta'mirlash amalga oshiriladi va qoldiq qiymatda kapital ta'mirlash sarflari hisobga olish zarur bo'ladi. Shu munosabat bilan qoldiq qiymat quyidagi formulada aniqlanadi:

$$F_0 = F_p - Z_K \cdot \frac{AF_p \cdot T}{100}$$

bu yerda,  $Z_K$  – barcha xizmat muddati davomidagi kapital remont sarflari, so'm;

$A$  – amortizatsiya normasi, foiz hisobida;

$T$  – asosiy fond xizmat qilish muddati, yil.

Bundan tashqari, amaliyotda shunday holatlar yuzaga keladiki, ma'lum bir miqdorda asosiy fond ishlab chiqarishga joriy etilsa, ma'lum bir miqdor chiqarib tashlanadi. Shuning uchun amaliyotda ular quyidagicha hisobga olinadi:

yil boshiga asosiy fondlar qiymati;

yil oxiriga asosiy fondlar qiymati;

o'rtacha yillik asosiy fondlar qiymati.

Ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulot tarkibiga kiritilgan asosiy fondlarning eskirishini qoplash qiymati – amortizatsiya deb yuritiladi. U kelgusida asosiy fondlarning qisman yoki to'liq takror ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Bozor sharoitida amortizatsiya ajratmasi miqdori korxona iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Agar o'ta yuqori miqdorda amortizatsiya ajratilib yuborilsa, ishlab chiqarish xarajatlari (tannarx)

ortadi, raqobatbardoshlik susayadi, foyda miqdori kamayadi va korxona iqtisodiy imkoniyatlari chegaralanadi.

Boshqa tomondan qaralsa, amortizatsiya ajratmasining past belgilanishi asosiy fond xizmat muddatini uzaytiradi, eskirishiga olib keladi, raqobatbardoshlik susayadi va bozorda korxona o‘z o‘rnini yo‘qotadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, amortizatsiya miqdori belgilashda bir qator omillarni hisobga olinishini talab etadi.

Bu holatda u quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$A = f(Z_p; T; M; K; D\dots)$$

bu yerda,  $Z_p$  – ishlab chiqarish xarajatlari, so‘m;

$T$  – asosiy fondlar qoplash muddati, yil;

$M$  – foyda miqdori, so‘m;

$K$  – mahsulot raqobatbardoshligi;

$D$  – bozorda ushbu mahsulotni sotish ulushi jami mahsulotga nisbatan

Amaliyotda asosiy fondlarning amortizatsiya normasi aniqlanishining uchta ko‘rinishini mavjud:

1. Asosiy fondlarni amortizatsiya normasi ( $H$ ), u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H = \frac{F_p + Z_K + Z_M - Z_p}{T_H \cdot F_M}$$

bu yerda,  $Z_M$  – modernizatsiya sarflari, so‘m;

$Z_I$  – likvidasiya qiymati, so‘m.

$T_H$  – asosiy fondlar normativ xizmat muddati, yil.

2. Asosiy fondlarning to‘la tiklash uchun amortizatsiya normasi ( $H_p$ ), quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H_p = \frac{F_p - Z_I}{T_H F_p} \cdot 100$$

Kapital ta’mirlash uchun amortizatsiya ajratmasini ( $H_K$ ) quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$H_K = \frac{Z_K + Z_M}{T_H \cdot F_p} \cdot 100$$

amortizatsiya ajratmasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblash orqali belgilangan norma asosida amalga oshiriladi (har bir asosiy fondlar turi bo‘yicha).

Bizning respublikamizda olib borilayotgan investitsion siyosatga asosan amortizatsiya ajratmasi normasi asosiy fondlar turlari bo‘yicha quyidagicha belgilangan:

Barcha asosiy ishlab chiqarish fondlari bo‘yicha 7,3 %

Shu jumladan:

Imorat va inshootlar	4 %
----------------------	-----

Mashina va qurilmalar	10 %
-----------------------	------

Transport vositalari va hokazolar	15–20 %
-----------------------------------	---------

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni xarakterlashda bir guruh ko‘rsatkichlari tizimidan foydalanamiz. Amaliyotda ularni ikki guruhga bo‘lib olamiz. Birinchisi asosiy fondlardan foydalanishni xarakterlovchi ko‘rsatkichlar. Ularga:

1. Fond qiymati ( $F_0$ ) ishlab chiqarilgan mahsulotni ( $T_p$ ) asosiy fondlar o‘rtacha yillik qiymatiga nisbatan ( $F_{Os}$ ):

$$F_0 = \frac{T_p}{F_{Os}}$$

2. Fond sig‘imi ( $F_E$ ) – fond qaytimining teskari ko‘rinishi hisoblanib, 1 so‘mlik tovar mahsulotiga to‘g‘ri keladigan asosiy fond qiymatini bildiradi:

$$F_E = \frac{F_{Os}}{T_p}$$

3. Asosiy fondlar eskirishi koeffitsiyenti ( $K_H$ ):

$$K_i = \frac{Z_i}{F_p}$$

bu yerda,  $Z_i$  – asosiy fondlar eskirishi qiymati, so‘m.

$F_p$  – asosiy fondlar boshlang‘ich qiymati jami va ayrim turlari bo‘yicha, so‘m.

4. Kapital ta’mirlash sarflari iqtisodiy samaradorligi ( $E_{KP}$ ):

$$E_{KP} = s_H - (Z_{KP} + E_{ek} T)$$

bu yerda,  $S_H$  – yangi texnika bahosi, so‘m;

$Z_{kp}$  – yangi texnika kapital ta’mirlash sarflari, so‘m;

$E_{ek}$  – ta’mirlangan va yangi texnikadan foydalanish orasidagi sarflarni o‘rtacha yillik farqi, so‘m.

5. Mashina va qurilmalardan foydalanish koeffitsiyenti:

$$K_{ob.n} = \frac{M_{haqiqiy\ ishlayotgan}}{M_{ob\ n}}; K_{ob.n} = \frac{P_{haq.ish.}}{P_{ob.}}$$

bu yerda,  $P, M$  – haqiqiy ishlayotgan mashina va qurilma soni (quvvati) dona, so‘m;

$P_{ob}M_{ob}$  – mavjud mashina va qurilma soni (quvvati) dona, so‘m.

6. O‘matilgan mashinalardan foydalanish koeffitsiyenti ( $K_{ob.ust}$ ):

$$K_{ob.ust} = \frac{P_{obn}}{P_{ob.ust}}$$

bu yerda,  $P_{ob.ust}$  – harakatdagi mashina va qurilma soni, dona.

$P_{ob.ust}$  – o‘rnatilgan mashina va qurilma soni, dona.

Ikkinci guruh ko‘rsatkichlar asosiy fondlari tarkibi va tuzilishini xarakterlaydi. Ularga:

1. Asosiy fondlar yangilanishi koeffitsiyenti ( $K_{ob.n}$ ):

$$K_{yan} = \frac{F_{us}}{F_{y.o}}$$

bu yerda,  $F_{us}$  – joriy davrda yangidan ishga tushirilgan mashina va qurilma qiymati, so‘m;

$F_{i.o}$  – yil oxiriga asosiy fondlar qiymati, so‘m.

2. Asosiy fondlar kamayishi koeffitsiyenti ( $K_K$ ):

$$K_K = \frac{F_K}{F_{i.b}}$$

bu yerda,  $F_K$  – belgilangan davrda chiqarilgan asosiy fondlar qiymati, so‘m;

$F_{t,b}$  – davr boshiga asosiy fondlar qiymati, so‘m.

3. Asosiy fondlar o‘sishi koeffitsiyenti ( $K_{rost}$ ):

$$K_{rost} = \frac{F_{us} - F_K}{F_{y,b}}$$

bu yerda,  $F_K$  – chiqarilgan asosiy fondlar qiymati, so‘m.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda soliqlar bilan bir qatorda jadallashtirilgan amortizatsiya alohida o‘rin tutadi. Jadallashtirilgan amortizatsiya Moliya vazirligi ruxsati bilan amalga oshiriladi. Foydalanimagan imkoniyatlarni joriy etish va shakllantirishda alohida o‘rin tutadi.

Jadallashtirilgan amortizatsiya ajratilishi hozirgi zamon sharoitida jamg‘arishni rag‘batlantirishning, iqtisodiyotda strukturaviy o‘zgarishlarning bosh vositasi va xo‘jalik sikli, bandlik, ilmiy tekshirish tajriba konstrukturlik ishlariga ta’sir o‘tkazishning qurolidir. Shuning evaziga soliqqa tortilmaydigan foyda qismi aniqlanadi va keyinchalik amortizatsiya fondiga ajratilib kelgusida kapital mablag‘larni moliyalashtirishga sarflanadi.

Amortizatsiya normasi asosiy kapitalni ifodalovchilar turi bo‘yicha moliya vazirligi tomonidan chop etib boriladi. Foydadan to‘lanadigan soliqlar darajasini aniqlash va soliq inspektorlari ko‘rsatilgan xizmat yoki ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi kalkulatsiya bilan solishtirib chiqiladi. Bu yerda amortizatsiya ajratmasi moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan stavkaga mos kelishi shart. Bu sof foyda miqdori va soliq darjasasi va miqdoriga, shu jumladan, dividend to‘lovlariga bog‘liqdir.

Bozor iqtisodiyoti keng shakllangan jahon mamlakatlarida bugungi kunda jadallashtirilgan amortizatsiyaning quyidagi turlaridan foydalanimoqda:

- qo‘sishimcha (bu yerda amortizatsiya ajratmasi miqdori obyekt boshlang‘ich qiymatidan ortib ketadi);
- alohida (xo‘jalik faoliyatini jadallashtirish maqsadida vaqtincha amortizatsiya normasi oldindan belgilangan orttirib hisoblanadi);
- chiziqli yoki proporsional;
- oldindan (mashina va qurilma shakllanishidan oldin amortizatsiya ajratmasi ajratib olinadi);

- degressiv (kamayib boruvchi).

Yevropa mamlakatlarida jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmasi oxirgi ko'rinishi keng tarqalgan. Kamayotgan qoldiqdan ajratish (bu yerda amortizatsiya boshlang'ich qiymatidan emas, balki asosiy vositaning balans qiymatidan hisoblanadi). Masalan: korxonada 100 ming so'mlik qurilma o'rnatilgan. Moliya vazirligi tomonidan belgilangan amortizatsiya ajratmasi 30 %. Xizmat muddati 10 yil. Birinchi yili 100 ming so'mga nisbatan, keyinchalik 70 % ming so'mga nisbatan hisoblanadi va hokazo.

AQSH jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmasining «sonlar yig'indisi» usuli keng qo'llaniladi. Bu usul quyidagi tartibga hisoblanadi, ya'ni agar asosiy vosita 7 yil xizmat qiladigan bo'lsa, xizmat muddatiga qarab tartib bo'yicha sonlar yozib olinadi (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7) so'ngra ular yig'indisi hisoblab chiqiladi. Umumiy summa 28 ga teng. Jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmasi miqdorini balans qiymatga nisbatan umumiy suminani oxirgi yildan boshlab taqsimlash orqali hisoblab olamiz. Birinchi yiliga 7/28, ikkinchi yiliga 6/28, uchinchi yiliga 5/28 va hokazo shu tartibda. Ajratish doimo maksimal imkoniyat darajasida amalga oshiriladi, ajratilgan amortizatsiya summasi uzoq qolib ketmaydi – bu zararsizdir. Bu yerda ajratma summasi yildan-yilga kamayib boradi. Ajratilgan summa foydaning erkin qoldig'i bilan birgalikda yana asosiy kapital tarkibiga kiritiladi. Yil davomida birinchi yil darajasi bilan yana ajratib borilaveradi. Amaliyotda chiziqli va proporsional ajratish tizimi eng kam qo'llaniladi. Ular nisbatan jadallashtirilgan hisoblanadi. Sababi Moliya vazirligi tomonidan qisqartirilgan tartibda amalga oshiriladi. Haqiqiy xizmat muddati 10 yil bo'lsa, xizmat muddatini Moliya vazirligi 1 barobar tezlashtirish oqibatida besh yilga hisoblanadi. Investitsiyani davlat tomonidan tartibga solishning muhim richagi foyda soliqlardan ozod etish, uni amortizatsiya fondi tarkibida berkitish va zarur holatlarda kapital mablag' sifatida foydalanishdir.

### **Fermer xo'jaliklari aylanma fondlari va aylanma mablag'lari**

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni uzlusiz davom ettirish uchun aylanma fondlar bilan bir qatorda mehnat predmetlari va material manbalar zarur bo'ladi. Mehnat predmetlari mehnat vositalari bilan birgalikda mehnat mahsuloti uning iste'mol qiymati

va qiymatini yaratishda ishtirok etadi. Aylanma fondlar va asosiy fondlar, mehnat jarayoni bilan uzviy bog'langan.

Aylanma fondlar ishlab chiqarishning majburiy elementi hisoblanadi va mahsulot tannarxining asosiy qismini tashkil etadi. Ular ishlab chiqarishning bir jarayonida ishtirok etib, o'z qiymatini tayyor mahsulotga bosqichma-bosqich o'tkazib natural shaklini yo'qotadi.

Fermer xo'jaliklarini bozor sharoitida yetarli miqdorda aylanma mablag'larga ega bo'lishi uni me'yoriy faoliyat ko'rsatishining kafolatidir. Aylanma mablag'laridan samarali foydalanish o'z navbatida ishlab chiqarish samaradorligini ortishiga ham olib keladi. Shuning uchun taraqqiyotning barcha bosqichlarida davlat iqtisodiy siyosatining asosiy elementi bo'lib ham hisoblanadi.

Fermer xo'jaligi ishlab chiqarishdagi aylanma vositalari 2 qismdan iborat bo'ladi: aylanma va muomala fondlari.

Aylanma fondlarga ishlab chiqarish zaxiralari (yosh va boquvdagi hayvonlar, ozuqa-yem, urug'lik, yosh ko'chatlar, zaxira qismlari, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, zaharli ximikatlar va hokazo), tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davra xarajatlari kiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishga dehqonchilikda ekish bilan bog'liq xarajatlari, chorvachilikda inkubatsiya xarajatlari kiradi.

Fermer xo'jaliklarda muomala fondlari ham mavjud, ular aylanma bilan birgalikda aylanma vositalarini tashkil etadi.

Fermer xo'jaliklarda aylanma vositalarining hajmi ishlab chiqarish hajmi va sotish muddatiga bog'liq bo'ladi. Chorvachilikga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarda aylanma vositalar ichida yoki va boquvdagi hayvonlar, ozuqa asosiy o'rinni egallaydi, dehqonchilik esa - urug'lik, mineral o'g'it, yoqilg'i va moylash materiallari.

Aylanma mablag'lar, asosiy fondlar singari aylanish jarayonini o'taydi, ishlab chiqarish bosqichidan muomala bosqichiga o'tadi.

Fermer xo'jaliklarda aylanma mablag'lardan samarali foydalanishni xarakterlashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniadi:

1. Aylanish koeffitsiyenti:

$$K_0 = \frac{T + EBHQ + SHQ}{K_{o'}}$$

bu yerda,  $K$  – aylanish koeffitsiyenti;

$T$  – sotilgan mahsulot evaziga tushum, so‘m;

$EBHQ$  – yosh va boquvdagi hayvonlar qiymati, so‘m;

$SHQK$  – asosiy podadan sotilgan hayvonlar qiymati, so‘m;

$K_{\text{ж}}$  – aylanma mablag‘larni o‘rtacha yillik qoldig‘i, so‘m.

2. Aylanishning o‘rtacha davomiyligi ( $t$ ), 1 yildagi kunlar sonini, aylanish koeffitsiyentiga nisbati ( $K_0$ )

$$t = \frac{360}{K_0}$$

3. Bir so‘mlik aylanmaga to‘g‘ri keladigan aylanma mablag‘lar summasi.

4. O‘rtacha yillik aylanma mablag‘lar qoldig‘iga to‘g‘ri keladigan sotilgan mahsulot qiymati.

Aylanma mablag‘larni fermer xo‘jaliklarida shakllantirish manbalari shaxsiy va yollanma mablag‘lar hisoblanadi.

Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash yo‘llari:

➤ O‘simliklar hosildorligi, chorva hayvonlari mahsuldarligi o‘sishi, mahsulot sifati yaxshilanishi, mehnat unumdarligi ortishi, ishlab chiqarishga yangi, ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etilishi, himoyalashtirish, yarlarni meleorativ holatini yaxshilash, yangi navlar va nasllarni joriy etish.

➤ Mashina va qurilmalarning smenalik yillik ishlab chiqarish unummini yaxshilash, asosiy fondlar tuzilishini takomillashtirish, asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar orasidagi optimal nisbatni saqlash, material manbalarni tejash, ishlab chiqarish vositalaridan to‘g‘ri foydalanish.

➤ Fermer xo‘jaligi mashinalari, qurilish va loyihalash ishlari qiymatini arzonlashtirish va takomillashtirish.

Bir so‘z bilan aytganda, aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish, fermer xo‘jaliklari iqtisodiy salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Shu boisdan, ushbu masala doimo fermer xo‘jaliklari rahbarlarining diqqat markazida bo‘lish darkor.

## **O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollari**

1. Fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish fondlari.
2. Fermer xo‘jaliklari asosiy ishlab chiqarish fondlari va ularning turlanishi.
3. Fermer xo‘jaliklari asosiy ishlab chiqarish fondlari hisobi, baholash va eskirish.
4. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish ko‘rsatkichlari va ularni aniqlash uslubi.
5. Aylanma fondlar tushunchasi va tarkibi.
6. Fermer xo‘jaliklarida aylanma mablag‘larni samarali foydalanish ko‘rsatkichlari va ularni aniqlash uslubi.

### **2.3. Fermer xo‘jaliklarda mehnat potensiali va ish haqi**

#### **Fermer xo‘jaliklarida mehnat potensiali va undan foydalanish**

Mehnat bu insonning ma’lum bir maqsadga qaratilgan faoliyati bo‘lib, bu jarayonda tabiat in‘omlarini o‘zining iste’moliga moslaydi.

Fermer xo‘jaligi mehnat potensiali ushbu sohada band bo‘lgan mehnatga layoqatli aholi qismi hisoblanadi.

Hozirgi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida 700 mingdan ortiq kishi fermer xo‘jaliklarida mehnat qiladi. Respublika mehnat potensialining 6 foiziga to‘g‘ri keladi.

Fermer xo‘jaliklari oldida turgan muhim masalalardan biri qishloq joylarida mehnat potensialidan samarali foydalanish va mehnat unumдорligini yuqori sur’atlar bilan ortishini ta’minlash hisoblanadi.

Fermer xo‘jaliklarida ishchi kuchidan samarali foydalanishni xarakterlashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

- ishlangan ish kunlari;
- ishlangan ish kunlari (ish soatlarini) mavjud ish vaqtini fondiga nisbati.

Fermer xo‘jaliklarida ish vaqtini fondidan foydalanish darajasi 1,0 dan pastdir, sababi qishloq xo‘jaligining sezonli xarakterga ega ekanligi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini takomillashtirish jarayonida asosiy e’tibor yuqoridagi ko‘rsatkichni yaxshilashga qaratiladi.

Tadbirkorlikning barcha tashkiliy huquqiy shakllari singari fermer xo'jaliklarida mehnat imkoniyatilaridan foydalanishni yaxshilovchi ko'rsatkich mehnat unumdorligi hisoblanadi. Mehnat unumdorligini ortishi to'g'ridan - to'g'ri fermer xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligiga olib keladi.

Mehnat unumdorligi bu vaqt birligi ichida yaratilgan mahsulot hisoblanadi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$MU = \frac{IM}{t}$$

bu yerda,

$MU$  – mehnat unumdorligi;

$UM$  – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

$t$  – ish vaqt sarfi.

Bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi natura shaklida (sentner) va qiymat shakli (so'm), sarflangan vaqt esa ish kuni va ish soatlarida hisoblanishi mumkin.

Bundan tashqari, ishchi kuchidan samarali foydalanishni xarakterlashda mahsulot mehnat sig'imi ko'rsatkichidan ham foydalanishimiz mumkin. Bu vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot ko'rsatkichining teskari ko'rinishi bo'lib, sarflangan ish kunlari (ish soatlarini), ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga taqqoslanadi.

$$MU = \frac{t}{IM} \quad \text{yoki} \quad MU = \frac{t(\text{ish soati})}{IM(\text{senm})}$$

mehnat unumdorligini aniqlashda mehnat ko'rsatkichlardan foydalanish quyidashi ijobjiy samarani beradi:

– har bir mahsulot bo'yicha bir qator yillarda mehnat unumdorligi o'zgarishi darajasini aniqlashga, uni oshirish yuzasidan aniq tadbirlar ishlab chiqishi;

qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan (yetishtirilayotgan) mahsulot turlarining ko'pligi ularni bir o'lchamga keltirishni taqozo etadi, ya'ni qiymat.

Bu yerda formula quyidagi ko'rinishni oladi.

$$MU = \frac{IM(\text{so'm})}{t(\text{ish kuni yoki ish soati})}$$

yoki

$$MU = \frac{IM(so' m)}{t_i(o'rtacha yillik xodimlar)}$$

Fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
- ekin maydonlaridan foydalanishni yaxshilash va bu masalada doimiy ravishda aniq tadbirlar o'tkazib borish;
- qishloq xo'jaligi ekinlarini hosildorligini oshirish yuzasidan agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazish.

Hosildorlikni ortishi mehnat unumdorligi ortishining kafolatidir. Shu boisdan, agrotexnik tadbirlarni to'g'ri qo'llash uning garovi hisoblanadi.

Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida birinchi navbatda e'tibor hayvonlar mahsuldorligiga qaratiladi. Mahsuldorlikni ortishi zootexnik tadbirlarni to'g'ri qo'llanishiga bog'liqdir (hayvonlarni to'g'ri ozuqalantirish va zotlarini yaxshilash).

Mehnat unumdorligini ortishida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va mehnat intizomiga qat'iy rioya qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida yuqoridaq omilning roli ortib boradi.

### **Korxonalarda mehnatga haq to'lash.**

Ishchi o'z ish vaqt davomida moddiy boylik yaratadi. Ya'ni mahsulot ishlab chiqaradi yoki xizmat ko'rsatadi, shu maqsadda sarflangan vaqtish vaqt deyiladi.

Ish vaqtini jonli va buyumslashgan mehnat o'lchovi, u mehnat unumdorligi darajasini aniqlashda foydalilanadi va me'yor belgilashni asosi hisoblanadi. Mehnatni me'yorlashtirish ish vaqtiga asoslangan holda mehnatni taqsimlash va tartibga solish imkonini beradi. Bu holat korxona doirasida aniqlanadi, tarmoq yoki xalq xo'jaligi doirasida ham aniqlanadi, tarmoq yoki xalq xo'jaligi miyosida mehnat balansi yordamida ham aniqlanishi mumkin. Ish vaqtini sarfi me'yorini belgilanishi mehnat o'lchovi va ish haqi orasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

Ish vaqtining eng asosiy xarakterli tomoni uning davomiyligi va intensivligi hisoblanadi.

Ish vaqtining har bir birligida (soat, kun, hafta, oy) ishchi bir xil sharoitda turli midorda mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Bunga bir qator sabablar bo‘ladi: ishlab chiqarishni tashkil etilishi; ishchi qobiliyati; ish sharoiti; mehnat me’yori va boshqalar.

Ko‘p kamchiliklar mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ishchi ish vaqtini baholashda faqat uni uzunligi bilan emas, balki uni tig‘izligi va natijjaliligi bilan baholanishi zarur. Ish vaqtidagi uzilish, bo‘sh turib qolishni bartaraf etish, mehnat unumдорligi ortishiga olib keladi. Ammo barcha ish vaqtini yo‘qotishni oldini olish, mehnat unumi ortishiga olib kelavermaydi. Bu holatda ish vaqtidan foydalanishni yaxshilash kerak.

Mehnat unumini ortishi vaqt birligida ishchini sarflagan energiyasi ko‘payishiga olib keladi va bu xarajatlar tuzilishi o‘zgarishiga haqli, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani joriy etilishi ruhiy va aqliy energiya ortishiga olib keladi, jismoniy mehnat sarflari kamayadi.

Shuning uchun ish vaqt tushunchasi o‘ziga aniqlik kiritishni talab qiladi: ishdan tashqari vaqt, bo‘sh vaqt.

Ishchilarning umumiy kalendar ish vaqtini fondi mazmuniga ko‘ra ikkita katta bo‘limdan iborat: **ish vaqt va ishdan tashqari vaqt**.

Ish vaqtida moddiy boylik yaratiladi. Ishdan tashqari vaqtida bu kalendar fondidan ish vaqtini chiqarib tashlash orqali aniqlanadi. Bu vaqtida ishchi dam oladi, uxlaydi, o‘zining maishiy ehtiyojlarini ta’minlaydi.

Ish vaqtida bilan ishdan tashqari vaqt orasida uzviy bogliqlik mavjud. Ko‘proq miqdor nuqtai nazaridan bog‘liqlik bo‘ladi. Faqat kunning va haftaning davomiyligi doymiy miqdor, ammo ish vaqtini va ishdan tashqari vaqt orasidagi munosabat o‘zgarishi mumkin. Buning ichida belgilovchisi ish vaqtini hisoblanadi, uning davomiyligi qonunda qat’iy belgilab qo‘yiladi.

Bugungi kunda respublikamizda 5–6 kunlik ish vaqtini belgilangan bo‘lsa, uning davomiyligi 6–8 soat hisoblanadi.

Sanoatda ish vaqtini davomiyligi o‘rtacha vaqtini hozirda 40 soatni tashkil etadi. Ish vaqtini davomiyligi qisqarishi ishdan tashqari

vaqt ortishiga olib keladi. Bo'sh vaqt hissasini ortishi xodimlarning boshqa uy ishlari bilan shug'ullanish imkonini beradi.

Shuni ham esda tutish kerakki, ish vaqt va ishdan tashqari vaqt orasidagi bog'liqlik faqat miqdor jihatdan emas. Ishlab chiqarish faoliyati mazmuni, ish vaqt xarakteri bo'sh va ishdan tashqari vaqt tuzilishiga ta'sir etadi. Masalan, malakali faoliyat uchun ishchi o'z ustida ishlashi, o'qishi zarur va uning teskarisi.

Ishdan tashqari va bo'sh vaqt, ish vaqt samaradorligiga ta'sir etadi, u mehnat unumdorligi ortishiga olib keladi. Yaxshi dam olmaslik, ko'chib yurish, ortiqcha harakat mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir etadi. Ishchini ruhiyatini tushiradi va ish qobiliyatini pasaytiradi.

Ish vaqtini ikki asosiy turini farq qila bilish kerak. Ish vaqtinajmi va kalendar vaqt. Ma'lum bir ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun ish vaqtinajmi barcha xarajat miqdori bilan aniqlanadi. Bu yerda kalendar faqat foydaga bog'liq emas.

Ish vaqtini kalendar miqdorda o'lchanishi ishlab chiqarish vaqt davomiyligini xarakterlaydi yoki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan ish vaqtinajmida, ish vaqtinajmi bilan kalendar ish vaqtinajmi fondi bir-biri bilan bog'liq.

Mehnat haqi-bu zaruriy mahsulotning bir qismi bo'lib, korxonani yollanma ishchisiga yoki xodimiga uni ma'lum vaqt davomidagi mehnatni sifat va miqdoriga qarab avvaldan o'rnatilgan me'yorlar asosida to'laniladigan kelishilgan haqdir.

Ishchi va xizmatchilarining mehnat haqlari — bu mehnat resurslarini ishlab chiqarish jarayonida qatnashuv bahosi hisoblanadi. U ma'lum bir miqdorda sarflangan mehnatning miqdori va sifatiga bog'liq bo'ladi.

Bozor munosabatlari bozordagi mavjud mehnat resurslarini tavsiya etadi, ularni hududlar bo'ylab joylashuvini, taqozo etadi. Qayerda ishchi kuchiga ehtiyoj bo'lsa, shu yerda harakat qilishi va jamlanishini bildiradi. Yuqorida omillarning barchasi mehnatga haq to'lashning aniq shaklini yuzaga keltiradi.

Bozor sharoitida mehnatga haq to'lash masalalari quyidagi tamoyilli holatlarga asoslangan.

To'g'ri rejali boshqaruv sharoitidagi har bir kishiga mehnat qilish dam olish huquqlari bir oz susayadi, bozor esa ko'proq ushbu jarayon natijalariga asoslanadi.

Mahsulot ishlab chiqariladi, u bozorda sotish natijasida o‘z xaridorini topadi. Demak, u ijtimoiy zaruriy hisoblanadi. Shunday ekan, jamoaning har bir a’zosi ijtimoiy mahsulotning ma’lum bir qismini shaxsiy ehtiyojiga oladi.

Bozor konyunkturasi va iste’molchini tan olinishi bu ikki omil ayrim ishchilar yoki jamoaning daromad darajasini belgilaydi. Bunday holat aholining keng toifasi bilan ishlab chiqaruvchilarning bog’liqligini oshiradi. Yaratilgan mahsulot natijalari, uning sifat darajasi, bahosi iqtisodiy javobgarlik bilan bir qatorda ortib boradi.

Mehnatga qarab taqsimot o‘zgaradi, unga asos qilib mehnatga sarflangan xarajat ishlagan ish vaqt, uning malaka darajasi mehnatni bozorda tovar sifatida tan olinishi asos bo‘ladi. Tovar ishlab chiqaruvchilarning daromadlarining bosh manbai tovarlarni sotishning bosh mezoni bo‘lib qoladi.

Bozor sharoitida mehnat resurslarining harakatchanligi ortadi. U bir qator omillarga bog’liq bo‘ladi. Korxonalarining yo‘nalishi o‘zgaradi, sababi bozor tovarlar nomenklaturasi, sifatiga yangidan-yangi talablarni qo‘yadi. Ma’lum bir ishlab chiqarish yo‘qola borsa, yangi bir tizim yuzaga kela boshlaydi. Unga asosiy bo‘lmagan omil — migratsiya jarayoni. Ma’lum bir jamoada yoki ma’lum bir shu joyida oldingi mahsulotlarni qat’iy ishlab chiqarilishi yo‘qoladi. Ishchilar shunday ish joylarini axtaradiki, u yerda uning qobiliyatlarini to‘la namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda salbiy holatlar ham yuzaga keladi - xotirjamlik, ishonchsizlilik va uning eng asosiysi ishsizlik imkoniyati yuzaga kelishi sezildi.

Tadbirkor o‘z faoliyati davomida bir qator ichki va tashqi omillarga duch keladi, ularning hammasi to‘langan bo‘lishi shart. Stanok, mashina, qurilma, xomashyo sotib oladi, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. Ishchilarni yollaydi va ularga haq to‘laydi mana shu ish haqi hisoblanadi.

Fermer xo‘jaligi va uning xodimlari orasidagi mehnatga oid munosabatlar qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi bilan tartibga solinadi.

Fermer xo‘jaligidagi ish tartibi xo‘jalik boshlig‘i tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Fermer xo‘jaligi xodimlarining mehnat faoliyati hisobini olib borish xo‘jalik boshlig‘i tomonidan tashkil etiladi.

Fermer xo'jaligi xodimlarining mehnatiga haq to'lash taraflarning kelishuviga ko'ra pul hamda natura tarzida eng kam ish haqida oz bo'lмаган miqdorda belgilanadi.

Fermer xo'jaligining boshlig'i va xodimlari davlat ijtimoiy sug'ut tasidan o'tkaziladi. Ularga davlat ijtimoiy sug'urtalarini bo'yicha nafaqalar va pensiyalar tayinlash hamda to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi («O'zbekiston Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni 23-modda).

Bir tomonidan mehnatga to'lov ishchi va xizmatchilarining jismoniy va intellektual kuchi xarajatlarini qoplashi kerak. Ikkinci tomonidan boshqa korxonalarida shunday mehnatga to'lanayotgan haq darajasidan kelib chiqib, u norozi bo'lib qolmasligi ham zarur.

Ammo tadbirkorlarni bir qator tashqi omillar chegaralab qo'yadi:

- davlat tomonidan ish haqining minimal (eng past) darajasi belgilab qo'yilishi;

- birlashgan kasaba uyushmalari talablari;

- tadbirkor va ishchi orasidagi shartnoma shartlari.

Mehnatga haq to'lashni tashkil etishda tadbirkorlarga zarur:

- o'z korxonasida mehnatga haq to'lashning shakli va tizimini

- . aniqlash;

- boshqaruv xodimlari, mutaxassislar va xizmatchilarining oylik maoshlari tizimini ishlab chiqish;

- ishchilar, shu jumladan, boshqaruv xodimlariga mukofotlar to'lash mezoni va darajalarini aniqlash.


Tadbirkorlar ixtiyorida ko'p imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Ish haqi shakli va tizimini tanlash mehnatga qo'shimcha haq hisoblash, rag'batlantirish va boshqalar. Shunda rahbarning uddaburonligi, ishbilarmonligi ularning orasidan eng qulay holatni tanlab olish, u ma'lum bir miqdorda korxona faoliyatiga mos kelishi shart.

Hozirgi kunda ko'pchilik korxonalarda keng tarqalgan mehnatga haq to'lash shakllari quyidagilar:

**Ishbay** – har bir bajarilgan ish hajmi yoki mahsulot birligiga qarab haq to'lash.

**Vaqtbay** – ta'rif tizimida ko'rsatilgan me'yoriy ishlagan ish vaqtiga qarab.

Bu ikki shaklni quyidagi tartibdagi rasm ko'rinishida keltirishimiz mumkin:



## 2-chizma. Mehnatga haq to'lash shakllari.

Mehnatga haq tulashning shartnoma kontrakt tizimida ishchi kuchining oylik maoshi shartnoma asosida aniqlanadi.

Mehnatga haq to'lashning to'la nazariyasi hali ishlab chiqarilgan emas. Chop etilgan ilmiy izlanishlarda mehnatga haq to'lashning alohiča shakllarini ishlab chiqarish sharoitidan kelib chiqib, imkoniyatli va kamchilik tomonlari yoritib o'tilgan. Shunday ekan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimini belgilashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

ishchi kuchidan foydalanishni ragbatlantirish;  
ishlab chiqarishga ilg'or texnika va texnologiyani joriy etishni ragbatlantirish;  
ayrim korxonalar va xalq xo'jaligi manfaatlariga mos kelishi.

### **O‘z-o‘zini tekshirish yuzasidan savollar**

1. Mehnat potensiali haqida tushuncha.
2. Mehnat potensialini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash uslubi.
3. Kadrlar tuzilishi.
4. Mehnat potensiali haqida tushuncha.
5. Mehnat unumдорligi va uni oshirish yo'llari.
6. Mehnatga haq to'lash tizimi.
7. Mehnatga haq to'lashning yangi shakllari.
8. Mehnat shartnomasi, mazmuni va uning tuzish tartibi.

#### **2.4. Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishi xarajatlari, foydasi va rentabelligi**

**Tannarx mohiyati va iqtisodiy ahamiyati.** Mahsulot tannarxi muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, fermer xo'jaligi faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishning asosiy shartlardan biri hisobalanadi.

Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlarning pul ko'rinishidagi ifodasidir.

Fermer xo'jaliklari biznes rejasining 3–8 -shakllarida dehqonchilik va chorvachilik mahsuloti tannarxi hisobi berilgan.

Tannarx – xarid bahoning asosi hisoblanib, u erkin bozor baholaridagi hissasi 50%dan ortiqni tashkil etadi. Tannarx iqtisodiy elementlar va kalkulatsion moddalar bo'yicha turlanadi.

Iqtisodiy elementlari bo'yicha xarajatlar quyidagilarga bo'linadi:

- xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar;
- yoqilg'i va energiya;
- amortizatsiya ajratnasi;
- ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratma;
- transport xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Iqtisodiy elementlar bo'yicha xarajatlarni turlanishi fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar tannarxi tuzilishini to'la bilish imkonini beradi, korxona iqtisodiyotini yuksaltirish strategiyasini ishlab chiqishda alohida abamiyat kasb etadi.

Kalkulatsion moddalari bo'yicha yetishtirilgan mahsulotlar xarajatlarni turlanishi uning tarkibini xarajat yo'nalishlari va yuzaga kelish joylari bo'yicha baholash imkonini beradi. Bu aniq bir mahsulot turi va navi bo'yicha tannarxni klassifikatsiya qilishda qo'llaniladi. Ularga:

- ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagana xarajatlar va hokazo.

Kalkulatsiya yordamida ishlab chiqarish va to'la tannarx aniqlashi mumkin. Kalkulatsiya alohida bir mahsulot biriligiga yoki jami tovar mahsulotiga tuziladi. Kalkulatsiyalashning asosiy usuli normativ usul hisoblanadi. U mahsulot biriligiga progressiv noma va normativlarni joriy etishga asoslangan. Uning afzalligi foydalanishga qulayliklari emas, balki manbalardan oqilona foydalanishga ham undaydi. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar kalkulatsiya moddalarini bo'yicha quyidagicha turkumlanadi:

- urug'lik va ko'chatlar;
- mineral o'g'itlar va zaharli ximikatlar;
- chorva hayvonlarini himoya sarflari.
- yem-xashak va ozuqa;
- mahsulotlarni qayta ishlash bilan bog'liq xomashyo va materiallar;

- asosiy vositalarni ushlab turish va eskirishi bilan bog'liq xarajatlar;
- tabiiy yo'qotishlar;
- boshqa sarflar.

Barcha qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan tarbirkorlik subyektlari singari fermer xo'jaliklarida ham xarajatlar mahsulot tannarxi tarkibiga kiritilishiga qarab tug'ri va yondoshma

xarajatlarga bo‘linadi. To‘g‘ri xarajatlar har bir mahsulotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritilsa, yondoshma xarajatlar mahsulot hajmiga yoki ish birligiga proporsional taqsimlanadi.

Fermer xo‘jaliklarda mahsulot tannarxi har bir soha mahsulotlari bo‘yicha aniqlanadi. Masalan: o‘simlikchilikda don mahsulotlari, paxta xom ashyosi sabzavot va poliz ekinlari, mevalar, ozuqa ekinlari va hokazo, chorvachilikda–chorva hayvonlari turi va mahsuloti bo‘yicha parranda go‘shti, tuxum pilla mahsuloti bo‘yicha.

Fermer xo‘jaliklar ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi ma’lumotlari haqida ma’lumotlar biznes reja jadvallarida aks ettirilgan.

Mahsulot tannarxini hisoblashda aynan shu mahsulotni ishlab chiqarishi bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olinadi.

Fermer xo‘jaliklarining umumxo‘jalik sarflari alohida mahsulot bo‘yicha hisobga olinishi imkoniyati bo‘limganligi uchun ushbu sarflar sohalar bo‘yicha proporsional taqsimlanadi.

Amaliyotda manbalardan oqilona foydalanishni xarakterlashda 1 so‘mlik tovar mahsulotiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar ko‘rsatkichidan foydalanamiz. Bu ko‘rsatkich mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun ketgan xarajatlarning ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qiymatiga taqqoslash orqali aniqlanadi. U quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$M = \frac{T}{TM}$$

bu yerda,  $M$  – 1 so‘mlik tovar mahsulotiga to‘g‘ri keladigan xarajat, so‘m;

$T$  – tovar mahsuloti tannarxi, so‘m;

$TM$  – tovar mahsuloti qiymati, so‘m.

Fermer xo‘jaliklarda mahsulot tannarxini kamaytirishning asosiy yo‘nalishlari:

➤ ishlab chiqarishda ilg‘or texnika va texnologiyalarni keng tatbiq etish;

➤ asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanish, ayniqsa, yer va yerdan unumli foydalanish;

➤ tejamkorlikka bosh vazifa sifatida qarash;

➤ mavjud, barcha turdagи qishloq xo‘jaligi texnikalari unumdorligini oshirish;

- mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va yuqori mehnat unumdarligi xarajatiga erishish;
- qishloq xo‘ajaligi ekinlari hosildorligi va chorva hayvonlarini oshirishga erishish;
- mahsulotlarni tabiiy yo‘qotishi oldini olish va sifatini yaxshilash;
- Yangi ekin navlarini va zoldor chorva mollarini ishlab chiqarish amaliyatga doimo tatbiq etib borish.

**Baho va bahoni shakllantirish.** Baho murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanib, u mahsulot qiymatining puldagi ifodasidir. Bahoni to‘g‘ri belgilanishi iqtisodiyotning barqarorlashuvining muhim omili hisoblanadi. Shuning uchnu ham baho davlat iqtisodiy siyosatining asosiy obyektlaridan biri hisoblanib keladi.

Bahoni shakllantirishda bir qator qonuniyatlarga asoslanadi.

Ular:

- iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligi;
- ilmiylik;
- umumiylilik;
- maqsadlilik va adreslilik;
- ijtimoiy zaruriy mehnat bazasida baho belgilash;
- moslanuvchanlik.

Bugungi bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida bahoni shakllanitirishda bir qator usullardan foydalilanadi. Bularга:

- ishlab chiqarish xarajati bazasida baho belgilash usuli;
- to‘la xarajat bazasida baho belgilash usuli;
- raqobatga tayangan holda baho belgilash;
- qiymat usuli;
- ekspert baholash usuli;
- balli usul va hokazo.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida baho quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

➤ hisob-kitob – bu funksiya yordamida fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulot qiymati aniqlanadi va mahsulot yetishtirish va sotish uchun qilingan ijtimoiy-zaruriy mehnat sarflari baholanadi;

➤ tartibga solish funksiyasi – bu funksiya yordamida ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi orasidagi munosabat ifodalananadi va bozor muvozanatiga erishilishiga olib keladi;

➤ taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi – baho mexanizmi yordamida mamlakat xazinasi shakllanadi va u hisobiga ijtimoiy soha rivojlanishi moliyalashtiriladi;

➤ nazorat (kontrol) funksiyasi – moddiy resurslar sarfi, harakati va ulardan foydalanishni hisobini tortishda baho asosiy vosita sifatida namoyon bo'lishi.

Baho – ishlab chiqaruvchini o'z faoliyatidan manfaatdorligini oshirishning bosh omili hisoblanadi. U ishlab chiqarishni kengaytirishga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga undaydi va oxirgi natija ishlab chiqaruvchini yuqori foyda olishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan davlat buyurmasi hisoblangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'molchilarga sotishda asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlatga sotish qat'iy xarid baholaridan va erkin baholardan keng foydalanilmog'ida.

Asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlatga sotish xarid bahosi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha subyektlar uchun yagona hisoblanadi.

Xarid baholar – iqtisodiyot mazmunga ko'ra mahsulot yetishtirish va sotish uchun ketgan xarajatlar va normativ foydadan iborat.

Bahoni shakllantirishda asos hisoblangan tannarx darajasi o'tgan davrdagi haqiqiy xarajatlar va rejalashtirilgan yilda kutilayotgan o'zgarishlar bazasida aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlatga sotish qat'iy baholarining ikkinchi elementi foyda hisoblanadi. Bu yerda foyda qishloq xo'jaligi samaradorligi normativ koeffitsiyentiga nisbatan kiritiladi [ $E_H = 0,25$ ].

Barcha qishloq xo'jaligi korxonalari singari fermer xo'jaliklari ham qo'shimcha qiymat solig'idan ozod etilgan.

Tadbirkorlikning faoliyati davomida yetishtirilgan yordamchi mahsulotlar erkin bozor baholari yordamida iste'molchilarga realizatsiya qilinadi. Bu yerda bahoni shakllantirishning barcha umumiy tamoyillariga asoslaniladi. Haqiqiy xarajat bahoni

belgilovchi baza bo'lib qoladi. Erkin baho ishlab chiqaruvchi bilan iste'mol orasida teng huquqli asosda kelishilgan holda aniqlanadi.

Fermer xo'jaliklari o'zlarini tomonidan yetishtirilgan ayrim turdag'i mahsulotlarini ist'molchilarga realizatsiya qilishda erkin bozor baholarining quyidagi ko'rinishlaridan ham foydalaniladi: kafolatlangan baholar garov baholar, biznes baholar va hokazo.

Erkin bozor baholarini shakllantirishda baho tarkibiga foydaning normativ asosda kiritilishi bekor qilingan.

**Fermer xo'jaliklari samaradorligi.** Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish samaradorligining ortishi bugungi kunning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Fermer xo'jaliklari samaradorligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u mehnat unumdarligi ortishi, samaradorlik va foydalilikdir.

Fermer xo'jaliklari samaradorligini baholashda quyidagi samaradorliklar farq qilinadi:

- 1.Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi.
2. Fermer xo'jaligi tarmoqlari va ekin turlari samaradorligi.
3. Alovida olingen tadbirlar samaradorligi.

Fermer xo'jaliklari samaradorligini baholashning mezoni bu ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Ishlab chiqarishdan ko'zlangan maqsad, bu jamiyat a'zolari ehtiyojlarini har tomonlama va to'la ta'minlashdir. Ishlab chiqarish samaradorligini iqtisodiy va ijtimoiy ko'rinishlari bo'lishi mumkin.

*Yalpi daromad – yalpi mahsulot qiymatidan ishlab chiqarishga qilingan material sarflarni chegirib tashlanishi.*

*Sof daromad – yangidan yaratilgan qiymatning pul ko'rinishi, yalpi mahsulot qiymatidan ishlab chiqarishdagi muomala xarajatlari farqi.*

*Foyda – tovar mahsuloti sotishdan tushgan tushumdan tovar mahsuloti to'la tannarxini chegirib tashlangan qismi.*

Fermer xo'jaliklari samaradorligini baholashda yuqoridagi umumlashgan kursatkichlardan tashqari xususiy kursatkichlardan xam foydalaniladi. Ularga:

Yerdan samarali foydalanish( E yer ) – yalpi mahsulotning (YaM) ekin maydoniga(EM) nisbati.

$$E \text{ yer} = \frac{YaM}{EM};$$

Yerda foydalanish darajasi:

Yer birligiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromad

$$E \text{ yer.d.} = \frac{YaD}{EM};$$

bu yerda,  $YaD$  – yalpi daromad, so‘m;

Yer birligiga to‘g‘ri keladigan sof daromad yoki foyda.

$$E \text{ yer.f.} = \frac{SF}{EM}; \text{ yoki } E \text{ yer.s.d.} = \frac{SD}{EM};$$

$SD$  – sof daromad, so‘m.

$SF$  – foyda, so‘m.

Ishchi kuchidan foydalanishni xarakterlashda bir kishi hisobiga yalpi daromad, bir kishi hisobiga sof daromad, bir kishi hisobiga foyda kursatkichlaridan foydalaniladi.

$$Et = \frac{YaD}{t}; \quad Et = \frac{C\Delta}{t}; \quad Et = \frac{F}{t};$$

bu yerda,  $t$  – xodimlar o‘rtacha yillik soni yoki ish soati.

Fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish samaradorligini baholashda rentabellik kursatkichi asosiy o‘rinni egallaydi va bosh ko‘rsatkich hisoblanadi.

Rentabellik(R) – olingan foydani (F) mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan xarajatlar umumiy summasi(S) ga nisbatidir.

$$R = \frac{F}{S} \times 100$$

Fermer xo‘jaliklari samaradorligini ortishiga quyidagi omillar ta’sir etadi:

- fermer xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish;
- qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish;
- fermer xo‘jaliklarini ixtisoslashtirish va yiriklashtirish;
- iqtisod va tejamkorlik;
- ishlab chiqarish tuzilishini takomillashtirish.

## **O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollari**

1. Ishlab chiqarish xarajatlari (tannarx) haqida tushuncha va uni pasaytirishning ahamiyati.
2. Xarajatlarning iqtisodiy mazmuni bo‘yicha turlanishi.
3. Xarajatlarning kalkulatsiyalash moddalari bo‘yicha turlanishi.
4. Fermer xo‘jaliklarda tannarxning pasaytirishning asosiy yo‘nalishlari.
5. Baho va bahoni shakllantirish.
6. Fermer xo‘jaliklari samaradorligi.
7. Rentabellik va uni aniqlash usuli.

### **2.5. Fermer xo‘jaliklarida soliq va sug‘urta**

**Fermer xo‘jaligidagi soliq.** Qishloq xo‘jaligidagi tadbirdorlikning barcha subyektlari qatori fermer xo‘jaliklari ham faoliyati yuzasidan soliqqa tortiladi.

Fermer xo‘jaliklarini soliqqa tortishdan ko‘zlangan maqsadlar:

- yerlardan oqilona foydalanish;
- tuproq unimdonligini oshirish;
- unimdonligi turlicha bo‘lgan yerlardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini tenglashtirish;
- fermer xo‘jaliklarini moliyalashtiruvchi maxsus jamg‘armalarni shakllantirish.

Qishloq xo‘jalik korxonalarini soliqqa tortish va soliq to‘lash mexanizmini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktabrdagi «Qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida»gi Farmoni sohadagi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-dekabrida «Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilaridan yagona yer solig‘i undirish tartiblari to‘g‘risida»gi qaroriga asosan 1-yanvar 1999-yildan boshlab qishloq xo‘jalik korxonalari uchun yagona yer solig‘i joriy qilindi.


Yagona yer solig‘ini joriy etishning zarurati:

— fermer xo‘jaliklari tomonidan to‘lanayotgan soliq turlarining ko‘pligi.

- soliq miqdorini uning turlari bo'yicha aniqlashdagi qiyinchiliklar;
- ba'zi bir soliq turlarining qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatiga ta'sir ko'rsatish mexanizmidagi kamchiliklar;
- soliq to'lash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlashdagi qiyinchiliklar.

Yagona yer solig'ini joriy etilishi munosabati bilan fermer xo'jaliklari quyidagi soliqlar to'lashdan ozod etildi:

1. Daromad solig'i.
2. Qo'shilgan qiymat solig'i.
3. Ekologiya solig'i.
4. Suv manbalaridan foydalanganlik solig'i.
5. Tabiiy boyliklardan foydalanganlik solig'i.
6. Mol-mulk solig'i.
7. Yer solig'i.
8. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
9. Mahalliy soliqlar va yig'imlar.



3-chizma. Yagona yer solig'i tarkibi.

Bojxona to'lovlari va litsenziya olish uhun to'lanadigan soliqlar fermer xo'jaliklari yagona yer solig'i tarkibiga kiritilmadi. Sababi mamlakatlararo munosabatda yuqoridagi to'lovlardan farqlanadi.

Soliq to'lovlarning asosiy manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- mehnat (mehnatga to'lanadigan ish haqi va boshqa imtiyozlar);
- investitsiya (kapitaldagi asosiy vositalar);
- manbalardan foydalanganlik.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortish bazasi bo'lib mehnat va investitsiya (kapital) hisoblansa, bizda tabiiy manbalarda foydalanganlikka alohida e'tibor qaratilgan.

Yagona yer solig'iga o'tishdan ko'zlangan maqsad ham fermer xo'jaliklarini manbalardan oqilona foydalanishga undashdir.

Hozirda yagona yer solig'i tarkibiga kiritilgan soliqlarni ikki guruhga bo'lishimiz mumkin.

1) Bevosita yer bilan bog'liq bo'lган soliqlar (yer solig'i, suv solig'i, tabiiy boyliklardan foydalanganlik solig'i, ekologiya solig'i).

2) Bevosita yer bilan bog'liq bo'lмаган soliqlar (asosiy vositalar solig'i, foya solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, daromad solig'i, boshqa turdag'i mahalliy soliqlar).

Hozirgi yagona yer solig'i miqdori fermer xo'jaliklari tushimlarning 11,7 foizini tashkil etib, rivojlangan mamlakatlar ko'rsatgichi darajasiga mos keladi.

Yagona yer solig'i asosiy to'lovchilari bu yerdan foydalanuvchilar hisoblanadi (yerni ijaraga olganlar, qishloq xo'jalik kooperativlari, fermer xo'jaliklari agrofirmalar va boshqa turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar hisoblanadi. Dehqon xo'jaliklari yagona yer solig'idan ozod qilingan.

Fermer xo'jaliklariga soliqqa tortish tizimini tanlash huquqi berilgan. Shu boisdan, fermer xo'jaliklari quyidagi ikki tizimdan birini tanlab olishi mumkin.

**Birinchi:** Kichik korxonalar sifatida Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-dekabrdagi 469-sonli, O'zbekiston Respublikasining 1997-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi asosiy ko'rsatkichlari istiqbollari va davlat budgeti to'g'risidagi qaroriga muvofiq kichik korxonalar sifatida yagona soliq to'lash.

Birinchi holatda soliq stavkasi tushumda 6,0 foiz qilib belgilangan.

**Ikkinchisi:** Yagona yer solig‘ini to‘lash.

Quyidagi yerlar yagona yer solig‘idan ozod qilingan:

—aholi yashash punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari, qabristonlar;

—qo‘riqxona o‘rmon daraxtlari egallagan yerlar (yog‘och materiallari tayyorlash uchun ajratilgan terakzorlar kirmaydi);

—sport inshootlari, stadionlar sport maydonchalari, sog‘lomlashtirish komplekslari, sanatoriya kurort muassasalari;

—maorif, madaniyat va sog‘liqni saqlash obyektlari band qilgan yerlar.

—yangi tut daraxrtlari o‘tkazilgan yerlar uch yil muddatga, yangi tokzor va bog‘lar mevaga kirkunga qadar.

Fermer xo‘jaliklari tomonidan yagona yer solig‘i yil davomida uch marotoba bo‘lib to‘lanadi.

1-iyungacha yillik to‘lanaligan soliq summasining 20 %.

1-sentabrgacha 30 %.

1-dekabrgacha qolgan 50 %.

Yagona yer solig‘i fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish va moliyaviy natijalariga bog‘liq bo‘lmay, u yerdan unumli foydalanishni rag‘batlantiradi.

Yagona yer solig‘i joriy etishning afzalligi:

➤ Soliq miqdorini hisoblash va soliqni yig‘im mexanizmini soddalashtirilganligi.

➤ Yagona yer solig‘i miqdori soliq to‘lovchilarga tuproqning ball-banitetiga qarab va yer uchastkasini joylashi hamda suv bilan ta’minlanganligiga qarab tuzatuvchi koeffitsient yordamida muvofiqlashtirilishi soliq miqdorini real belgilash imkonini beradi.

➤ Yagona yer solig‘idan tushayotgan tushumlarning asosiy qismi mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga qoldirilishi.

➤ Soliqqa tortishda soliq miqdorini yerning sifatiga qarab hisoblanishi va tavakkallashgan yondashuv mavjudligi.

Oldingi tizimda yuqoridagi holatlarning aksariyati hisobga olinmagan.

**Fermer xo‘jaliklarida sug‘urta.** Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyati olib boruvchi xo‘jalik subyektlarida sug‘urta alohida ahamiyat kasb etadi, sug‘urta fermer xo‘jaliklarining mahsulot yetishtirish jarayonida yuz beradigan turli ko‘ngilsiz holatlar, bank muassasalaridan kredit olishda garovga qo‘yiladigan

mol-mulkini, bo‘lg‘usi qishloq xo‘jalik ekinlaridan tabiat injiqqliklari tufayli kam hosil olish natijasida ko‘radigan moliyaviy zararni ixtiyoriy sug‘ortalash ularni moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat yuritishining kafolatidir.

«O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi fermer xo‘jaliklariga xizmat qiluvchi yagona kompaniyadir.

Sug‘urta kompaniyasi faoliyat maqsadi: fermer xo‘jaliklar mol-mulkini, ekinlar hosili mahsulot yetishtirish uchun avans tariqasida ajratiladigan mablag‘lar qaytarilishi uchun javobgarlik, mahsulot yetishtirish uchun tijorat banklaridan olinadigan maqsadli kreditlarning qaytarilishi bo‘yicha javobgarlik, shuningdek, qishloq joylardagi yuridik va jismoniy shaxslarga sug‘urta xizmati ko‘rsatishdir.

So‘nggi yillarda ko‘plab fermer xo‘jaliklarimiz har xil tabiiy ofatlar tufayli ko‘rgan zararlarini sug‘urta shartnomalari asosiy moliyaviy ofat tariqasida qoplamoqdalar. Shu bilan bir qatorda bir qancha fermer xo‘jaliklarimiz moliyaviy mablag‘larni yetishmovchiligi bahonasi bilan sug‘urta to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lay olmayotir.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligidagi mavjud sug‘urta tizimining bosh maqsadi va vazifasi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiruvchilarining qo‘llab-quvvatlash va tabiiy ofatlar evaziga ko‘rgan zararlarini moliyaviy jihatdan qoplashdan iborat.

«O‘zagrosug‘urta» kompaniyasi mijozlarga 40 dan ortiq xizmat turlarini ko‘rsatmoqda, shu jumladan, fermer xo‘jaliklariga 4 xil majburiyat va 11 xildagi ixtiyoriy sug‘urta turlarini tavsiya etadi.

Quyidagi jadvalda fermer xo‘jaliklari faoliyatiga zarur bo‘lgan sug‘urta turlari nomi va stavkasi keltirilgan.

### Sug‘urta turlari va to‘lov stavkalari

4-jadval

No	Sug‘urta turlari	Ta’rif %
A	Majburiy sug‘ortalash.	
1.	Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish ishlarni o‘tkazish uchun avans tariqasida beriladigan fyuchers kontraktlari bo‘yicha malbag‘lar qaytarilishini sug‘urta qilish	1.0

2.	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xomashyosi va g'alla yetishitirishning mablag' bilan ta'minlashga beriladigan imtiyozli kreditlarni qaytarilishi bo'yicha tadbirkorlik xavfni sug'urtalash	1.25
3.	Transport egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	0.5-2.0
4.	Garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urta qilish.	0.25
B	Ixtiyoriy sug'urtalash.	
1.	Qishloq xo'jalik korxonalari ekinlari hosilini sug'urta qilish.	2.5-8.5
2.	Qishloq xo'jalik ekinlarini qayta ekish natijasida oldindan ko'zda tutilmagan xarajatlarni ixtiyoriy sug'urta qilish.	8.0-10.0
3.	Qishloq xo'jalik hayvonlarini tabiiy ofatlar, yuqimli kasalliliklar natijasida nobud bo'lishini sug'urta qilish.	4.0-8.0
4.	Bog'lar va uzumzorlar hosilini tabiiy ofatdan sug'urta qilish.	8.0-12.0
5.	Qishloq xo'jalik korxonalarining tabiiy pichanzorlari, yaylovlari hosilini va tut daraxtlari barglarini sug'urta qilish.	2.0-3.0
6.	Pilla hoisilini sug'urta qilish.	1.0-2.0
7.	Qishloq xo'jalik korxonalarining lizing hisobiga olingan texnikalarini sug'urta qilish.	0.5
8.	Qishloq xo'jalik korxonalari mol-mulkini sug'urta qilish.	0.5-4.0
9.	Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan jo'natilgan yuklarni sug'urta qilish.	0.4-4.0

Fermer xo'jaliklaridagi ixtiyoriy sug'urtalardan asosiysi bu – ekinlar hosili sug'urtasidir.

Sug'urta obyekti qishloq xo'jalik ekinlari hosili hisoblanadi. U muzlash, garmsel, do'l, sug'orish manbalaridagi suvsizlik, suv bosishi zarar ko'rgan dala, tabiiy yong'in natijasida nobud bo'lish;

kuchli shamol va surunkali yog‘ingarchilik hisobiga yo‘qotishlarni qoplashga tuziladi.

Sug‘urta shartnomasi mahsulot yetishtiruvchilarning yozma arizasiga asosan, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi va «O‘zagrosug‘urta» DASK tasdiqlagan ekish tavqimi muddatlaridan kechiktirilmagan holda tuziladi.

Sug‘urta mukofotlarini hisoblash uchun quyidagi hujjatlar asos bo‘ladi:

- 1) qishloq xo‘jalik ekinlari hosili qiymati;
- 2) rejalashtirilgan yilga 1 hektar yerdan olinadigan hosildorlik (so‘nggi uch yil o‘rtacha darajasidan yuqori bo‘lmasisin);
- 3) yetishtirilgan mahsulotlar sotish narxi.

Bu yerda har bir qishloq xo‘jaligi ekinlari hosili alohida hisobga olinadi.

Sug‘urta mukofotlari bo‘yicha tarif (stavka)lari har yili ko‘rilgan zararga asoslanib qayta ko‘rib chiqiladi. Sug‘urta mukofotlari sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta shartnommasida belgilangan muddatda sug‘irtalovchi hisob raqamiga to‘liq tushmasa, u holda sug‘urta javobgarligi tushumga nisbatan olib boriladi. Sug‘urta mukofotlari belgilangan muddatgacha kelib tushmasa, sug‘urta shartnomasi kuchga kirmagan deb hisoblanadi va xo‘jalikda qaytadan sug‘urta shartnomasi tuzish huquqi saqlanib qoladi.

Shartnomada ko‘rsatilgan muddatdan keyin tushgan sug‘urta mukofotlariga sug‘urtalovchi sug‘urta javobgarligini olib bormaydi va mablag‘ sug‘urta qildiruvchiga qaytariladi.

Hisoblangan sug‘urta mukofotlari sug‘urta bo‘limi hisobiga kelib tushgach, sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta polisi yozib beriladi. Sug‘urta polisi biror ofat yuz berganda, tovoni to‘lash uchun asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta qildiruvchi bu haqda sug‘urta bo‘limiga uch kun ichida xabar berishi kerak. Sug‘urta mukofotlari aniqlashda qabul qilingan bir hektar hosilning qiymati bilan hisobot yilida bir hektar maydonga yetishtirilgan o‘rtacha hosildorlik qiymati orasidagi farq fermer xo‘jaligi ko‘rgan zarur deb hisoblanadi.

Sug‘urta tovoni xo‘jalikdan 2-shakldagi qishloq xo‘jaligi statistik hisoboti topshirilgach 70%, qolgan 30% xo‘jalikning yillik hisoboti tasdiqlangach to‘lab beriladi.

**Bog‘ va uzumzorlar hosilini ixtiyoriy sug‘urta qilish.** Fermer xo‘jaliklari o‘zlarining hosilga kirgan urug‘li, danakli bog‘, hosilga kirgan uzumzorlarni har bir tabiiy ofatlar va boshqa hodisalar tufayli nobud bo‘lishini oldini olib ixtiyoriy sug‘urta qiladi.

Tartib bo‘yicha urug‘li va danakli meva beriuvchi bog‘lar sunnagi uch yil ichida hosil bermagan bo‘lsa, 50 va undan ortiq foiz eskirish vujudga kelgan bo‘lsa, Surxandaryo viloyatidan tashqari qishda ko‘milmay qolgan uzumzorlar sug‘urta qilinmaydi.

**Bog‘ va uzumzorlar hosilini to‘liq qiymatinining muayyan hissasidan, ammo 70 foizdan oshmagan miqdorda sug‘urta qilinadi.**

Bu yerda ham sug‘urta mukofotlarini hisoblashning boshlang‘ich manbai bo‘lib quyidagi hujjatlar xizmat qiladi:

- bog‘ va uzumzorlar hosili qiymatinining hisobi;
- 1 hektar maydon hosildorligi darajasi (so‘nggi uch yil ichida olingan hosildorlik ko‘rsatgichidan yuqori bo‘lmasligi kerak);
- kelishilgan narxlar darajasi.

Sug‘urta shartnomalari tuzish jarayonida urug‘li mevalarning davriy hosil berishi inobatga olinishi shart. Masalan: olma daraxtining.

Joriy yilda hosildorlik uch yillikning o‘rtacha hosildorlik darajasidan yuqori bo‘lsa, sug‘urta mukofotlarini hisoblashda so‘nggi uch yillik o‘rtacha hosildorligi darajasiga asoslanadi.

Sug‘urta mukofotlari shartnoma imzolangandan so‘ng 10 bank kuni davomida sug‘urtalovchi hisob raqamiga o‘tkazib berish kerak.

Agar biror bir hodisa tabiiy ofat yuz bersa, 24 soat davomida sug‘urta tashkilotiga xabar berish lozim. Sug‘urtalovchi esa xabar topgandan so‘ng 24 ish soati davomida obyektni o‘rganib, sug‘urta hodisasi yuzasidan tegishli dalolatnomani tuzishi shart.

Sug‘urta totoni bog‘ va uzumzorlardan hosil to‘liq yig‘ishtirib olingandan so‘ng, sug‘urta qildiruvchi 2-shakldagi qishloq xo‘jaligi hisoboti bo‘yicha 70 foiz, xo‘jalikning yillik hisoboti tasdiqlangandan so‘ng 30 foiz to‘lab beriladi.

**Chigitni qayta ekish ixtiyoriy sug‘urtasi.** Ushbu sug‘urtaning obyekti qayta ekilishi kerak bo‘lgan barcha turdagি qishloq xo‘jalik ekinlari hisoblanadi.

Quyidagi holatlarda sug‘urtalanadi:

- sovuq urishi;
- do‘l, jala va surinkali yomg‘ir yog‘ishi;

–sug‘orishni manbalaridagi suvsizlik va kamsuvlik.

Sug‘urta shartnomasi barcha ekin ekiladigan maydonlar bo‘yicha tuziladi. Sug‘urta shartnomalari muddati: pylonka ostiga ekiladigan ekinlar uchun 1-martdan – 25-martgacha, ochiq maydonga ekiladigan chigitlar uchun 20-martdan – 10-aprelgacha.

Qishloq xo‘jalik ekinlarining 1 ga qayta ekish xarajatlari qishloq «Agrosug‘urta» hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Sug‘urta mukofoti boshqaruva tomonidan ishlab chiqilgan stavka miqdorlariga asosan 3 bank kuni mobaynida tuman sug‘urta bo‘limining hisob raqamiga mablag‘ o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jalik ekinlari tabiiy ofatlardan zararlangan holda bir kecha-kunduz davomida sug‘urta qildiruvchi yozma ravishda sug‘urta kompaniyasiga xabar beradi.

Qayta ekiladigan qishloq xo‘jalik ekinlari narxi 1 ga qayta ekishga sarf xarajatidan kelib chiqqan holda barcha qayta ekilgan maydonni sug‘urta qilgan ekinlar bo‘yicha sug‘urta shartnomasida kelishilgan qiymatidan oshmagan holda aniqlanadi.

Zarar miqdori har bir ekin turi bo‘yicha alohida aniqlanadi.

**Chorva hayvonlarini ixtiyoriy sug‘urtalash.** Chorva hayvonlari 1 yil muddatga yuqumli kasalliklardan tabiiy ofatlar (zilzila, sel, chaqmoq, natijasida yong‘in chiqishi, tok urishi) natijasida nobud bo‘lishi yoki majburiy so‘yilishi hodisalaridan ixtiyoriy sug‘urtalanadi.

Sug‘urta obyektlari qoramollar, qo‘y-echkilar, uy parrandalari – 6 oylikdan, otlar, tuyalar, eshaklar va xachirlar – 1 yoshdan, cho‘chqalar, quyonlar va mo‘ynali hayvonlar – 4 oylikdan sug‘urtaga qabul qilinadi.

Sug‘urta shartnomasi sug‘urta qildiruvchining ariza bergen kunda mavjud bo‘lgan hayvonlar 5 tadan oshmagan sonidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Sug‘urta puli miqdori sug‘urta qildiruvchining taqdim etgan qiymati bo‘yicha belgilanadi, lekin u davlat xarid narxlarining 80 foizidan yuqori bo‘lmasligi kerak. Sug‘urta mukofoti 10 kunda to‘lanishi lozim.

Hayvonlarning sug‘urtasi bo‘yicha tarif (stavka) miqdorlari «O‘zagrosug‘urta» kompaniyasi tomonidan belgilangan sug‘urta

hodisasi yuz bergenida sug‘urta qildiruvchi tomonidan 16 ish soati davomida sug‘urtalovchiga xabarnoma berishi shart. Sug‘urtalovchi xabarnomani olgandan so‘ng 8 ish soati davomida sug‘urta hodisasi ro‘y bergen sug‘urta obyektini o‘rganib, sug‘urta hodisasi to‘g‘risida dalolatnomaga tuzadi.

Xarabarnomada banyo qilingan sug‘urta hodisasini tasdiqlash uchun mutasaddi tashkilotlardan tasdiqlovchi hujjatlar talab qilinishi shart.

Sug‘urta dalolatnomasi hayvonlar halok bo‘lgan yoki majburiy so‘yilgan joyda tuziladi.

Sug‘urta qilingan hayvonlar nobud bo‘lganda sug‘urta tovoni shartnomada belgilangan sug‘urta pulidan oshmagan miqdorda to‘lanadi.

Agar majburan so‘yilgan hayvonning go‘shti odamlar iste’moli uchun to‘la yaroqsiz bo‘lsa, sug‘urta tovoni to‘liq to‘lanadi.

Quyidagi hollarda sug‘urta tovoni to‘lashni rad etishiga haqlidir:

- hayvonlar xo‘jalik maqsadlari uchun so‘yilgan bo‘lsa;
- sug‘urta qildiruvchi imkoniyat bo‘lgan holda sug‘urta hodisasi bo‘lganligi to‘g‘risida xabar qilmasa;
- hisoblangan sug‘urta mukofoti tabiiy ofat bo‘lib o‘tgandan keyin yoki yuqumli kasalliklar tarqalgandan keyin kelib tushgan bo‘lsa;
- sug‘urta hodisasi bo‘lib o‘tgandan keyin qolgan qishloq xo‘jalik hayvonlarini saqlab qolish uchun sug‘urta qildiruvchi o‘z vaqtida kerakli chora-tadbirlarni ko‘rmasa;
- qo‘sishmcha zararlangan mol-mulklar uchun sug‘urta tovoni to‘lanmaydi.

**Lizing sug‘urtasi.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi «Qishloqni lizing shartnomalarida qishloq xo‘jalik texnikasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 424-sonli qarori bilan mashina traktor parklariga, qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlar)ga va fermer xo‘jaliklariga 7 yil muddatga lizingga beriladigan qishloq xo‘jaik texnikalarini (traktorlar va o‘rim-yig‘im texnikasi) sug‘urtalash vazifasi «O‘zagrosug‘urta» DASK zimmasiga yuklatilgan.

Kompaniya tomonidan lizingga beriladigan qishloq xo‘jalik texnikalarini sug‘urtalash qoidalari ishlab chiqilgan va barcha viloyat, tuman sug‘urta bo‘limlariga yetkazilgan.

Lizing oluvchilar texnikaning 85% qiymatiga «O'zagrosug'urta» kompaniyasi bilan sug'urta shartnomasini tuzadilar. Sug'urta mukofotlari hisoblash uchun sug'urta tarif (stavka) miqdori texnikaning 85 % qiymatida bir yilga 0,5%.

Shartnomalar bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari sug'urta kompaniyasi hisobiga kelib tushgach, sug'urta polisi rasmiylashtirilib beriladi va sug'urta polisi ko'rsatilgan muddat davomida javobgarlik olib boriladi.

Lizingda berilgan traktor va o'rim-yig'im texnikalari yo'l transport hodisalari, portlash, tabiiy ofatlar (yong'in, suv toshqini, sel, chaqmoq urishi, zilzila, dovul, bo'ron, yer ko'chishi), uchinchi shaxs tomonidan ataylab qilingan harakatlar natijasida, shikastlanishi yoki yaroqsiz holga kelishi sug'urta hodisalari hisoblanadi.

Sug'urta hodisalari natijasida lizingga berilgan texnika shikastlanganda sug'urta tovoni lizing oluvchiga, texnika qayta tiklash iloji bo'lmaganda esa lizing beruvchiga to'lab beriladi.

### **O'z-o'zini tekshirish yuzasidan savollar**

1. Yagona yer solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad.
2. Yagona yer solig'ini tarkibi va istiodiy mazmuni.
3. Yagona yer solig'i to'lashdan ozod bo'lgan yer maydonlari.
4. Yagona yer solig'i hisoblash va to'lash tartibi.
5. Sug'urta va sug'urtalashning iqtisodiy ahamiyati.
6. Majburiy sug'urta turlari.
7. Ixtiyoriy sug'urta turlari.
8. Ekinlar hosili sug'urtasi.
9. Bog' va uzumzorlar hosilini ixtiyoriy sug'urta qilish.
10. Chigitni qayta ekish ixtiyoriy sug'urtasi.
11. Chorva hayvonlarini ixtiyoriy sug'urtasi.
12. Lizing sug'urtasi.

### **II bo'lim yuzasidan test savollari**

1. Fermer xo'jaliklarda asosiy mahsuldar va ishchi podani tashkil etish manbalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

A) Asosiy mahsulodor va ishchi podani sotishdan tushgan tushum.

- B) Voyaga yetgan ishchi hayvonlar amortizatsiyasi, foydadan ajratma.
- D) Chorva hayvonlarini o'lganlari hisobidan olingan sug'urta to'lovlari.
- E) Bank kreditlari va budjet ajratmalari.
- F) Barcha javoblar to'g'ri.

2. Qaysi javobda «tijorat krediti» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

- A) Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan beriladi va veksel yordamida rasmiylashtiriladi.
- B) Banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga beriladi.
- D) Davlat qarz beruvchi va qarz oluvchi rolini o'ynaydi.
- E) Iste'mol tovar, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilish xarajatlari uchun.
- F) Bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz.

3. Qaysi javobda «Bank krediti» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

- A) Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan beriladi va veksel yordamida rasmiylashtiriladi.
- B) Banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga beriladi.
- D) Davlat qarz beruvchi va qarz oluvchi rolini o'ynaydi.
- E) Iste'mol tovar, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilish xarajatlari uchun.

F) Bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz.

4. Qaysi javobda «Davlat krediti» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

- A) Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan beriladi va veksel yordamida rasmiylashtiriladi.
- B) Banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga beriladi.
- D) Davlat qarz beruvchi va qarz oluvchi rolini o'ynaydi.
- E) Iste'mol tovar, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy joy qurilish xarajatlari uchun.
- F) Bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz.

5. Qaysi javobda «Iste'mol krediti» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

- A) Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan beriladi va veksel yordamida rasmiylashtiriladi.
- B) Banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga beriladi.
- C) Davlat qarz beruvchi va qarz oluvchi rolini o'ynaydi.
- E) Iste'mol tovar, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilish xarajatlari uchun.
- F) Bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz.

6. Qaysi javobda «Xalqaro kredit» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

- A) Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan beriladi va veksel yordamida rasmiylashtiriladi.
- B) Banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga beriladi.
- D) Davlat qarz beruvchi va qarz oluvchi rolini o'ynaydi.
- E) Iste'mol tovar, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilish xarajatlari uchun.
- F) Bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi karz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz.

7. Qaysi javobda «grant» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

- A) Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish asosida vaqtinchalik foydalanishga berish bo'yicha ishlarning mulkiy munosabatlari majmuasidir.
- B) Notijorat tashkilotlar yoki xususiy shaxslarga aniq biron bir maqsadga yo'naltirilgan vazifalarni bajarish uchun taqdim qiluvchi tomonidan qaytarilmaslik sharti bilan beriladigan mablag'lar.
- D) Bir shaxsning boshqa shaxsga yoki unga nisbatan bo'lgan huquqiy majburiyatlarni ta'minlash uchun taqdim etiladigan mulk hisoblanadi.
- E) Ma'lum bir muddatda, aniq maqsadga foizi bilan qaytarib berish uchun olingan mablag'.
- F) Barcha javoblar to'g'ri.

8. Qaysi javobda «lizing» tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan.

A) Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish asosida vaqtinchalik foydalanishga berish bo‘yicha ishlarning mulkiy munosabatlari majmuasidir.

B) Notijorat tashkilotlar yoki xususiy shaxslarga aniq biron bir maqsadga yo‘naltirilgan vazifalarni bajarish uchun taqdim qiluvchi tomonidan qaytarilmaslik sharti bilan beriladigan mablag‘lar.

D) Bir shaxsning boshqa shaxsga yoki unga nisbatan bo‘lgan huquqiy majburiyatlarni ta’minalash uchun taqdim etiladigan mulk hisoblanadi.

E) Ma’lum bir muddatda, aniq maqsadga foizi bilan qaytarib berish uchun olingan mablag‘.

F) Barcha javoblar to‘g‘ri.

9. Qaysi javobda «gorov» tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan.

A) Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish asosida vaqtinchalik foydalanishga berish bo‘yicha ishlarning mulkiy munosabatlari majmuasidir.

B) Notijorat tashkilotlar yoki xususiy shaxslarga aniq biron bir maqsadga yunaltirilgan vazifalarni bajarish uchun taqdim qiluvchi tomonidan qaytarilmaslik sharti bilan beriladigan mablag‘lar.

D) Bir shaxsning boshqa shaxsga yoki unga nisbatan bo‘lgan huquqiy majburiyatlarni ta’minalash uchun taqdim etiladigan mulk hisoblanadi.

E) Ma’lum bir muddatda, aniq maqsadga foizi bilan qaytarib berish uchun olingan mablag‘.

F) Barcha javoblar to‘g‘ri.

10. Qaysi javobda «kredit» tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan.

A) Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish asosida vaqtinchalik foydalanishga berish bo‘yicha ishlarning mulkiy munosabatlari majmuasidir.

B) Notijorat tashkilotlar yoki xususiy shaxslarga aniq biron bir maqsadga yo‘naltirilgan vazifalarni bajarish uchun taqdim qiluvchi tomonidan qaytarilmaslik sharti bilan beriladigan mablag‘lar.

D) Bir shaxsning boshqa shaxsga yoki unga nisbatan bulgan huquqiy majburiyatlarni ta’minalash uchun taqdim etiladigan mulk hisoblanadi.

E) Ma'lum bir muddatda, aniq maqsadga foizi bilan qaytarib berish uchun olingan mablag'.

F) Barcha javoblar to'g'ri.

11. Qaysi javobda «fizik eskirish» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

A) Hali ishlab chiqarishga yaroqli bo'lsa-da, undan foydalanishni iqtisodiy jihatdan samarasizligi.

B) Foydalanish jarayonida yemirilishi va yaroqsiz holga kelishi.

D) Yillik eskirish qiymati.

E) Vaqt birligi ichida bajarilgan ish yoki mahsulot birligiga sarflangan vaqt.

F) To'g'ri javob yo'q.

12. Qaysi javobda «ma'naviy eskirish» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

A) Hali ishlab chiqarishga yaroqli bo'lsa-da, undan foydalanishni iqtisodiy jihatdan samarasizligi.

B) Foydalanish jarayonida yemirilishi va yaroqsiz holga kelishi.

D) Yillik eskirish qiymati.

E) Vaqt birligi ichida bajarilgan ish yoki mahsulot birligiga sarflangan vaqt.

F) To'g'ri javob yo'q.

13. Qaysi javobda «amortizatsiya» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

A) Hali ishlab chiqarishga yaroqli bo'lsa-da, undan foydalanishni iqtisodiy jihatdan samarasizligi.

B) Foydalanish jarayonida yemirilishi va yaroqsiz holga kelishi

D) Yillik eskirish qiymati.

E) Vaqt birligi ichida bajarilgan ish yoki mahsulot birligiga sarflangan vakt

F) To'g'ri javob yo'q.

14. Qaysi javobda «mehnat unumдорлиги» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan.

A) Hali ishlab chiqarishga yaroqli bo'lsa-da, undan foydalanishni iqtisodiy jihatdan samarasizligi.

- B) Foydalanish jarayonida yemirilishi va yaroqsiz holga kelishi.  
D) Yillik eskirish qiymati.  
E) Vaqt birligi ichida bajarilgan ish yoki mahsulot birligiga sarflangan vaqt.  
F) To‘g‘ri javob yo‘q.

15. Qaysi javobda tamarx tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan.

- A) Mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlar yig‘indisi.  
B) Mahsulot sotishdan tushgan tushum va mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlar chegirib tashlangani.  
D) Foydaning tannarxga nisbati.  
E) Fermer xo‘jaliklarining yil davomida yetishtirgan mahsuloti va ko‘rsatgan xizmati evaziga olingan tushum.  
F) Mahsulot qiymatining puldagi ifodasi.

16. Qaysi javobda baho tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan.

- A) Mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlar yig‘indisi.  
B) Mahsulot sotishdan tushgan tushum va mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlar chegirib tashlangani.  
D) Foydaning tannarxga nisbati.  
E) Fermer xo‘jaliklarining yil davomida yetishtirgan mahsuloti va ko‘rsatgan xizmati evaziga olingan tushum.  
F) Mahsulot qiymatining puldagi ifodasi.

17. Qaysi javobda foyda tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan.

- A) Mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlar yig‘indisi.  
B) Mahsulot sotishdan tushgan tushum va mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlar chegirib tashlangani.  
D) Foydaning tannarxga nisbati.  
E) Fermer xo‘jaliklarining yil davomida yetishtirgan mahsuloti va ko‘rsatgan xizmati evaziga olingan tushum.  
F) Mahsulot qiymatining puldagi ifodasi.

18. Qaysi javobda rentabellik tushunchasiga to‘g‘ri ta‘rif berilgan.

A) Mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlar yig‘indisi.

B) Mahsulot sotishdan tushgan tushum va mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlar chegirib tashlangani

D) Foydaning tannarxga nisbati.

E) Fermer xo‘jaliklarining yil davomida yetishtirgan mahsuloti va kursatgan xizmati evaziga olingan tushum.

F) Mahsulot qiymatining puldagi ifodasi.

19. Qaysi javobda yalpi daromad tushunchasiga to‘g‘ri ta‘rif berilgan.

A) Mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlar yig‘indisi.

B) Mahsulot sotishdan tushgan tushum va mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan barcha xarajatlar chegirib tashlangani.

D) Foydaning tannarxga nisbati.

E) Fermer xo‘jaliklarining yil davomida yetishtirgan mahsuloti va ko‘rsatgan xizmati evaziga olingan tushum.

F) Mahsulot qiymatining puldagi ifodasi.

20. Xarid baho iqtisodiy mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

A) Tannarx, foyda, qo‘shilgan qiymat solig‘i.

B) Tannarx, foyda.

D) Tannarx, foyda, qo‘shilgan qiymat solig‘i, ta‘minot tashkilotlari ustamasi.

E) Tannarx, foyda savdo ustamasi

F) To‘g‘ri javob yo‘q.

21. Fermer xo‘jaliklari hozirda qaysi turdagি soliqlarni to‘laydi

A) Yagona yer solig‘i.

B) Daromad solig‘i, ekalogiya solig‘i, suv manbalaridan foydalanganlik solig‘i, mol-mulk soli g‘i, tabiiy boyliklardan foydalanganlik uchun soliq, yer solig‘i infratuzilmasini rivojlantirish soligi, mahalliy soliqlar.

D) Yagona yer soli g‘i, bojxona to‘lovi va litsenziya olish uchun to‘lov yoki yagona soliq.

E) Yer soligi, suv va tabiiy manbalardan foydalanganlik soligi, foyda solig‘i, ekologiya solig‘i.

F) To‘g‘ri javob yo‘q.

22. Yagona yer solig‘i qanday tartibda to‘lanadi.

A) yil boshiga to‘la miqdorda.

B) yil oxiriga to‘la miqdorda.

D) ikki marotaba: 1-yanvar holatiga 50%, 1-iyul holatiga 50%

E) 1-iyunga 20%, 1-sentabrga 30%, 1-dekabrga 50%:

F) Hisob raqamga pul mablag‘lari tushganda.

23. Yagona soliq belgilanganda to‘lov stavkasi necha foizni tashkil etadi.

A) 3%

B) 5%

D) 6%

E) 9%

F) 11%

24. Yagona yer solig‘i miqdori fermer xo‘jaliklari tushumining necha foizini tashkil qilmoqda.

A) 6%

B) 9%

D) 11,7%

E) 12%

F) 15%

25. Qaysi javobda «Qishloq xo'jalik ekinlarini qayta ekish natijasida oldindan ko'zda tutilmagan xarajatalarni» ixtiyoriy sug'urta miqdori to'g'ri ko'rsatilgan

- A) 8,0–10,0%
- B) 8,0–12,0%
- D) 1,0–2,0%
- E) 0,5%
- F) 2,5–8,5%

26. Qaysi javobda «Qishloq xo'jalik ekinlari hosilini sug'urta qilish» ixtiyoriy sug'urta miqdori to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 8,0–10,0%
- B) 8,0–12,0%
- D) 1,0–2,0%
- E) 0,5%
- F) 2,5–8,5%

27. Qaysi javobda «Bog'lar va uzumzorlar hosilini tabiiy ofatdan sug'urta qilish» ixtiyoriy sug'urta miqdori to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 8,0–10,0%
- B) 8,0–12,0%
- D) 1,0–2,0%
- E) 0,5%
- F) 2,5–8,5%

28. Qaysi javobda «Pilla hosilini sug'urta qilish» ixtiyoriy sug'urta miqdori to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 8,0–10,0%
- B) 8,0–12,0%
- D) 1,0–2,0%
- E) 0,5%
- F) 2,5–8,5%

29. Qaysi javobda «Lizing hisobiga olingan texnikalarni» sug‘urta miqdori to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) 8,0–10,0%
- B) 8,0–12,0%
- D) 1,0–2,0%
- E) 0,5%
- F) 2,5–8,5%

30. Qaysi javobda «Tavakkalchilikka» to‘g‘ri ta’rif berilgan?

- A) Oqibatini yaxshi bo‘lishiga umid bog‘lab, havf ehtimolini zimmasiga olgan holda qilinadigan harakat.
- B) Manba yoki daromadni to‘la yoxud qisman yo‘qotish xavfi.
- D) Noaniqlik sharoitida har qanday menejer uchun tabiiy holat, vaziyat.
- E) Omadsizlik darajasini miqdoriy baholash.
- F) Barcha javoblar to‘g‘ri.

### **3-BO'LIM**

#### **3.1. FERMER XO'JALIKLAR FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BOSHQARISH**

**Rejalahshtirishning mazmun-mohiyati va turlari.**  
Rejalahshtirish fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga solish va boshqarishning oliy shakli hisoblanadi.

Rejalahshtirish—bu fermer xo'jaliklari tadbirkorlik faoliyati maqsadini aniqlash, ular mas'uliyatiga bo'lgan bozor talablarini o'rganish, topshiriqlar bajarilishini ta'minlash va amalga ortishini nazorat qilib borish jarayonidir. Rejalahshtirishning talabini aniqlash va u yuzasidan topshiriqlarni olinishi boshlang'ich bosqichi hisoblanadi xolos, uning asosiy hal etuvchi bosqichi topshiriqlarni bajarilishini ta'minlash va nazorat qilib berish hisoblanadi.

Hozirgi kunda tadbirkorlikning barcha subyektlari singari fermer xo'jaliklar faoliyatini boshqarishda ham biznes rejalardan keng foydalaniadi.

Fermer xo'jaliklari biznes rejasi quyidagi asosiy masalalarni hal etadi:

- fermerlarga o'z strategiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'libgina qolmay, uni muvaffaqiyatli amalga oshishiga kafolat ham beradi.

- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermer xo'jaligi faoliyatini tashkil etish, tartibga solish va topshiriq (majburiyat)larni o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilishda asosiy quroq bo'lib xizmat qiladi.

- fermer xo'jaligi faoliyatini amalga oshirish jarayonida to'satdan yuzaga keladigan muammolar yuzasidan rahbarni ogohlantiradi va ularni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqishiga ko'maklashadi;

- sarmoyador (investor)larga fermer xo'jaligi faoliyati samarali ekanligi yuzasidan ma'lumotlar beradi.

Shu tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rejalardan keng foydalaniilgan. Fermer xo'jaliklarida topshiriqlarning texnik iqtisodiy jihatdan asoslashda ko'rsatkich va ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniadi.

## Ko'rsatkich – reja topshiriqlarining ifodalanish shakli

Ko'rsatkichlar tizimi esa topshiriqlarning mazmuni mohiyati va ifodalanishi majmuidir

Fermer xo'jaliklarida ham tadbirkorlikning barcha shakllari singari faoliyati ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Ko'rsatkichlar tizimiga ikkita asosiy talab qo'yiladi:

- aniq bir maqsad va manzil qaratilganlik.
- barcha tadbirkorlik subyektlari uchun umumiylit (yagonalilik).

Hozirgi kunda fermer xo'jaliklari biznes rejalarda topshiriqlarni ifoda etishda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan keng foydalaniladi.

### 1. Natura va qiymat:

Natura ko'rsatkichlari topshiriqlarni fizik o'lchov birliklarda (tonna, metr, kub, mill va hokazo) ifodalanishini anglatadi. Ulardan alohida olingan fermer xo'jaliklar bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini baholash mumkin.

Ma'lum bir mamlakat yoki qishloq xo'jaligi tarmog'ida fermer xo'jaligi faoliyatini baholashda natura ko'rsatkichlar yetarli bo'lmaydi va bu holatda qiymat ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ularga yetishtirilgan mahsulot va sotilgan mahsulot qiymatini olishimiz mumkin. Fermer xo'jaliklari mahsulot qiymati hajmi yetishtirilgan mahsulot miqdori uning bahosiga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Qiymat ko'rsatkichlarni hisoblashda amaldagi (haqiqiy) va solishtirma sharhlardan foydalaniladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga asoslangan fermer xo'jaliklarda shartli natura ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

### 2. Miqdor va sifat:

Miqdor ko'rsatkichlar fermer xo'jaliklari faoliyatining ekstensiv tomonini ifoda etadi. Ularga biriktirilgan chorva hayvonlari bosh soni

yer maydoni hajmi, yetishtirilgan mahsulot miqdori (natura shaklida) olishimiz mumkin.

Sifat ko'rsatgichlar – fermer xo'jaliklarining mavjud imkoniyatlaridan foydalanishi darajasini ifoda etadi. Ularga misol qilib, ekin maydoni hosildorligi, chorva hayvonlar mahsuldorligi kabilarni keltrishimiz mumkin.

### **3. Absalut va nisbiy ko'rsatkichlar:**

Absalut ko'rsatkichlar ishlab chiqarish faoliyatini tashqi tomonini ifoda etadi, ya'ni hajm, miqdor va hokazo .

Nisbiy ko'rsatkichlar ikki absalut ko'rsatkichni taqqoslash orqali hisoblanadi . Ularga foiz, ulishni misol qilib keltirishimiz mumkin. Nisbat ko'rsatkichlarga koefitsiyentlar ham kiradi.

**4. Tasdiqlangan va hisob-kitob ko'rsatkichlar:** Tasdiqlangan ko'rsatkichlar fermer xo'jaliklarining yuqori davlat va nodavlat organldari oldidagi olgan majburiyatları ifodasidir. Ularning bjarilishi majburiyatdir. Tasdiqlangan ko'rsatkichlarga fermer xo'jaliklarning asosiy turdag'i mahsulotlarni yetishtirish bo'yicha olgan topshiriqlarini olishimiz mumkin. Masalan: don, paxta sut, go'sht va hokazo (ixtisoslashuviga qarab).

Hisob-kitob ko'rsatkichlar tasdiqlangan ko'rsatkichlarni asoslashda foydalaniladi, ular yuzasidan fermer xo'jaliklariga yuqori organlar tomonidan topshiriqlar berilmaydi. Hisob-kitob ko'rsatkichlarga ekin maydoni, hosildorlik, chorva hayvonlari bosh soni va mahsuldorligini keltirishimiz mumkin.

### **3. 2. Fermer xo'jaligi biznes rejasi va uni tuzish xususiyatlari**

Biznes reja fermer xo'jaliklari faoliyatining samarali boshqarishning asosiy vositasi hisoblanadi. Shu boisdan ham fermer xo'jaliklari rahbarlaridan tashkil etish jarayonida asosiy hujjat sifatida biznes reja talab etiladi.

Biznes reja – fermer xo'jaligining strategik imkoniyatlarini belgilab beradigan asosiy hujjat hisoblanadi va 3–5 yilga tuzib chiqiladi.

## **Biznes-rejaning vazifalari**

### **Biznes-reja:**

- korxonani qanday faoliyat olib borishi va bozorda qanday o'rinni egallashini aniq yoritib berishi kerak;
- tashkil etiladigan korxonaning barcha ishlab chiqarish tafsifini aniq yoritish lozim;
- korxonani faoliyat yuritishning sxemasini har bir bosqichini to'liq ifodalashi lozim;
- korxonaning boshqarishning prinsiplari va usublarini yoritib borishi lozim;
  - moliya mablag'larini boshqarish dasturini o'z ichiga olgan holda, undan foydalanish samaradorligini ta'minlashi lozim;
  - sarmoyadorlar va kredit beruvchi banklarga korxona faoliyatining istiqbollarini ko'rsatib berishi lozim.

### **Biznes-reja nima uchun kerak?**

- Biznes-rejani tuzganingizda siz loyihangizga har xil xomxayollarsiz yanada tanqidiy va real tarzda ko'rish imkoniyatiga ega bo'lasiz.
- Biznes-reja – bu biznesda qo'llaniladigan shunday vositaki, siz ushbu vositani to'la ishlashini ta'minlash bilan birga loyihangizni muvaffaqiyatli amalga oshishini ta'minlaysiz.
- Biznes-reja-sizning g'oyangizni mazmunini loyihami moliyalashtiradigan institutlariga yetib borishda xizmat qiladi.

### **Biznes-rejani kim ishlab chiqadi?**

- Palata huzurida tashkil etilgan "Axborot – maslahat Markazlari"
  - Loyiha tashabbuskori (fermer).
- ### **Qanday holatlarda biznes-rejadan foydalilanadi?**
- Fermer xo'jalik faoliyati davomida muhim qarorlarni qabul qilishda.
  - Fermer xo'jalik kredit resurslaridan foydalilaniganda.
  - Fermer xo'jalik faoliyati natijalarini baholashda.
  - Ishlab chiqarish jarayonida rejalashtirilgan bashorat ko'rsatkichlarga tuzatishlar kiritishda.
  - Moliya mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda.
  - Boshqarishni samaradorligini oshirishda va boshqalar.

Biznes-reja tarkibiga, investitsion loyihani amalga oshirishda fermer foydalanadigan barcha ma'lumotlar kiritlishi lozim.

Fermer xo'jaliklari biznes-rejalari mazmun jihatidan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan na'muna bo'yicha tuzib chiqiladi.

Fermer xo'jaliklari biznes-rejasi tuzilishi:

Kirish

1 - jadval: qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun 1 hektar ekin maydoniga sarflanadigan mehnat va moddiy xarajatlar me'yori.

2- jadval: Yerdan foydalanish.

3- jadval: Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxi.

4 - jadval: Chorva hayvonlari bosh soni.

5 - jadval: 2 - ma'lumotnoma.

6 - jadval: Chorva hayvonlari va parrandalar mahsuldorligi.

7 - jadval: Chorva hayvonlarining oziqalarga bo'lgan ehtiyojlari va uning ta'minoti.

8- jadval: Chorva mahsulotlari tannarxi.

9 - jadval: 200 - yil uchun balansi.

10 - jadval: Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish.

11 - jadval: Yordamchi xo'jalik hisobiga ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot.

12 - jadval: Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish.

13- jadval: Umumxo'jalik xarajatlari tarkibi.

14 - jadval: Xodimlar soni va ish haqi fondi.

15 - jadval: Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari.

16 - jadval: Tashqi iqtisodiy faoliyat natijalari.

17- jadval: Mavjud va harakatdagi valuta.

18 - jadval: Budgetga to'lovlar.

19 - jadval: Fermer xo'jaliklari asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar.

20 - jadval: Qishloq xo'jaligi korxonalari yalpi daromadi.

21 - jadval: Moliyaviy natijalar.

Fermer xo'jaliklari o'zlarining nizomda ko'rsatilgan faoliyat turiga asoslangan holda, yuqori davlat va nodavlat tashkilotlari oldidagi olgan majburiyatlaridan kelib chiqib, samarali boshqarish maqsadida biznes rejalarini ishlab chiqadi.

Biznes doirasidan kelib chiqib, fermer xo'jaliklari biznes rejalarini ishlab chiqishda maxsus ishchi guruhlar tashkil etilishi

mumkin. Ishchi guruhga rahbarlikni fermer xo'jaligi boshlig'i amalga oshiradi.

Kichik fermer xo'jaliklarida biznes reja rahbar tomonidan tuzib chiqiladi.

Biznes reja ishlab chiqruvchi ishchi guruh tarkibiga yetakchi mutaxassislarni jalb etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayrim murakkab masalalarni hal etishda ekspertlar, maslahatchilar xizmatidan foydalanish mumkin. Odatda, rahbar tomonidan ishchi guruhga topshiriq beriladi va ularni bajarilishi muddati aniq belgilab qo'yiladi.

Ishchi guruh tomonidan tuzilgan biznes reja loyihasi fermer xo'jaligi yig'ilishida ko'rib chiqiladi, tasdiqlanadi va nusxasi yuqori tashkilot (dehqon fermerlar uyushmasi)ga taqdim etiladi.

Fermer xo'jaligi biznes rejalarini tuzib chiqishda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

1. Biznes reja sodda va tushunarli bo'lishi shart.
2. Biznes rejalarida faqat birinchi darajali asosiy ma'lumotlar aks ettirilishi shart.
3. Biznes rejalar ishlab chiqishda umumfoydalanilgan terminlardan foydalanishni maqsadga muvofiqligi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklari biznes rejalarini ikki asosiy maqsadda tuzilmoqda. Birinchidan: tadbirkorlik faoliyatini investorlar oldida samarali ekanligini isbotlash maqsadida.

Ikkinchidan: fermer xo'jaligi faoliyatini samarali boshqarish maqsadida.

Biznes rejalar doimiy ravishda qayta ko'rib berilishi kerak. Bozordagi holatdan kelib chiqib, ularga tu'zatmalar kiritiladi.

Fermer xo'jaliklari mahsulot yetishtirish jarayonida mehnat va moddiy xarajatlar sarflaydi. Ekin turlari bo'yicha mehnat va moddiy xarajatlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda quyidagi qaror va me'yoriy hujjatlar manbai sifatida foydalaniladi.

Fermer xo'jaliklarining «qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun bir gektar yerga ketadigan mehnat va moddiy xarajatlar me'yori» jadvali.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 24-iyundagi 317-soni qarori va Respublika Qishloq va suv xo'jalik vazirligini «1998–2000-yillarda paxta, bosq'li don ekinlari, sholi va kartoshka ekinlari maydonlari to'g'risida» ni 1997-yil 28-iyun

186-sonli buyrug‘iga va viloyat qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmalari tomonidan xo‘jaliklarga yetkaziladigan topshiriqlar asosida hamda qolgan ekin turlarini ekishga xo‘jaliklarning o‘zlarini bozor talablarini o‘rgangan holda talab etiladigan maydonlarini belgilashning, hosildorligi 3 yillik o‘rtachasidan kam bo‘lmagan miqdorda belgilab to‘ldiriladi.

**Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun 1 hektar yerga sarflanadigan mehnat va moddiy xarajatlar me’yori**

5-jadval

Ekin turlari	Hosil-dorlik, s/ga	Mehnat sarfi kis-his/s	Urug‘lik, kg	EMM, kg	O‘g‘it (sof holda) kg	Azot, kg	Fosfor, kg	Kaliy, kg

Yuqoridagi jadvalni to‘ldirish uchun barcha ekiladigan ekinlar turlari bo‘yicha urug‘lik, yoqilg‘i moylash materiallarining sarfi, tuproqning xususiyatlari bo‘yicha mineral va madaniy o‘g‘itlarning aniq hisobi bo‘lishi kerak.

Mehnat va moddiy xarajatlar me’yori-mehnat sarfi (kishisoti), urug‘, yoqilg‘i moylash materiallari va mineral o‘g‘it O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari tomonidan 1997-yil 7-aprel 11..48-81-sonli xati bilan ma’qullangan «Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishga talab etiladigan mehnat va moddiy resurslar me’yorlari»ning – 1.6.9.10.38 jadvallarida belgilangarini hosildorligiga tegishli me’yorlardan olib qo‘yilgan.

Yer va yerdan foydalanish bilan bog‘liq masala jadvalda ko‘rsatilgan.

6-jadval «Dehqonchilik mahsulot ishlab chiqarish tannarxi hisoblanib alohida ekin turlari bo‘yicha aniqlanadi. Bu yerda 5-jadvaldagagi mehnat sarfi, urug‘lik, yoqilg‘i moylash materiallari, mineral o‘g‘itlarning 1-hektar hisobidagi normasi, fermer xo‘jaligining ekin turlari bo‘yicha maydoniga ko‘paytirilib umumiy miqdori aniqlanadi va 3,5,7,9-grafalari yoziladi. Ularning miqdori

xo'jalik hisobiga oladigan baholarga ko'paytirilib qiymati topiladi va mos ravishda 4,6,8,0-grafalarga yoziladi. Olib borilgan hisob-kitoblar fermer xo'jalik tomonidan ekin turlari bo'yicha tuzib chiqilgan agrotexnik tadbirlar rejasiga mos kelishi lozim.

11-grafa – asosiy vositalar amortizatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 469-sonli qaroriga 5-guruhgaga ajratilgan holda, guruhlar bo'yicha asosiy fondlarning yillik amortizatsiyasi normalarini quyidagicha hisoblanadi:

1. Bino, inshoot va qurilmalar – 5 foiz.
2. Kichik (mikro) avtobuslar, taksi, yo'llarda foydalanish uchun mo'ljallangan avtotexnikalar, maxsus qurilmalar, inventar, moslama, kompyuterlar ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan moslamalar – 20 foiz.

## **Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxi**

## 6-jadval

3. Yuk tashish avtomabillari, avtobuslar, maxsus avtomabillar va traktorlar, xizmat ko'rsatish muassasalari asbob-uskunalar, qurilish qishloq xo'jalik mashinalari idora anjonlari – 15 foiz.

4. Yuqoridagi guruhlarda nomlari qayd etilmagan (eskiradigan) aktivlar – 10 foiz.

5. Temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositalari, elektr, dizel dvigatellari, generatorlar, elektr uzatish va aloqa moslamalari – 8 foiz.

Amortizatsiya ajratmalari hisoblash belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Amortizatsiya ajratmasini ekin turlari bo'yicha taqsimlash ish hajmiga nisbatan proporsional ravishda amalga oshiriladi.

12-grafa ishlari va xizmatlarni hisoblashda, fermer xo'jaligiga shartnoma asosida boshqa tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmat to'lovleri suv uchun to'lov, sug'orish inshootlarini ta'mirlash to'lovi, yordamchi tashkilotlarning xizmatlari to'lovlardan kelib chiqib aniqlanadi. Bu yerda faqat haqiqiy xarajatlar aks ettiriladi.

Fermer xo'jaligi har bir ekin turi bo'yicha «O'zagrosug'urta» respublika tashkilotining hududiy bo'limlari bilan ixtiyoriy asosida tuzgan shartnomalaridagi qiymat 13-grafaga yoziladi.

Fermer xo'jaligining shtat jadvalida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган xarajatlarning ekin turlari bo'yicha proporsional taqsimlagan qismi umum ishlab chiqarish va xo'jalik xarajatlari tariqasida 14-grafaga yoziladi.

15-garfada yuqoridagi ko'rsatilgan xarajatlar turlariga taalluqli bo'lmagan, ammo ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган xarajatlar ekin turlariga proporsional taqsimlangan holda yoziladi.

7-jadvalda so'ralgan har bir ekin turi bo'yicha mahsulot tannarxi jami xarajatlarni mahsulot miqdoriga taqsimlab hisoblanadi.

### **Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxi**

**7-jadval**

Satr	Mahsulot nomi	Miqdori	Hosildorlik k/ga	Mahsulot tannarxi	
				Jami m.s.	1 s. Tannarxi so'm
V	G	1	2	3	4

## 8-jadval chorva hayvonlari bosh soni va xarajatini ifoda etadi.

Yil oxiriga chorva hayvonlari bosh soni yil boshiga mavjud chorva hayvonlari bosh soniga, yil davomida yosh hayvonlarni asosiy podaga o'tkazilishi qo'shiladi va qari hayvonlarni brakga chiqishi chiqarib tashlanadi. Umumiy bahosi tirik vaznini 1 sentner bahosi ko'paytirilib topiladi. (8-jadvalga qarang).

Chorva hayvonlari bosh sonini aniqlashda shartli boshga aylantirish koeffitsiyentidan foydalilanildi.

### Shartli boshga aylantirish koeffitsiyenti

8- jadval

Nº	Ko'rsatkichlar	Shartli koeffitsiyent
1.	Yirik shoxli mollar	1.0
2.	Yosh va boquvdagi yirik shoxli mollar	0.6
3.	Cho'chqa	0.3
4.	Qo'y va echkilar	0.1
5.	Ot va tuyalar	1.0
6.	Parranda	0.02

6-jadvalda chorva hayvonlari mahsuldorligi aks ettirilgan bo'lib, u chorva hayvonlaridan olingan jami mahsulot miqdorini, chorva hayvonlari bosh soniga taqsimlash topiladi.

### Chorva hayvonlari bosh soni

9-jadval

Mazmuni	Satr	Bosh soni		Tirik vazn s.	Umumiy bahosi m.s.
		Yil boshiga	Yil oxiriga		
A	B	1	2	3	4

## 2. Ma'lumotnoma

10-jadval

Mazmuni	O'lcov birligi	Satr	Tirik vazn s.	Umumiyl bahosi m.s.

## Mollar va parrandalar mahsuldorligi

11-jadval

Mazmuni	O'lcov birligi	Satr	Bosh soni	Mahsulot miqdori yoki ming dona	Mahsul-dorligi
A	B	1	2	3	4

Chorvachilikni rivojlantirishda uning ozuqa bazasini yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ozuqaga bo'lgan ehtiyoj alohida mahsuldor hayvonlar va alohida ish hayvonlari bo'yicha aniqlanadi. Mahsuldor

hayvonlarning ehtiyoji ulardan olinadigan mahsulot birligiga nisbatan hisoblansa, ish hayvonlarining ehtiyoji esa bosh soniga nisbatan aniqlanadi.

Ozuqaga bo‘lgan talabni aniqlashda quyida berilgan har bir bosh shartli molni yem-xashak, dag‘al va shirali ozuqaga bo‘lgan talabi darajasiga asoslaniladi.

1 sentner mahsulotga to‘g‘ri keladigan ozuqa chorva mollarining alohida turlari bo‘yicha sarflangan ozuqa miqdorini ulardan olingan mahsulotga taqsimlanadi.

### **Chorva hayvonlarining ozuqalarga bo‘lgan ehtiyoji va uning ta’minoti**

**12-jadval**

Mollar ning turlari	Satr	Ozuqaga bo‘lgan ehtiyoj jami			Shu jumladan sotib olinadigan		1 s mahsulotga sarflanadigan ozuqa birligi	
		Ozuqa birligi s.	Sh.j. kon.ozuqa s.	Jami summa m.s.	Ozuqa birligi, s.	Jami sum ma m.s.	Jami	Sh.j., konsen t-ratlar
A	B	1	2	3	4	5	6	7

**Har bir shartli molni yem-xashak va dag‘al shirali  
ozuqalarga bo‘lgan talabi**

	Qoramol		Qo‘y va echkilar		Ot		Tuya		Cho‘ chqa	Par- randa
	Yem	Dag‘ al, shira- li ozu- qa	Yem	Dag‘al shirali ozuqa	Yem	Dag‘al, shirali ozuqa	Yem	Dag‘al, shirali ozuqa		
Qor. AR	1.2	2.1	0.04	0.27	0.9	2.1	0.38	2.8		
Andijon	1.6	3	0.04	0.27	0.9	2.1				
Buxoro	1.5	2.8	0.04	0.27	0.9	2.1	0.38	2.8		
Jizzax	1.5	2.7	0.04	0.27	0.9	2.1				
Qashqa- daryo	1.5	2.7	0.04	0.27	0.9	2.1	0.5	2.8		
Navoiy	1.5	2.8	0.04	0.27	0.9	2.1	0.37	2.8		
Naman- gan	0.8	3	0.04	0.27	0.9	2.1				
Samarq- and	1.5	2.7	0.04	0.27	0.9	2.1	0.38	2.8		
Surxond- aryo	1.5	2.7	0.04	0.27	0.9	2.1				
Sirdaryo	1.5	2.8	0.04	0.27	0.9	2.1				
Toshkent	1.6	3.1	0.04	0.27	0.9	2.1				
Farg‘ona	1.6	3.1	0.04	0.27	0.9	2.1	.			
Xorazm	1.5	2.8	0.04	0.27	0.9	2.1				
Respub- lika bo‘yicha	1.6	3.1	0.04	0.27	0.9	2.1	0.9		6.1	2.0

Fermer xo‘jaliklari biznes rejasining 13–14-jadvallarini to‘ldirish tartibi yuqorida qayd etilgan 6–7-jadvallarni to‘ldirish tartibiga mos keladi.

Yil davomida chorva hayvonlariga veteraniya xizmati ko‘rsatib boriladi. Shu sababli har bir bosh molga bir yilga dori-darmonlar sarflanadi. Ularni rejada hisobga olishda quyidagi normaga asoslanish lozim.

- |                   |   |             |
|-------------------|---|-------------|
| 1. Qoramollarga   | - | 873 so‘mlik |
| 2. Mayda mollarga | - | 55 so‘mlik  |

3. Otlarga	-	835 so‘mlik
4. Cho‘chqalarga	-	60 so‘mlik
5. Tuyalarga	-	390 so‘mlik
6. Tovuqlarga	-	22 so‘mlik

Joriy yil uchun rejajashtirilayotgan mahsulot balansi (15-jadval) alohida fermer xo‘jaliklar bo‘yicha mahsulot turlari bo‘yicha aniqlanadi. Bu yerda oddiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisob-kitob amalga oshiriladi. Jadvalda yil boshiga mahsulot turlari bo‘yicha qoldiq berilgan, yil davomidagi mahsulotlar kirimi qo‘shilgan va maqsadlar bo‘yicha sotilishi (chiqimi) chegirib tashlanadi. Balans miqdor va qiymat ko‘rinishida tuziladi.

Chorva mahsulotlari tannarxi (ming so‘m hisobida)

13-jadval

## **Chorva mahsulotlar tannarxi**

14-jadval

Navbatdagi 15-jadvalda rejalashtirilayotgan yil uchun mahsulot balansi keltirilgan. Balans barcha turdagi mahsulotlar bo'yicha alohida hisobga olinadi. Bu yerda mahsulotlarning kirim qilinishi va sarflanishi (chiqimi) manbalari to'liq ifoda etiladi.

200 yil uchun mahsulot balanssi

		Mahsulot-lar			
		Satr			
		II.	m.s	Yil boshiga mavjud	Kirin
			S.	Ishlab chiqildi	Sotib olindi
			m.s		Jami
			S.		M.s. (2Q4Q6)
			m.s		Jami
				Davlatga sotildi	Chiqim Shu jumladan
				Issiq ovqat uchun	
				Ayirboshlangan uchun	
				Bozor foizi	
				Ozuqa uchun	
				Urug'lik uchun	
				Mehnat haqiga berildi	
				Qayta ishlandi	
				Xo'jalik ehtiyojlari va boshqa.	
				Yil oxiriga qoldiq	
				Summa reja bo'yicha	

Fermer xo'jaliklarining ma'lum bir qismi o'zida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlash jarayonida, iste'molchilarga sanoat mahsuloti sifatida yetkazib bermoqda. Masalan: go'sht, pishloq, yogurt, brinza va hokazo.

Agar fermer xo'jaligi qayta ishlash korxonasiga ega bo'lsa, 16-jadval hisoblanadi.

Bu yerda sanoat mahsuloti ishlab chiqarishi hajmi 3-grafada ko'rsatilgan bo'lsa, uning tannarxi 4-5-grafalarda aks ettiriladi. 6-7-grafada esa ushbu mahsulotning sotilgan qismi ko'rsatiladi. 9-grafada hisoblanib «foyda» yoki «zarar» ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ushbu jadval ma'lumotiga asoslanib mahsulotlarning tovarlilik darajasini ham baholashimiz mumkin.

Bu yerda 6-grafa ma'lumoti 3-grafa ma'lumotiga taqqoslanadi.

## **Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish**

## 16-jadval

Bundan tashqari, ushbu jadval ma'lumotiga asoslanib mahsulotlarning tovarilik darajasini ham baholashimiz mumkin. Bu yerda 6-grafa ma'lumoti 3-grafa ma'lumotiga taqqoslanadi.

Navbatdagi 17-jadvalda fermer xo'jaligining yordamchi xo'jaliga yetishtirilgan va sotilgan mahsulot haqida ma'lumot beriladi.

Jadvalda yordamchi xo'jalikning mahsulot yetishtirish uchun qilingan sarflari, mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum va oxirgi moliyaviy natija ifoda etilgan.

Agar fermer xo'jalikgi tasarrufida yordamchi xo'jalik bo'lmasa, ushbu jadval hisoblanmaydi.

18-jadvalda fermer xo'jaligi tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish holati berilgan. Jadvalning 1-grafasida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotini sohalar bo'yicha miqdori (s), 2-grafasida mos ravishda tannarxi, 3-grafada esa olingan pul daromadi ko'rsatiladi. 7-grafada moliyaviy natija farq sifatida aniqlanadi.

19-jadvalda fermer xo'jaliklarining umumxo'jalik xarajatlarini tarkibiy tuzilishi aks ettirilgan. Ayrim elementlar ajratib ko'rsatilgan. Bundan tashqari, mahsulot turlari bo'yicha har 100 so'mlik mahsulotga qilingan xarajaat ham ko'rsatilgan. 19-jadval biznes rejaning 7,13,17,18 va 20- jadvallar ma'lumoti asosida to'ldiriladi.

### **Yordamchi xo‘jalik hisobiga ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot**

17-jadval

## **Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish**

18-jadval

Umumxo'jalik xarajatlari tarkibi

19-jadval

20-jadval fermer xo'jaliklari biznes rejasining tashkiliy bo'limi hisoblanib, unda fermer xo'jaligida band bo'lgan xodimlar va ularning ish haqi fondi hisobi berilgan.

Jadvalning 1-grafasida fermer xo'jaligi xodiimlarining o'rtacha yillik ro'yxatdagi soni ko'rsatiladi (kishi hisobida).

Qolgan 2-4-5-grafalarda ish haqi miqdori (to'lov shakkllari) bo'yicha to'ldiriladi. 3-grafada odam soati ko'rsatilgan (jami). Bundan tashqari, ushbu jadval yordamida bir kishi soat qiymatini ham aniqlash mumkin.

## Xodimlar soni va ish haqi fondi

20-jadval

Rejalantirilayotgan yilda asosiy ishlab chiqarish xarajatlari aniqlashda oldingi 7-13-19-20-jadvallardagi barcha xarajatlar jamlanib, 21- jadvalning 1-garfasiда qayd etiladi.

3-4-5-grafalarda esa xarajatlarning sohalar bo'yicha miqdori ko'rsatiladi.

Agar fermer xo'jaligi tashqi doirada ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansa, 22-jadval «Tashqi iqtisodiy faoliyat natijalari to'ldiriladi. Aks holda ushbu jadvalning to'ldirish zarurati yo'q.

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari \_\_\_\_\_ 200 yil

21-jadval

## **Tashqi iqtisodiy faoliyat natijalari**

22-jadval

	Satr	O'l-chov birli- gi	Eksport		Import		Faoliyatni amalga oshiruv- chi
			Miqdori	Summasi	Miqdori	Summasi	


### Mavjud va harakatdagi valuta

23-jadval

Ko'rsatkichlar	Satr	Summa
A	B	1

Agar fermer xo'jaligi valuta tushumiga ega bo'lsa, «Mavjud va harakatdagi valuta» 23-jadvali to'ldiriladi.

Fermer xo'jaligi joriy yilda to'lanishi zarur bo'lgan soliqlar, boshqa turdag'i to'lovlar va ajratmalar bo'yicha hisob-kitob qilib oladi va natijani «Budgetga to'lovlar» 24-jadvalining 1-grafasida aks ettiriladi.

«Fermer xo'jaligi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar» jadvalning 1-grafasida solishtirma narxlarda reja bo'yicha joriy yilda yetishtirilgan mahsulot qiymati va 2-grafasida amaldagi narxlarda yetishtirilgan mahsuloti qiymati aks ettiriladi. Solishtirma narx 1996-yilga nisbatan olinadi.

## Budjetga to‘lovlar

24-jadval

## **Fermer xo‘jaligi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar**

## 25-jadval

A	B	1	2	3
	Satr	Reja bo'yicha 200 yil mahsuloti (1996— bahosida)	200 yilda yetishtirilgen mahsulot armaldağı narxlarda	

26-jadval yalpi daromad ushbu biznes rejaning 7-13-16-jadval natijalariga asoslanib to'ldiriladi. Hisob-kitob umumiy va alohida o'simlikchilik, chovachilik sohalari bo'yicha amalga oshiralidi.

### **Qishloq xo'jaligi korxonalarini yalpi daromadi**

**26-jadval**

Mazmuni	Satr	Hammasi	Shundan	
			O'simlikchilikda	Chorvachilikda

Biznes rejaning 27-jadvalida moliyaviy natijalar ko'rsatiladi.

Ushbu jadvalni to'ldirishda-mahsulotlarni sotishdan olingan daromad va xarajatlarning summasi 16-jadvaldan olinadi (Biznes rejani satr-010-5 gr, 060-6 gr). Natijasi -070-5 grafasiga, ma'muriy xarajatlar (090-6 gr) qo'yiladi. Qolgan bandlar bo'yicha xo'jalikda qo'shimcha oladigan daromadi va xarajat bo'lsa to'ldiriladi.

Biznes rejada: penya, jarima va noqonuniy to'lovlar to'lanishi rejalashtirilmaydi.

Biznes rejani to'ldirishda foydalanish uchun: 1,2,3,4,5,6,7 va 8-ko'rsatkichli jadvallar ilova qilinadi.

### **Moliyaviy natijalar**

**27-jadval**

Ko'rsatkichlar	Satr	Bazis yili		Reja yili	
		Daromadlar	Xarajatlar	Daromadlar	Xarajatlar

### **3. 3. Fermer xo'jaliklari hisoboti**

Fermer xo'jaliklari ham tadbirkorlikning boshqa subyektlari singari Davlat statistika organlariga belgilangan muddatda hisobotlarni tavsiya etadilar. Hisobot shakli 1-fermer xo'jaligi (choraklik). Ushbu hisobot fermer xo'jaliklari o'z joyidagi statistika organiga taqdim etiladi. Taqdim etish muddati hisobot davridan keyin 3 kunida.

Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot mazmuniga ko'ra 12 ta bo'limdan iborat.

1 bo'lim: qishloq xo'jalik ekinlari maydoni va yalpi hosili.

Ushbu bo'lim hisoboti har chorakga to'ldirilib, o'rtacha har bir gektardan olingan hosil ishlov berilgandan so'ngra hosil miqdorini, yig'ib olingan umumiy maydonga hisoblanadi.

2-bo'lim: Yopiq yerlardagi ekinlarning maydoni va hosili. Bu jadvalni nasiyaxonalar bo'lgan fermer xo'jaliklari to'ldiradi. Har chorakga va yillik.

3-bo'lim bog'lar, rezavor va tokzorlar. Asosan bu bo'limni bog'dorchilik va sabzavotchilikka asoslangan fermer xo'jaliklari to'ldiradi. Agar dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan fermer xo'jaliklarida yordamchi ekinlar tariqasida mevali daraxtlar, tokzorlar bo'lsa va shu yuzasidan majburiyatlar olgan bo'lsa, hisobot beriladi.

4-bo'lim: mollar va parrandalar. Ushbu bo'limda asosiy e'tibor chorva hayvonlari bosh soni va ularning o'sishiga qaratiladi.

1-grafada mavjud chorva hayvonlari soni ko'rsatilsa, 2-grafada ulardan olingan nasl ko'rsatiladi.

5-bo'lim: Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bo'lib, barcha turdag'i olingan mahsulotlar miqdori natura shaklida ko'rsatiladi.

6-bo'lim: qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish.

Bu yerda fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlarning sotilgan qismi aks ettirilib, ular miqdor va qiymat ko'rinishida ifodalanadi. Ushbu jadval ham chorvaga va yillik to'lidiriladi.

7-12-bo'lim ma'lumotlari faqat yilga bir marotaba 1-yanvar holatiga to'ldiriladi.

7-bo'limda mavjud qishloq xo'jalik texnikalari haqidagi ma'lumot ifoda etilib, fermer xo'jaligi hisobida bo'lsa, barcha turdag'i texnika vositalari alohida ajratib ko'rsatiladi. Hisobotda

ularni soni ifoda etiladi (dona). Fermer xo'jaligi texnika vositalarini lizing operatsiyalari asosida sotib olgan bo'lsa, u alohida ajratib ko'rsatilishi lozim.

**8-bo'lim: Yoqilg'i moylash mahsulotlari.**

Ushbu hisobotda fermer xo'jaligining yil davomida olgan yoqilg'i moylash materiallari miqdori va yil oxiriga qolgan qoldiq qismi ko'rsatiladi.

**9-bo'lim mineral va organik o'g'itlar.**

Bu jadvalda mineral o'g'itlar va organik o'g'itlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Shu jumladan, fizik vaznda va 200 foizli oziq modda hisobida. Mavjud o'g'itlardan foydalanish harakati va yil oxiriga qolgan qismi ko'rsatiladi.

**10-bo'lim boshqa turdag'i faoliyati.**

Ushbu bo'limni qayta ishlovchi va turli xil xizmat ko'rsatuvchi muassasalar bo'lgan fermer xo'jaliklar to'ldiradi.

Qayta ishlangan mahsulot miqdori va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi natura va qiymat shaklida ifodalanadi. Ular hajmi sohalar bo'yicha alohida hisobga olinadi.

Ushbu bo'limda fermer xo'jaligining yil davomida tadbirkorlik faoliyati evaziga olgan yalpi tushimlari, barcha qilingan xarajatlar va moliyaviy natijasi ko'rsatiladi.

Shu bilan bir qatorda ushbu bo'limda olingan foydaning taqsimlanishi ham ifoda etilgan

Bundan tashqari olingan kreditlar, ish haqi fondi, debitorlik va kreditorlik qarzları yuzasidan ham hisobotlar aks ettirilgan. Asosiy bo'lim hisoblanadi. Fermer xo'jaligi rahbarida to'lidirshda alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

**12-bo'lim: Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bo'lib, unda asosiy fondlarning ishga tushirish, ishga tushirilgan obyektlar.** Shu jumladan, mashina va uskunalar, shundan lizing hisobiga olingan texnika vositalari kabi ma'lumotlar beriladi.

Hisobot fermer xo'jaligi rahbari tomonidan tasdiqlanadi va mas'ul xodim ismi familiyasi alohida ko'rsatib qo'yiladi.

Davlat statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikka ifodalangan davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzish, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatish yoki hisobotlarni taqdim etish

muddatlarini buzish ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 215-moddasida belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

### **O‘z-o‘zini tekshirish yuzasidan savollar**

1. Rejalashtirish mazmuni va mohiyati.
2. Reja va uning turlari.
3. Ko'rsatkich va ko'rsatkichlar tizimi.
4. Fermer xo'jaliklari biznes rejasi.
5. Fermer xo'jaliklari biznes rejalarini tuzib chiqishning alohidalik tomonlari.
6. Fermer xo'jaliklari hisoboti va topshirish tartibi.

### **3.4. Fermer xo'jaliklari faoliyatini boshqarish**

**Fermer xo'jaliklari faoliyatini boshqarishning davlat organlari maqsadi va vazifalari.** Davlat jamiyat taraqiyoti davomida birligina siyosiy funksiyalarini bajarib, qolgan mamlakat iqtisodiyoti yuksalishiga faol ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirning mazmun va mohiyati ijtimoiy munosabatlardan xarakteriga bog'liqidir.

Boshqaruvning ifodalananishini biz ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida obyektiv iqtisodiy qonunlardan foydalanishda ko'ramiz.

Mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda davlatning tashkiliy xo'jalik funksiyasini Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va ularning joylardagi tegishli organlari bajaradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyot vazirligi, shu jumladan, fantexinka davlat qo'mitasi, Mehnat va ijtimoiy masalalar vazirligi, Markaziy statistika boshqarmasi Markaziy bank va boshqa davlat qo'mitalari faoliyatini boshqaradi.

Ayrim tarmoqlar rivojlanishini boshqarish masalalari bilan tegishli vazirliklar va mahkamalar shug'ullanadi.

Qishloq xo'jaligi, shu jumladan, fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga solish masalalari bilan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi shug'ullanadi.

## O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

### Qoraqolpog'iston Respublikasi va viloyatlar qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi

#### Shahar, tumanlar qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining asosiy vazifalari:

- qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish va barqaror rivojlantirishga qaratilgan yagona agrotexnika siyosatini yurgizish;
- zamonaviy agrotexnologiyalarni takomillashtirish va ularni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlariga joriy etish;
- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga bozor tamoyillari va mexnazimlari asosida xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar, bo'g'inlar va tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Irrigatsiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy-hududiy prinsipidan havza prinsipiiga o'tishni ko'zda tutuvchi suv resurslarini boshqarish, shuningdek, sug'orma suvdan foydalanishda bozor tamoyillarini barcha darajada tatbiq qilish;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi boshqaruvi markaziy apparatining tuzimlmasida quyidagi muammolarni hal etish bo'yicha Kengashlar faoliyat olib boradi:

- paxtachilikni rivojlantirish;
- g'allachilikni rivojlantirish;
- sabzavot-poliz ekinlari meva va uzumchilikni rivojlantirish;
- chorvachilikni rivojlantirish;

– yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiyani rivojlantirish va yer unimdonorligini oshirish;

– qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va kimyolashtirish.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi yuzasidan boshqaruvni Respublika Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi amalga oshiradi.

Viloyatlarda qishloq xo‘jaligi subyektlari faoliyatini boshqaruvi viloyat qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmalari zimmasiga yuklatilgan.

Tumanlarda esa yuqoridagi vazifalar mos ravishda tuman qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmalari zimmasiga to‘g‘ri keladi.

Fermer xo‘jaliklari faoliyatini boshqarishning nodavlat organlari maqsadi va vazifasi. O‘zbekiston fermer xo‘jaliklari uyushmasi nodavlat, nobudjet tashkilot hisoblanib, u uyushma nizomi asosida ish olib boradi. Nizomga ko‘ra davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs huquqiga ega.

Fermer xo‘jaliklarini, uning namunaviy nizomini tan oluvchi ishlab chiqarish faoliyati bilan o‘z faoliyatini birgalikda yuritish istagani bildirgan jamoaa a’zolari, yakka tartibdagi shaxslarni va xo‘jalik yurituvchi boshqa subyektlarni ixtiyoriylik asosida va belgilangan tartibda o‘z a’zolari qabul qilgan tashkilot hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektlari singari uyushma belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tadi, o‘z nomi yozilgan dumaloq muhr, shtamplari, ramz belgisi va ish qog‘ozlariga ega bo‘ladi va banklarda hisob raqami ochishga haqlidir, jumladan, valuta hisob raqamlari.

Respublika hududida davlat, mahalliy boshqaruv organlari tayyorlovchi, ta’minlovchi, xizmat ko‘rsatuvchi, qayta ishlovchi tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar oldida, haq-huquqlari qonun bilan kafolatlangan manfaatlarini himoya qiladi.

U o‘z navbatida yuridik shaxs sifatida o‘z majburiyatlarini uchun o‘ziga qarashli mol-mulk bilan javob beradi, filiallar majburiyalari uchun javobgar hisoblanmasa-da, filiallar uyushma majburiyatlarini uchun **subsidiar** javob beradi.

Uyushma faoliyatining asosiy tamoyillari bu qonuniylik, oshkoraliq va a’zolarining teng huquqli hisoblananadi.

Uyushma rahbarlik organlari saylanadi va o‘z a’zolari oldida hisob beradi.

Uyushmaning maqsadi respublikadagi barcha fermer xo'jaliklarining keng ko'lamma va muvaffaqiyatli rivojlanishini tashkil qilishga yordam berishi bilan birgalikda ularni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini asosiy yetishtiruvchilariga aylanishiga, qishloqda mulkdorlar sinfini shakllanishiga va ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosbatlarda o'mini saqlab qolishdir.

Uyushmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish, agrar sohada olib borilayotgan islohotlarni jadallashtirish va samaradorligini oshirishni ta'minlashga ko'maklashish;
- davlat qonunlari va xukumat qarorlarini to'la ijrosini ta'minlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish;
- uyushma markaziy kengashi qarorlari, farmoyishlari va buyruqlarini bajarilishini ta'minlash;
- a'zolarga uzoq muddatga foydalanish uchun ijaraga berilgan yer maydonlari va samarali, maqsadli qonun va agrotexnika qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda foydalanishni tashkil etish;
- uyushma fermer xo'jaliklari va boshqa a'zolari tomonidan ekin maydonlaridan foydalanganlik yuzasidan monitoringlar yuritish va natijalariga ko'ra qonunchilik va belgilangan chora-tadbirlarni qo'llash.
- uyushma a'zolari, uyushmaga qarashli fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik hisobidan tashkilotlar haq-huquqlarini himoya qilish va sudiarda ular nomidan ishtirok etish;
- ta'minotchi, tayyorlovchi, qayta ishlovchi va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik shaxslar tomonidan o'z shartnomaviy majburiyatlarni bajarilishi monitoringini yuritish;
- monitoring natijasi va aniqlangan qonunbuzarlik, holat va kamchiliklarni aniqlash va u yuzasidan davlat hokimiyat organlariga axborotlar berish;
- respublikada fermerlikni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, shu jumladan, qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy bazasini shakllantirish va takomillashtirish tadbirlarini belgilash;
- uyushma respublika hududida a'zolari tomonidan tashkil etilgan mahsulotlarni sotishda, zarur holatlarda moliyaviy yordam ko'rsatishga ko'maklashuvi qo'shma korxonalar tashkil etish hisobiga yangi ish o'rnlari yaratish;

- fermer xo'jaliklarga malakali kadrlar tayyorlash va kadrlar malakasini oshirish masalalarida faol ishtirok etish;
- qishloqda zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishda va fermerlar talab va ehtiyojlariga mos tushadigan boshqa xizmat turlarini yaratishning dasturlarini ishlab chiqish;
- yuqoridaagi vazifalarni samarali hal etish maqsadida uyushma o'z vakolati va qonunlar doirasida tadbirlar ishlab chiqadi va amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlashga ko'maklashadi.

Uyushmaning vakolatlari:

- davlat hokimiyat organlari va boshqa tizimlarda a'zolar haq huquqlarni himoya qilish.
- qishloq xo'jaligida amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar yuzasidan qonunlar, dasturlar va boshqa me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish.
- o'z vakolati doirasida davlat hokimiyat organlari tomonidan fermer xo'jaliklari manfaatlariga bog'liq barcha masalalarni idoralar, idoralararo komissiyalar, ekspertlar Kengashi va turli doiradagi ishchi guruhlar ishida ishtirok etish;
- uyushma fermerlarga mahalliy xorijiy kreditlar va grantlar jalg etish va ulardan foydalanish monitoringini yuritish.
- o'z vazifalarni bajarish uchun davlat va xo'jalik boshqaruv organlaridan axborotlar olish.
- davlat standartlari asosida fermerlarni o'qitish va malakasini oshirish;
- turli xildagi ko'rgazmalar tashkil etish va ularda ishtirok etishni ta'minlash;
- yangiliklarni chop etish va tarqatish.

Uyushma rahbarlik organlari:

- konferensiya;
- uyushma kengashi;
- nazorat-taftish komissiyasi.

Konferensiya oliy organ hisoblandi. U saylangan delegatlar ishtirokida o'tkaziladi. Konferensiyada saylangan delegatlarning 2/3 qismi ishtirok etsa, qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'ladi. Konferensiya qarori konferensiyada ishtirok etgan delegatlarning ochiq ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Uyushma konferensiyasi o‘z vakolatlarini ma’lum bir qismini o‘z kengashiga berish huquqiga ega.

Uyushma a’zolarining 1/3 qismi tashabbusi bilan navbatdan tashqari konferensiya chaqirilishi mumkin.

Konferensiyalar oralig‘ida uyushma faoliyatini konferensiya tomonidan tasdiqlangan Kengash boshqaradi:

Kengash zaruriyatga qarab har chorakda kamida bir marotaba chaqiriladi.

Uyushma Kengashi, Kengash raisi, uning o‘rribosarlarini saylaydi. Shu bilan bir qatorda nazorat-taftish komissiyasi tarkibini belgilaydi, raisini saylaydi.

Uyushmaning asosiy ustuvor yunalishlarini belgilaydi.

Kengash yigilishlarida nazorat-taftish komissiyasi faoliyatini to‘g‘risida hisobot eshitiladi va tasdiqlanadi.

Uyushmaning doimiy faoliyatini olib borish uchun kengash qarori bilan, Kengash raisi tomonidan boshqariladigan Markaziy Kengash ijroya apparati tuziladi.

Kengash raisi ochiq ovoz berish yuli bilan O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi a’zosi hisoblangan, o‘z a’zolari tarkibidan saylanadi.

Shu vaqtning o‘zida kengash a’zolari orasidan kengash raisi o‘rribosarlari ham saylanadi. Kengash kundagi «Respublika Kengash ijroya apparati to‘g‘rsida»gi, «Viloyat fermer xo‘jaliklari filiali to‘g‘rsida»gi, «Tuman fermerlarga xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik hisobidan tashkilotlar to‘g‘risida»gi nizomlarni tasdiqlaydi.

Uyushma o‘zining navbatdagi konferensiyalari va nazorat-taftish komissiyalari tarkibiga o‘zgartirishlar kirtishga haqlidir.

Kengash yig‘iliши ham a’zolarning 2/3 qismi ishtirokida vakolatli hisoblanadi. Bu herda ochiq ovoz berish yuli bilan qaror qabul qilinadi.

Uyushma kengash raisi vakolatlari:

- Uyushmaning kundalik faoliyatini tashkil etadi va boshqaradi.
- Uyushma kengashi va konferensiya qarorlarni ijrosini ta’minlaydi.

- Kengash yigilishiga raislik qiladi.


- Kengash ijroya apparati xodimlarni ishga qabul qiladi va vazifasidan ozod etadi.

- Uyushma faoliyatiga doir masalalarini kengashda ko'rib chiqadi.
- Kengash qarorlarini imzolaydi.
- Uyushma nizomi va davlat qonunchiligiga zid bo'lgan qarorlarni bekor qiladi.
- Uyushma nomidan ishonch qog'ozisiz yuridik shaxslar, fuqarolar oldida shartnomalar imzolaydi.
- Uyushmaning o'zi tomonidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalarni moliyaviy-xo'jalik faoliyatları yuzasidan audit va boshqa tekshiruvlarni tayyorlaydi.
- Kengash ijroya apparati faoliyatini hujjatlar hamda filiallar nizomini tasdiqlaydi.
- Uyushma tizimidagi ijroya apparati xodimlari uchun bajarilishi shart bo'lgan qaror va farmoyishlarni chiqaradi.

Kengash raisi yo'q davrlarda uyushma faoliyatiga rahbarlik o'rnbosarlar zimmasiga o'tadi.

Joylarda yuqordagi vazifalar va ishlarni mos ravishda filial Kengashi, Kengash raisi va ijroya apparati xodimlari bajaradi.

Fermer xo'jaliklari quyidagi boshqaruв organlari tomonidan boshqariladi: Respublika dehqon fermerlar uyushmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar dehqon fermerlar uyushmasi, shaharlar, tumanlar dehqon fermerlar uyushmasi.



4-rasm: Fermer xo'jaliklarini boshqarishning nodavlat organlari.

Fermer xo'jaligi nizomiga muvofiq, fermer xo'jaligining o'n sakkiz yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligidagi tegishli malaka ish tajribasiga ega bo'lgan muomilaga layoqatli a'zolaridan biri fermer xo'jaligi boshlig'i bo'lishi mumkin. Ish faoliyati davomida fermer xo'jaligining boshlig'i vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotgan taqdirda o'z zimmasidagi majburiyatlarni bajarish vakolatlarini shu xo'jalik a'zolaridan biriga yoki yuqorida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan shaxsga berishi mumkin.

Fermer xo'jaligining boshlig'i quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- fermer xo'jaligini butun ish faoliyatini tashkil etadi;
- yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda fermer xo'jaligi nomidan berilgan vakolati doirasida mustaqil ravishda ish ko'radi;
- tegishli tashkilotlarga ishonchnomalar beradi, shartnoma va bitimlar tuzadi, shuningdek, shartnoma asosida xodimlarni ishga yollaydi;
- fermer xo'jaligi a'zolari va xo'jalikda shartnoma asosida ishlayotgan shaxslar orasida vazifalarni taqsimlaydi;
- fermer xo'jaligining ichki mehnat tartibi-qoidalarini belgilaydi;
- fermer xo'jaligi a'zolari va xo'jalikda shartnoma asosida ishlayotgan shaxslarning xavfsiz hamda unimli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratib beradi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ish vaqtini muddatini, ish haqlari hajmi (miqdori)ni belgilaydi, shu bilan bir qatorda xodimlarning moddiy rag'batlantirish usullari va intizomiy jazo choralarini belgilaydi;
- fermer xo'jaligi nomi bilan tegishli hujjatlarni imzolaydi.

Fermer xo'jaligi quyidagi huquqlarga ega:

- berilgan yer uchastkasida o'z nizomida nazarda tutilgan ixtisoslashuviga va ijara olish shartnomasiga muvofiq fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish;
- ixtisoslashuvini hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni amalga oshirish;
- xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers kontraktlari tuzish;

- yetishtirilgan mahsulotini, shu jumladan, bu mahsulotni iste'molchilariga realizatsiya qilish huquqini o'z xohishiga ko'ra, tasarruf etish;
- yetishtirayotgan mahsuloti, bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan xizmatlariga narx belgilash;
- elektr energiyasi, yoqilg'i moylash materiallari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini yetkazib berilishi, xizmat ko'rsatilishi yuzasidan shartnomalar tuzish;
- tadbirkorlik faoliyatidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish.

### **O'z-o'zini tekshirish yuzasidan savollar**

1. Fermer xo'jaliklarini boshqarish organlari.
2. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi asosiy vazifalari.
3. Viloyat va tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari vazifalari.
4. Dehqon fermerlar uyushmasi maqsadi va vazifalari.
5. Fermer xo'jaliklarini boshqarish.
6. Fermer xo'jaligi huquqlari.

#### **3.5. Fermer xo'jaliklarini tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar orasidagi munosabatlarni tartibga solish**

Bugungi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida barcha tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar bozorda yakka holda faoliyat olib bormaydi, ular kimlar bilandir aloqada bo'ladi. Ya'ni ishlab chiqqagan mahsulotlarini iste'molchilarga sotishda yoki zaruriy xomashyo va materiallarni sotib olishda.

Ushbu jarayonni tartibga solishda tomonlar orasidagi kelishuv natijasi shartnoma bosh rolini o'ynaydi.

Shu boisdan, faoliyati davomida fermer xo'jaliklari tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari orasida shartnomalar tuziladi. Yuqoridagi shartnomalar tuzish jarayonida bir qator tamoyillarga asoslanishini taqozo qiladi.

## **Shartnoma tuzish tamoyillari**

- Asosiy qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtiruvchisining tayyorlov, qayta ishlab va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan ishlab chiqarish munosabatlарining ustuvor mavqei.
- Tomonlarning huquq va o'zaro majburiyatlarini aniq belgilash.
- Mahsulot yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmat ko'rsatish hamda shartnomalar bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarning tartibi va aniq muddatini belgilash.
- Shartnomaviy munosabatlar mazmuni va mohiyatini bosh vazifasi asosiy mahsulotlar hisoblangan paxta tolasi, don va boshqa mahsulotlarni eng kam sarf-xarajat bilan yetishtirish vazifasiga erishishga bo'ysundirish.
- Shartnoma majburiyatlarini ijrosi uchun tomonlarning javobgarligini aniq belgilab qo'yish.

Shartnomada xo'jalik bunday mahsulotlarni qayta ishlash yoki sotish uchun xarid qiluvchi shaxsga qishloq xo'jalik mahsulotlarini kelishilgan muddatlarda berish majburiyatini oladi. Tayyorlovchi esa belgilangan baho bo'yicha kelishilgan muddatlarda mahsulot qiymatini to'lashni zimmasiga oladi.

Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish yuzasidan tuzilgan shartnoma bo'yicha yetkazib beruvchi tashkilot xo'jalikka o'zi ishlab chiqaradigan yoki xarid qiladigan moddiy-texnika mahsulotlari yetishtirishda foydalanishi uchun kelishilgan muddatda yetkazib berish majburiyatini oladi, xo'jalik esa moddiy-texnika resurslarini qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo'yicha haq to'lash majburiyatini oladi.

Agar xizmatlar ko'rsatish yuzasidan tuzilgan shartnoma bo'yicha bajaruvchi tashkilot xo'jalik byurtmasiga binoan barcha turdag'i ishlarini bajaradi, xo'jalik esa yuqoridaagi bajarilgan ishlarni qabul qilib oladi va kelishilgan baholarda xizmat haqini to'laydi.

Fermer xo'jaligi tomonidan yetishtirayotgan mahsulotlarning ayrim turlari davlat (byurtmasi) ehtiyojlar uchun xarid qilish mavjud bo'lgan taqdirda, tayyorlov tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini hisob-kitob jamg'armasi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilishni mablag' bilan ta'minlash to'g'risida belgilangan tartibda shartnoma tuzadi.

Odatda, barcha turdag'i tuzilgan shartnomalar tuman, qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonun kuchiga ega hisoblanadi va bajarilishini talab qiladi.

Hozirgi kunda barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar shartnomalarni tuzish va bajarishda tomonlardan har biri o'z majburiyatlar eng yuqori tejam bilan boshqa tomonlarning iqtisodiy manfaatlariga rioya qilgan holda bajarishi, majburiyatlarini zarur darajada bajarmasligi natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lган zararni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rishi va boshqa tomoni ushbu tadbirlar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilishi, shuningdek, unga majburiyatlarini bajarishda ko'maklashuvi kerak.

Shartnomalarni tuzishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qiladilar.

Shartnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

- shartnomaning mavzusi, mahsulotning nomi, assortimenti, miqdori, sifati, bahosi;
- shartnomaning umumiy summasi;
- tomonlarning huquqlari va o'zaro majburiyatlar;
- mahsulotlarni yetkazib berish tartibi va shartlari, topshirish qabul qilib olish maskanlari va muddati;
- idishga, markirovka qilishga o'rash va joylashga quyiladigan talablar;
- hisob-kitob shakli va muddatlari, tomonlarning to'lov, pochta va yuklab jo'natish rekvizitlari;
- shartnomalar shartlari yuzasidan tomonlarning mulkiy javobgarligi;
- nizolarni hal qilish tartibi;

Fermer xo'jaliklaridan davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish yuzasidan tuziladigan kontraktatsiya shartnomalarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan hamda xo'jalik ixtiyorida qoladigan mahsulotlarning sorti va miqdori ham ko'rsatiladi.

Shartnomalar har ikki tomonning imzosi bilan tasdiqlanadi. Shartnomalarda alohida namunaviy shakllardan foydalanish mumkin.

Xo'jalik shartnomasi loyihasi tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkiloti vakilidan olgandan so'ng u kun ichida ko'rib chiqishi va e'tiroz bo'limgan hollarda tasdiqlanishi shart.

Shartnoma tomonlarning har biriga tuman, qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasiga bir nusxadan tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari bir xil yuridik kuchga egadir.

Tuzilgan shartnomalar imzolangan kundan boshlab 3 kun mobaynida tuman, qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasiga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etiladi. Ko'rib chiqish jarayoni uch ish kunida amalga oshiriladi. Ro'yxatdan o'tkazish jarayonida tuman, qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi qo'shimcha hujjat talab qilmaydi.

**Tomonlarining huquq va majburiyatları.** Xo'jalikning huquqlari:

- shartnomada nazarda tutilgan hollarda tayyorlov tashkilotidan urug' va ekish materiallari bilan ta'minlanishini talab qilish;
- mahsulotlarni topshirishda uning sifatini aniqlashda qatnashishi va tayyorlov tashkilotidan mahsulot uchun tegishli to'lov talab qilish;
- tayyorlov tashkilotidan mahsulot yetishtirish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda va midqoran avans to'lashni talab qilish;
- tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan amaldagi davlat standartlari va shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa me'yoriy hujjatlar ta'minlashni talab qilish;
- tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan mahsulot xo'jalik hisobidan tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;
- xizmat ko'rsatish tashkilotidan shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga binoan tegishli sifatdagi assortimentdagi mahsulotlar yetkazib berishni va xizmatlar ko'rsatishni (ishlarni bajarishni) talab qilish;
- tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish;
- tovar (ishlar, xizmatlar) unga yomon sifat bilan sotilgan xo'jalik o'z xohishiga ko'ra;

- zarur sifatdagi ana shunday tovar (ishlar, xizmatlar)ga almashtirishni;
- tovar (ishlar, xizmatlar)ning nuqsonlarini bepul bartaraf etishni yoki nuqsonlarni tuzatish uchun sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan qilingan xarajatlarni to'lanishini;
- narxlarni mutanosib ravishda kamaytirilishini talab qilishga haqlidir.

Xo'jalik amaldagi qonun hu'jjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

Xo'jalikning majburiyatlari:

- mahsulotning muayyan turlarini tayyorlovchi tashkilotga shartnomada belgilangan miqdorlarda va assortimentda hamda muddatlarda tegishli sifat bilan yetkazib berish;
- ilova qilinayotgan hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish va mahsulotni topshirishda qo'yiladigan boshqa talablarga (idishga joylash, qadoqlash, qoramollarni tamg'alash va boshqalarga) rioya etish;
- mahsulotni tayyorlov tashkilotiga topshirish uchun o'z vaqtida tayyorlash;
- yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun to'lovni (hisob-kitoblarni) xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq o'z vaqtida amalga oshirish;
- xo'jalik qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi;

Tayyorlov tashkilotining huquqlari:

- tasdiqlangan jadvalga muvofiq shartnomada belgilangan muddatlarda mahsulotlarning muayyan turlari belgilangan miqdorlarda va assortimentda, tegishli sifat bilan o'z vaqtida topshirishni talab qilish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari avans summasi nazardautilgan hajmlarda topshirilmagan taqdirda tuzilgan shartnomaga muvofiq ilgari berilgan avans mablag'lari qoplanishini xo'jaliklardan talab qilish;
- tayyorlov tashkiloti qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

Tayyorlov tashkilotining majburiyatlari:

- qonun hujjatlariga muvofiq xo'jaliklar bilan tomonlar kelishgan hajmlarda o'z vaqtida shartnomalar tuzish;
- xo'jaliklarga shartnoma belgilangan davrlarda, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish muddatlariga muvofiq mahsulotlar qiymatining kamida 50% miqdorida (chorvachilik mahsulotlari bo'yicha shartnomalarda ko'rsatilgan hajmlar qiymatining 25% miqdorida) avans mablag'lari to'lash.
- xarid qilinadigan mahsulotning vazni va sifatini to'g'ri aniqlash;
- xo'jaliklar tomonidan yetkazib beriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va muddatda xarid qilish, ularning uzuksiz qabul qilib olinishini ta'minlash;
- xo'jalik ixtiyorida qoladigan mahsulotlarni shartnomada nazarda tutilgan hollarda davlat standartlari va texnik shartlar talablariga muvofiq saqlash va ularning hollari to'g'risida xo'jaliklarga muntazam ravishda xabar qilib turish;
- xo'jaliklar ixtiyorida qoldiriladigan mahsulotlar sifatini yomonlashishi oqibatida xo'jalikdarga yetkazilgan zararni qoplash;
- agar shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kelishilgan jadvalga muvofiq qabul qilib olishni va tashishni ta'minlash;
- xarid qilinayotgan mahsulot sifatini amaldagi standartlar talablariga muvofiq aniqlash, shartnomada belgilangan narxlarga muvofiq va muddatlarda mahsulot uchun hisob-kitob qilish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tayyorlash, tashish va qayta ishlashda ular nobud bo'lishining oldini olish;
- mahsulotlarni amaldagi standartlarga muvofiq qayta ishlash sotishga tayyorlash va ularni sotishga taalluqli hujjatlarni rasmiylashtirish;
- xo'jaliklarni idishilar o'rash materiallari va normativ – texnik hujjatlar (standartlar, texnik shartlar, mahsulotlarni ayrim turlarini xarid qilish, qabul qilib olish, sifatini baholash tartibini tartibga soluvchi qoidalar) bilan shartnomalarga muvofiq ta'minlash;
- shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda xo'jaliklarni urug'lik va ekish materiallari bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlov tashkiloti joylashgan joyda yoki ular ko'rsatgan boshqa joyda qabul qilib olingan taqdirda xo'jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq

yetkazib berilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini belgilangan muddatlarda qabul qilib olish;

- tayyorlov tashkiloti qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi.

Xizmat ko'rsatish tashkilotlarini huquqlari:

- amaldagi qonun hujjatlari belgilangan tartibda va miqdordorda shartnomaga muvofiq yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatiladigan xizmatlari uchun oldindan haq to'lashni va yakuniy hisob-kitob qilishni talab qilish;

- taqdim etilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan moddiy texnika resurslarini va ko'rsatiladigan xizmatlarni asossiz ravishda rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni xo'jaliklardan talab qilish;

- xizmat ko'rsatish tashkilot qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish tashkilotlarining majburiyatları:

- xo'jaliklar bilan qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida shartnomalar tuzish va shartnomalar majburiyatlarini ta'minlash;

- xo'jaliklarni buyurtmanomalarga binoan shartnomaga muvofiq muddatlarda, miqdorda va sifatda moddiy-texnika resurslarini yetkazib berish hamda xizmatlar ko'rsatib berish (ishlarni bajarish).

- yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini shartnomada belgilangan talablarga shuningdek, amaldagi standartlarga va normativlarga muvofiqligini ta'minlash;

- shartnomani bajarmasligi yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida xo'jalikka yetkazilgan zarani qoplash;

- xizmat ko'rsatuvchi tashkilot qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi.

Fermer xo'jaliklarini tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari orasidagi munosabatlarning shartnomada aks ettiriladigan asosiy elementlaridan biri bu baho va hisob-kitoblardir.

Odatda, mahsulotni tashish va kirish bo'yicha barcha xarajatlar tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari zimmasida bo'ladi.

Mahsulot xo'jalik transportida yetkazib berilsa, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jalikka mahsulotni tashish xarajatlarni haqiqiy vazni (idishni ham qo'shib) bo'yicha qoplanaydi.

Mahsulotni tashish xarajatlari butun masofa uchun qoplanadi. Kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha xarajatlar mahsulot jo'natilgan joydan boshlab (saralash punkti, brigada, bo'lim, chorvachilik fermasi, yaylov, markaziy ombor, xo'jalikning markazy qo'rg'oni va boshqalar) shartnomada nazarda tutilgan qabul qilish punktigacha qoplanadi. Moddiy- texnika resurslari yetkazib berish shartnomalari bo'yicha mahsulotni qabul qilish, shuningdek, shartnomada nazarda tutilgan yetkazib berish joyigacha qoplanadi.

Xo'jaliklarning transportda tashish va tushirish xarajatlari qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan normalar va tariflar bo'yicha yoxud tomonlarning kelishuviga ko'ra belgilanadi.

Tayyorlov tashkilotining qo'shimcha talablariga rioxaliga qilgan holda mahsulot jo'natish bilan bog'liq shartnomada belgilanmagan xarajatlar tegishli ravishda tayyorlovchi hisobiga to'lanadi.

Tayyorlov tashkiloti tomonidan standart talablarga muvofiq bo'limgan, shuningdek, kondisiyaga muvofiq bo'limgan mahsulot qabul qilingan taqdirda qo'shimcha ravishda sortlarga ajratish tayyorlovchi tomonidan bajariladi, ishlarni bajarish bo'yicha xarajatlar esa qo'shimcha bitim bo'yicha qoplanadi.

Xo'jaliklar bilan tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtaqidagi oldindan haq to'lash va yakuniy hisob-kitoblar shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, shaklda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Shartnomalar, shartnoma shartlari va talablariga hamda qonun hujjatlariga rioxaliga qilingan holda zarur darajada bajarilishi kerak.

Agar tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

Shartnomani bajarishdan bir tomonlama voz kechishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan hollar bundan mustasno.

Tuzilgan shartnomada mahsulot yetkazib berishning davrlari belgilanishi bilan birgalikda tovarlarni yetkazib berish jadvallari ham (o'n kunlik, sutkalik va boshqalar) nazarda tutilishi mumkin.

Agar shartnomada bunday jadval nazarda tutilmagan taqdirda, xo'jalik tayyorlov tashkilotini mahsulotni shartnomada nazarda tutilgan assortimentda realizatsiya qilish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda mo'ljallanayotgan hajmlar va topshirish muddatlarini to'g'risida xabardor qilishi kerak. Agar shartnomada bunday muddat ko'rsatilmasa, topshirilgunga qadar 30 kunlik muddatda (mavsumiy mahsulotlar bo'yicha-15 kundan kechikmay) topshirishi va mahsulotni kalender (sutka bo'yicha) topshirish jadvalini tayyorlov tashkiloti bilan kelishishi kerak.

Fermer xo'jalik tomonidan mahsulot tayyorlov tashkilotiga jo'natilganda (yetkazib berilganda) mahsulotga belgilangan shakldagi hujjatlar ilova qilinishi, mahsulot tayyorlov tashkiloti tomonidan bevosita xo'jalikning o'zida qabul qilib olingan taqdirda qabul qilish-topshirish hujjatlari ilova qilinishi kerak.

Fermer x'o'jaligi tomonidan tayyorlov tashkilotiga shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari davlat standartlari talablariga, texnik shartlarga, veterinariya va sanitariya nazorati qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Tayyorlov tashkiloti esa xo'jaliklardan shartnomada ko'rsatilgan hajmlardan ortiqcha yetishtirilgan mahsulotni faqat qo'shimcha bitim asosida qabul qilishi mumkin. Xo'jalik bilan tuziladigan qo'shimcha bitim yozma shakllarda rasmiylashtirilishi tuman, qishloq va suv xo'jaligi bo'limida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Tayyorlov tashkiloti bilan kelishilgan holda xo'jalik mahsulotini keyingi topshirish davri hisobiga o'tkazgan holda muddatdan oldin topshirishi mumkin.

Mahsulotni tayyorlov punktlarida jo'natishda mahsulotni transportga yuklash va qaytariladigan idishni bo'shatish xo'jalikning kuchi va mablag'lari evaziga amalga oshiriladi, qabul qilish punktida mahsulotni xo'jalikka jo'natish uchun idishni tushirish tayyorlov tashkiloti hisobiga qabul qilnadi.

Agar tomonlardan biri yuklash yoki tushirish bo'yicha boshqa tomonning majburiyatlarini bajarsa, o'z majburiyatlarini bajarmagan tomon belgilangan tariflar asosida, bunday tariflar mavjud bo'lмаган taqdirda – o'zaro kelishuvga ko'ra bajarilgan ishlар qiyamatini unga to'laydi.

Shartnoma asosida yetishtirilgan mahsulotni tayyorlov punktiga yoki tayyorlov korxonaga yetkazib berish nazarda tutilgan hollarda,

topshirilganligi uchun mahsulotning haqi to‘lanishi bilan birgalikda tayyorlov tashkiloti tomonidan to‘lanadi. Shuni unutmaslik kerakki, tomonlar shartnomani bajarish davrida o‘zaro kelishuvga ko‘ra mahsulotni yetkazib berish jadvali yoki joyini o‘zgartirishi mumkin.

Odatda, topshirtirish dalolatnomasi tuzilgan sana xo‘jalik tomonidan shartnomaga bo‘yicha majburiyatlar bajarilgan kun deb hisoblanadi. Mahsulot oluvchining manziliga yuklab jo‘natilgan taqdirda esa – mahsulot transport tashkiloti vakiliga topshirilgan sana deb hisoblanadi.

Tayyorlov tashkilotlari va xo‘jaliklar tovar transport yuk xatida transport vositasi kelgan va mahsulot tushirib bo‘lingan vaqtini ko‘rsatishlari shart.

Shartnomaga majburiyatlarini bajarishda xarid qilinayotigan qishloq xo‘jaligi mahsulotining sifati va miqdorini baholash, uning uchun haq o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘lanishi bo‘yicha tomonlar o‘rtasida nizoli masalalar va kelishmovchiliklar paydo bo‘lgan taqdirda, bunday masalalar va kelishmovchiliklar tuman, qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi tomonidan sudgacha bo‘lgan tartibda yoki xo‘jalik sudi tomonidan hal etiladi.

Mahsulot qabul qilishni rad etilgan taqdirda tayyorlov tashkiloti rad etish holati to‘g‘risida xo‘jalikni yozma shaklda xabardor qilishi kerak, agarda tayyorlov tashkiloti mahsulotni qabul qilish–rad etilishi to‘g‘risidagi yozma ariza berishdan bosh tortsa, u holda xo‘jalik tuman, qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi vakili ishtirokida rad etish holatini tasdiqlovchi dalolatnomasi tuzadi.

Tez buziladigan mahsulotni qabul qilishni rad etgan taqdirda, xo‘jalik ushbu mahsulotni o‘z ixtiyoriga ko‘ra boshqa shaxslarga sotishi mumkin. Bu yerda bunday tayyorlov tashkilotlari mahsulotni qabul qilish rad etilganligi uchun yoki javobgarlikdan xolis etilmaydi.

Tayyorlov tashkiloti tomonidan bevosita xo‘jalikning o‘zida qabul qilingan mahsulot (kartoshka, sabzavot, poliz mahsulotlari, meva va rezavor mevalar, uzum) xo‘jalik hududida vaqtincha saqlansa, shartnomaga shartiga muvofiq qo‘srimcha haq to‘lash mumkin.

Agar tuzilgan shantnomada mahsulot idishda yoki o‘ramda yetkazib berilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, tayyorlov tashkiloti

xo'jalikni shartnomada belgilangan miqdorda va muddatlarda zarur idish o'rash materiallari bilan ta'minlashlari lozim bo'ladi.

Agar shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, xo'jalik tayyorlovchilardan oladigan tovar tushgan ko'p aylanadigan idish va paketlash vositalari egasiga qaytariladi. Boshqa idish va o'rash materiallari faqat shartnomada nazarda tutilgan hollarda qaytarilishi kerak.

Mahsulotlarning ayrim turlari uchun mo'ljallangan idish va o'rash materiallaridan foydalanish xususiyatlari, shuningdek, ularni qaytarish tartibi va muddatlari mahsulotning tegishli turlarini xarid qilishni tartibga soluvchi yo'riqnomalar, qoidalarda yoki tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilishi lozimdir.

Tuzilgan shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining amaldagi miqdori xo'jaliklar bilan tayyorlov tashkilotlari o'rtasida mahsulot yetkazib berish yakunlari bo'yicha tuziladigan qiyosiy dalolatnoma asosida belgilanadi.

Xo'jalik tasarrufida qoladigan va qayta, ishlanadigan mahsulot tayyorlov tashkilotlari tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Ushbu mahsulot standartlar talablariga va texnik shartlarga muvofiq qayta ishlanishi va saqlanishi kerak hamda faqat xo'jaliklarning buyurtmasi bo'yicha yuklab jo'natiladi.

Xo'jaliklar tasarrufida qoladigan mahsulotni saqlash, qayta ishslash, sotishga tayyorlash va yuklab jo'natish masalalari shartnomaga muvofiq alohida me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Xo'jaliklar tasarrufida qoladigan qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsuloti alohida hisobga olinadi va xo'jaliklar tomonidan amaldagi tartibga muvofiq o'z xohishlariga ko'ra sotiladi.

Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish yoki xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) to'g'risida qabul qilish, topshirish dalolatnomasi tuzilgan sana shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana deb hisoblanadi, mahsulot oluvchining manziliga yuklab jo'natilgan taqdirda esa mahsulot transport tashkiloti vakiliga topshirilgan sana majburiyatlar topshirilgan sana hisoblanadi.

Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana xo'jaliklarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga haq to'lash bo'yicha majburiyatları bajarilgan sana hisoblanadi.

## **Shartnoma shartlarini buzilishi yuzasida mulkiy munosabatlar**

Shartnoma shartlari buzilishi yuzasidan mulkiy javobgarlik.

Jahon amaliyotida shartnoma shartlarini buzganligi uchun mulkiy javobgarlikka tortilishi umumiy holatga aylanib qolgan.

Bu tomonlarning ishlab chiqarish faoliyatini yaxshilabgina qolmay, balki ularning mas'uliyatini oshirishga ham undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324–339-moddalarida shartnoma bo'yicha tomonlarning javobgarligi aniq ko'rsatib qo'yilgan.

Agar fermer xo'jaliklari yetishtirayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini shartnomada ko'rsatilgan assortiment va turlarda muddatlarda yetkazib berishdan asossiz bosh tortsa, xo'jalik tayyorlovchiga topshirmagan mahsulot qiymatini 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarima miqdori o'tgan davrda mahsulotning shakllangan o'rta narxidan kelib chiqib, xarid narxlariga belgilangan ustamalar to'lash hisobga olmasdan hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, zararning mahsulot, yetkazib bermaganligi tufayli yuzaga kelgan jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanadi. Shu bilan bir qatorda shartnomada ko'rsatilgan mahsulotni qabul qilishni rad etgan tayyorlov tashkiloti fermer xo'jaligiga belgilangan ustamalarni to'lashni hisobga olmasdan shakllangan o'rtacha narxdan kelib chiqib, qabul qilinmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorda jarima to'laydi, tez buziluvchan mahsulotlarni esa to'la qiymatini. Shu bilan birga mahsulotni qabul qilish rad etilganligi tufayli xo'jalik ko'rgan zararini jarima bilan qoplanmagan qismini ham to'laydi.

Hozirgi kunda mahsulot yetkazib berish, qabul qilib olish boshlang'ich ish xolos. Uning asosiyalaridan biri hisob-kitob ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish hisoblanadi. Bu masalada ham mulkiy javobgarlik joriy etilgan.

Agar tayyorlov tashkiloti shartnomaga muvofiq topshirilgan yoki jo'natilgan yukni haqini to'lashdan bosh tortsa:

a) tayyorlov tashkiloti xo'jalikda to'lanmagan summani, o'zi to'lashdan bosh tortgan summani 15 foizi mulkdorda jarima to'laydi.

b) fermer xo'jaligiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,4 foizi

miqdorida jarima to‘laydi. To‘langan jarima miqdori muddati o‘tkazib yuborilgan summaning 50 foizidan ortiq ketmasligi kerak.

Agar tovar transport hujjatlarini rasmiylashtirishdan bosh to‘rtsa yoki noto‘g‘ri rasmiylashtirilsa, jarima miqdori eng kam ish haqi darajasida belgilanadi. Yuk jo‘natilgandan so‘ng tovar transport hujjatlari nusxasi belgilangan muddatda jo‘natilmasa, axborot taqdim etmaganligi uchun aybdor tomon tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to‘laydi va hokazo.

### **O‘z-o‘zini tekshirish yuzasidan savollar**

1. Shartnomma mazmuni va mohiyati.
2. Shartnomma tuzish tamoyillari.
3. Xo‘jalikning huquqlari.
4. Uy xo‘jalikning majburiyatlari.
5. Tayyorlov tashkiloti huquqlari.
6. Tayyorlov tashkiloti majburiyatlari.
7. Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar huquqlari.
8. Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar majburiyatlari.
9. Shartnomalarning bajarilishi.
10. Shartnomma shartlarini buzilishi yuzasidan mulkiy javobgarlik.

### **III bo‘lim yuzasidan test savollari**

1. Fermer xo‘jaliklari biznes tarkibi qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan.
  - A) Kirish, 21-jadval.
  - B) Titul ro‘yxati, kirish, 21 ta jadval
  - C) Kirish, 21-jadval, xulosa
  - E) 21 ta jadval
  - F) To‘g‘ri javob yo‘q.
2. Fermer xo‘jaliklari biznes rejasi na‘munaviy nusxasi kim tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
  - A) Vazirlar Mahkamasi
  - B) Vazirlar Mahkamasi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi

- D) Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ilmiy markazi  
E) Ilmiy markaz  
F) To'g'ri javoblar yo'q.

3. Qaysi javobda «yirik shoxli qoramol, ot va tuyalar»ni shartli boshga aylantirish koeffitsiyenti to'g'ri keltirilgan.

- A) 1,0  
B) 0,6  
D) 0,3  
E) 0,1  
F) 0,02

4. Qaysi javobda «Yosh va boquvdagi yirik shartli qoramollar»ni shartli boshga aylantirish koeffitsiyenti to'g'ri keltirilgan.

- A) 1,0  
B) 0,6  
D) 0,3  
E) 0,1  
F) 0,02

5. Qaysi javobda «Cho'chqa»larni shartli boshga aylantirish koeffitsiyenti to'g'ri keltirilgan.

- A) 1,0  
B) 0,6  
D) 0,3  
E) 0,1  
F) 0,02

6. Qaysi javobda «Qo'y va echkilar»ni shartli boshga aylantirish koeffitsiyenti to'g'ri keltirilgan.

- A) 1,0  
B) 0,6  
D) 0,3  
E) 0,1  
F) 0,02

7. Qaysi javobda «Parrandalar»ni shartli boshga aylantirish koeffitsiyenti to‘g‘ri keltirilgan.

- A) 1,0
- B) 0,6
- C) 0,3
- D) 0,1
- E) 0,02

8. «Hujjat» tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

- A) Ma’lumotlarni uzatish va saqlash uchun maxsus tuzilgan predmet
- B) Biznes reja, topshiriq, rahbar tomonidan belgilangan boshqaruv mahsuli
- C) Iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy, demografik va boshqa omillar bog‘liqligi
- D) Birorta tadbir va faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy ko‘mak beruvchi
- E) Barcha javoblar to‘g‘ri.

9. «Qaror» tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

- A) Ma’lumotlarni uzatish va saqlash uchun maxsus tuzilgan predmet
- B) Biznes reja, topshiriq, rahbar tomonidan belgilangan boshqaruv mahsuli
- C) Iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy, demografik va boshqa omillar bog‘liqligi
- D) Birorta tadbir va faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy kumak beruvchi
- E) Barcha javoblar to‘g‘ri.

10. «Xolis» tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

- A) Ma’lumotlarni uzatish va saqlash uchun maxsus tuzilgan predmet
- B) Biznes reja, topshiriq, rahbar tomonidan belgilangan boshqaruv mahsuli
- C) Iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy, demografik va boshqa omillar bog‘liqligi

E) Birorta tadbir va faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy ko‘mak beruvchi

F) Barcha javoblar to‘g‘ri.

11. «Lider» tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

A) Jamoa orasidagi nisbatan tashabbuslar, harakatchan, mulohazali, yangiliklardan xabardor, yangilikka intiluvchan shaxs

B) Yollanma professional boshqaruvchi

D) Boshqaruv san’ati va mahorati

E) Shaxsning mehnat faoliyati tarixi

F) To‘g‘ri javob yo‘q.

12. Qaysi javobda «Menejment» tushunchasi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

A) Jamoa orasidagi nisbatan tashabbuslar, harakatchan, muloxazali, yangiliklardan xabardor, yangilikka intiluvchan shaxs

B) Yollanma professional boshqaruvchi

D) Boshqaruv san’ati va mahorati

E) Shaxsning mehnat faoliyati tarixi

F) To‘g‘ri javob yo‘q.

13. Qaysi javobda «menejer» tushunchasi to‘g‘ri ta’riflangan.

A) Jamoa orasidagi nisbatan tashabbuslar, harakatchan, mulohazali, yangiliklardan xabardor, yangilikka intiluvchan shaxs

B) Yollanma professional boshqaruvchi

D) Boshqaruv san’ati va mahorati

E) Shaxsning mehnat faoliyati tarixi

F) To‘g‘ri javob yo‘q.

14. «Mehnat karyerasi» tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri tariflangan.

A) Jamoa orasidagi nisbatan tashabbuslar, harakatchan, mulohazali, yangiliklardan xabardor, yangilikka intiluvchan shaxs

B) Yollanma professional boshqaruvchi

D) Boshqaruv san’ati va mahorati

E) Shaxsning mehnat faoliyati tarixi

F) To‘g‘ri javob yo‘q.

15. Kim fermer bo‘la oladi?

- A) Maxsus oliy ma'lumotli, 16 yoshga to‘lgan, moliyaviy mablag‘ga ega bo‘lgan shaxs.
- B) Katta moliyaviy mablag‘ egasi
- C) 18 yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligi borasida tegishli malaka va tajribaga ega bo‘lgan shaxs.
- D) Katta yer egasi.
- E) Barcha javoblar to‘g‘ri.

16. Qaysi javobda «Biznes reja maqsadi» to‘g‘ri ifodalangan.

A) Bozor ehtiyojlari, mavjud resurslar, imkoniyatlardan kelib chiqib fermer xo‘jaliklari faoliyati istiqbollarini joriy va kelgusi yilga ifodala什.

- B) Yuqori foyda olish
- C) Samarali boshqarish
- D) Manbalardan unumli foydalanish
- E) Loyihani iqtisodiy jihatdan asoslash.

17. Biznes rejalar kim tomonidan tuziladi?

- A) Menejer
- B) Tadbirkor fermer
- C) Konsalting firmasi
- D) Korxonalar rahbari yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar
- E) Barcha javoblar to‘g‘ri

18. «Korxonalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qachon qabul qilingan.

- A) 1991-yil 15-fevral
- B) 1995-yil 25-dekabr
- C) 1998-yil 29-avgust
- D) 1998-yil 9-aprel
- E) 1995-yil 14-fevral

19. Qaysi javobda «strategiya» tushunchasi to‘g‘ri keltirilgan?

- A) Fermerlik faoliyatining bosh umumiylari maqsadi majmuyi
- B) Strategiyani amalga oshirishdagi aniq harakat, yo‘llar va ular majmuyi

- D) Ishlab chiqarish dasturi
- E) Tadbirkorlik faoliyatining bosh maqsadi
- F) Biznes reja mazmuni va mohiyati

20. Qaysi javobda «Taktika» tushunchasi to‘g‘ri keltirilgan.

- A) Fermerlik faoliyatining bosh umumiy maqsadi majmui
- B) Strategiyani amalga oshirishdagi aniq harakat, yo‘llar va ular majmui
- D) Ishlab chiqarish dasturi
- E) Tadbirkorlik faoliyatining bosh maqsadi
- F) Biznes reja mazmuni va mohiyati

21. Qaysi javobda «Erkin bozor ulgurji bahosi» iqtisodiy mazmuni to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

- A) Tannarx, normativ foyda
- B) Tannarx, foyda va qo‘srimcha qiymat solig‘i
- C) Tannarx, foyda va qo‘srimcha qiymat solig‘i, ta’minot tashkiloti ustamasi
- E) Tannarx, foyda va qo‘srimcha qiymat solig‘i, ta’minot tashkiloti ustamasi va savdo ustamasi.
- F) Barcha javoblar to‘g‘ri.

## **TAYANCH IBORALAR**

**Agrar munosabatlar** – yer bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

**Biznes** – sohiblarning tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish.

**Bozor infratuzilmasi** – bozor iqtisodiyoti uchun har xil xizmat ko'rsatuvchi sohalar banklar, tijorat banklari, savdo uylari, kim oshdi savdolari.

**Kamtarlik** – berilgan huquqlardan ongli foydalanish, o'z yutuqlari va kamchiliklariga tanqidiy munosabatda bo'lish.

**Kollektivlik** – tashkilotchilik, intizomllilik, kirishuvchanlik yoki birovlar ko'nglini ola bilish.

**Mehnatsevarlik** – o'z ishi va huquqi bo'yicha shaxsiy namuna ko'rsatish.

**Talab va taklif qonuni** – Bozor iqtisodiyotining obyektiv qonuni.

**Tovar** – pulga teng ekvivalent tarzda almashuvchi har qanday buyum.

**Halollilik** – ishbilarmonlik, talabchanlik, ishdan qoniqish hosil qilish va insonlarga haqiqatni ayta bilish.

**Fermer xo'jaligi** – ijara ga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

**Qonuniyat (prinsip)** – «Asos», «Dastlabki xatti-harakat» yoki «Faoliyatning asosiy qoidasi».

**Usul (metod)** – bu fanning o'rganishda foydalaniladigan yo'llar.

**Uslub** – bu fanning o'rganishda foydalaniladigan qonuniyat (prinsip)lar va usul (metod)lar yig'indisi.

**Intiluvchanlik** – maqsadga erishish, odamlar hurmatiga sazovor bo'lish, o'z-o'zini nazorat qila bilish.

**Korxona** – yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan, mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan yoki ayriboshlaydigan ishlarni bajaradigan, xizmat ko'rsatadigan, bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqli sharoitda amaldagi qonunlarga muvosiq o'z faoliyatini ro'yobga chiqaradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

**Tadbirkorlik** – o'zida ma'lum bir mulkdorda moliyaviy mablag'ni tavakkal qilgan holda bozorga yangi g'oya, mahsulot, xizmat va ishlar bilan kirib boruvchi ishbilarmon shaxs.

**Tadbirkorlik** – mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilinib va mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir.

**Xoding kompaniya** – boshqa banklar, firmalarni nazorat qilish va harakatini kuzatib borish uchun ularni aksiyalarini nazorat qilish paketiga egalik qiluvchi kompaniya.

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijorat tashkiloti.

**Shirkat xo'jaligi** – xo'jalik yoki tadbirkorlik faoliyatini yuritish maqsadida yuridik shaxslar bilan, jismoniy shaxslarning jismoniy shaxslar o'rtasida o'z hissadorlik mol-mulkini birlashtirish asosiyda o'zaro ixtiyoriy kelishuviga muvofiq tuziladigan korxonalar xo'jalik jamiyatlari.

**Xususiy tadbirkor** – yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan ishchi kuchini yollash huquqisiz mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar, dehqon xo'jaliklari va oddiy shirkat ishtirokchilar.

**Ochiq aksiyadorlik jamiyati** – ishtirokchilar o'zlariga qarash aksiyalarini boshqa aksiyadorlarni roziligidan o'zga shaxsga berishi mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati.

**Yopiq aksiyadorlik jamiyati** – aksiyalarni faqat o'zining ta'sischilari orasida yoki oldingan belgilab qo'yilgan shaxslar doirasida taqsimlangan jamiyat.

**Ma'suliyati cheklangan jamiyat (MCHJ)** – bir yoki bir necha shaxslar tomonidan ta'sis etilgan, nizom fondi ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat MCHJ ishtirokchilar uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi va jamiyatlarning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

**Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat** – bir yoki bir necha shaxslar tomonidan ta'sis etilgan, nizom fondi ta'sis

*hujjatlarida belgilangan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat. Bunda jamiyatning majburiyatlari yuzasidan ishtirokchilar qo'shgan hissalarini, shuningdek, jamiyat mol-mulki yetarli bo'limganda o'z ulushlariga muvofiq qo'shimcha tarzda javobgar bo'ladilar.*

**To'liq shirkat**– ishtirokchilari o'zaro tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda uning o'zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan xo'jalik yurituvchi subyekt.

**Bankrotlik**– sinish, fuqaro korxona firma yoki bankning mablag'i yetishmasligidan o'z majburiyatlari bo'yicha qarzlarni to'lashga qurbi yetmasligi.

**Jamoa mulki**– boylikning muayyan maqsad yo'lida ayrim jamoalarning birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o'zlashtirilishidir.

**Mulk**– qonunda egalik qilish, foydalanish va ruxsat huquqidagi mulk va intellektual mehnat mahsuli.

**Mulkdor**– o'z ixtiyoriga ko'ra o'ziga tegishli mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf etadi.

**Nazorat**– ishlab chiqarishning haqiqiy manzarasi ifodasi.

**Respublika konstitutsiyasi**– bozor iqtisodiyotiga xos yangi huquqiy tizim negizining asosiy qonuni.

**Xususiy mulk**– ayrim kishilarga va guruhlarga tegishli hamda daromad topishga qaratilgan mulk.

*Investitsiya-ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet el iqtiodiyotni turli sohalariga uzoq muddatli kaitalning kirishi.*

*Kredit-qarz, pul mablag'larini tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to'lab qaytirib berish sharti bilan ma'lum muddatlarga qarzga berishdir*

*Kredit tizimi-markaziy bank, tijorat banklari, kredit uyushmalari, chet el banklari, filiallari va vakolatxonalari.*

*Kredit uyushmasi— yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kredit berish va depozitlarga o'z a'zolaridan ko'p pul mablag'larini jalb qilish maqsadida ixtiyoriy teng huquqli a'zolik asosida tuziladigan moliya tashkilotidir.*

*Grant— bu notijorat tashkilotlari yoki xususiy shaxslarga aniq vazifalarni bajarish uchun taqdim qiluvchi tomonidan qaytarilmaslik sharti bilan beriladigan mablag'.*

*Lizing— mol-mulkni uzoq muddatli ijara olish va sotib olish asosida vaqtinchalik foydalanishga berish bo'yicha ishlarning mulkiy munosabatlari majmuasi.*

*Garov—bir shaxsning boshqa shaxsga yoki unga nisbatan taqdim etilgan mol- mulk.*

*Iqtisodiy o'sish— kishilarning talab-ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishlari ko'payib borishi.*

*Investitsiya banklari— xo'jalikning turli tarmoqlarini moliyalash va uzoq muddatli qarz berishga ixtisoslashgan banklar.*

**Investitsiyalash** – tadbirkorlikka kapital jalb etish.

**Valuta** – mamlakatning pul birligi va uning turi, pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari. Milliy doirada amal qiluvchi qadr qiymati shu mamlakat boyligi bilan ta'minlangan pul.

**Pul** – hamma tovarlar va xizmatlar ayriboshlanadigan, umumiy ekvivalent bo'lmish maxsus tovar, bozor iqtisodiyotining eng asosiy vositasi.

**Pul muomalasi** – pulning xo'jalik faoliyatidagi harakati.

**Moliyaviy resurs** – mahsulot ishlatish uchun taqsimlangan pul shaklidagi moliyaviy fonddir.

**Milliy boylik** – asrlar osha avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy ne'matlar, ma'naviy bilimlar, malaka va mahorat majmuidir.

**Donorlar** – grantlarga buyurtmalarni ko'rib chiquvchi va grant beruvchi tashkilotlar hamda xususiy shaxslar.

**Buyurtma** – grant ajratishini so'rab yozma murojaat qilish.

**Renta** – yerdan foydalanganlik uchun uning egasiga to'lanadigan haq.

**Stagflyasiya** – iqtisodiyotni ham turg'unlik, ham inflatsiya bilan xarakterlovchi holati.

**Asosiy fond** – hisob amaliyotida va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va DSK ko'rsatmasiga asosan qiymati 15 minimal maosh miqdoridan ortiq bo'lgan, 1 yildan ortiq xizmat qiluvchi, o'z qiymati tayyor mahsulotga amortizatsiya shaklida o'tkazib boradigan va ishlab chiqarish

*jarayoni oxiriga kelib natural shaklini saqlab qoladigan moddiy boyliklar.*

*Fizik eskirish–foydalanish jarayonida yemirilishi va yaroqsiz holga kelib qolish.*

*Ma'naviy eskirish–ishlab chiqarishga yaroqli bo'lsa-da, undan foydalanishni iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lib qolishi.*

*Amortizatsiya–asosiy fondlar eskirishini qoplash qiymati.*

*Aylanma fond–bir ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi va ishlab chiqarish jarayoni oxiriga kelib o'z natural shaklini o'zgartiruvchi va tayyor mahsulot qiymatiga to'liq o'tuvchi moddiy boylik.*

*Intiluvchanlik– maqsadga erishish, odamlar hurmatiga sazovor bo'lish, o'z-o'zini nazorat qila bilish.*

*Iste'mol bozori– aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarni ayriboshlanishi.*

*Ish kunini rejalashtirish – vaqtini tejashning oddiy usuli.*

*Menejerlar– yollanma professional boshqaruvchilar.*

*Menejment– boshqarish san'ati va mahorati.*

*Mehnat birjası– ishchi, xizmatchi va korxona egasi orasida ishchi kuchiga sotish va sotib olish bo'yicha kelishuvni amalga oshirishda muntazam vositachi vazifasini o'taydigan maxsus muassasa.*

*Mehnat karyerasi– shaxsning mehnat faoliyati tarixi.*

*Kadrlar qo'nimsizligi– iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy- ruhiy demografik va boshqa omillar bog'liqligi.*

***Qobiliyat*** – imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror ishdagi zaruriy mahorat darajasining o'lchovi.

***Mehnat potensiali*** – ish jarayonida ishtirok eta oluvchi, jismoniy va ruhiy qobiliyatga ega mamlakat aholisining bir qismi.

***Mehnat unumdorligi*** – vaqt birligi ichida yaratilgan mahsulot va xizmatlar miqdori yoki mahsulot birligiga sarflangan vaqt.

***Minimal ish haqi-korxona egasi*** tomonidan qonuniy asosda xizmatchiga soatiga to'laydigan eng kam ish haqi.

***Daromad*** – Davlat savdo-sanoat muassasalari, korxonalar, fermer xo'jaliklari, ijtimoiy tashkilotlar yoki ayrim shaxslar hisobiga kelib tushadigan pul tushumi va boshqa mablag'lar.

***Kontrakt narxlar*** –oldi- sotdi kontraktlari belgilangan narxlar.

***Raqobat*** – ishlab chiqarish munosabatlarning subyektlari o'rtasi va qulayroq ishlab chiqarish sharoitiga, arzon ishlab chiqarish resurslari va ishchi kuchiga ega bo'lish, unumliroq texnologiya ish joyi, yaxshi bozorni qo'lga olish, umuman yuqori foyda olish uchun olib borilgan kurash.

***Narx*** – tovar qiymatining puldagi ifodasi bo'lib, bozor iqtisodiyotining muhim dastagidir.

***Sof milliy mahsulot-miqdordan yalpi milliy mahsulot amortizatsiya ajratmasini chegirib tashlangan qismi.***

***Baho- mahsulot qiymatining puldagi ifodasi.***

**Mahsulot tannarxi** – mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan xarajatlarning pul ko'rnishidagi ifodasi.

**Birja bahosi** – opson kelishuv natijasi paytida o'rnatiladigan baho.

**Yalpi daromad** – yalpi mahsulot qiymatidan ishlab chiqarishga qilingan material sarflarni chegirib tashlanishi.

**Sof daromad** – yangidan yaratilgan qiymatning pul ko'rnishi, yalpi mahsulot qiymatida ishlab chiqarishdagi muomala xarajatlaridan farqi.

**Foyda** – tovar mahsuloti sotishdan tushgan tushumdan to'la tannarxni chegirib tashlangan qismi.

**Davlat budjeti** – umumjamiyat miqyosida markazlashtirilgan va davlat ishtirokida hosil bo'lувчи va sarflanuvchi moliyaviy resurslar.

**Dotatsiya** – qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratish.

**Debitor** – yuridik yoki jismoniy shaxslarning davlat, tashkilot va mahkamadan qarz bo'lishi.

**Debitorlik qarzi** – o'zaro xo'jalik aloqalari olib boruvchi korxona, tashkilotlarning bir-biridan qarz summasi.

**Pul qadri** – pulning tovar va xizmatlarni xarid etishi, chet el valutalariga almasha olish qobiliyati.

**Pul massasi** – muomalaga chiqarilgan metall tangalar va qog'oz pullarning jami miqdori.

**Pulning qadrsizlanishi** – pul xarid qobiliyati va valuta kursining pasayib ketishi.

**Moliya** – xalq xo'jaligidagi pul resurslarini hosil etish, ularni taqsimlash va ishlatish borasidagi iqtisodiy munosabatlar mazmuni.

**Soliq dekloratsiyasi** – soliq to'lovchining ma'lum bir vaqt davomida olgan daromad miqdorini bildiruvchi hujjat, yozma bayonot va guvohnoma.

**Soliqlar** – milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shartidir.

**Ssuda** – haq to'lash sharti bilan qarzga berilgan pul.

**Ssuda fondi** – qarzga berilgan va banklarda to'plangan pul mablag'lari.

**Subsidiya** – davlat budjetidan korxona, tashkilot va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag'.

**Sug'urta** – ma'lum sug'urta hodisalari yuz berganda jismoniy yoki yuridik shaxslar mulkini himoya qilish uchun ular tomonidan to'lanadigan badallar evaziga sug'urta to'lovi yoki sug'urta ta'minotini to'lab berish haqidagi munosabatlar tizimi.

**Sug'urta qiymati** – sug'urta shartnomasidagi haqiqiy mulkiy qiymatni pul orqali baholash summasi.

**Sug'urta akti** – zararning miqdori, sababi, davri, o'rni va boshqalar ko'rsatilgan hujjat.

**Sug'urta badali** – sug'urta qilinuvchi tomonidan sug'urta shartnomasida yoki qonunda ko'rsatilgan miqdorda to'lanadigan pul.

*Sug‘urta bahosi – sug‘urtalash maqsadida qabul qilingan mulk qiymati.*

*Sug‘urta guvohnomasi – sug‘urta haqidagi bitimni tasdiqlovchi sug‘urta organining hujjati.*

*Sug‘urta polisi – sug‘urta bitimini tasdiqlash uchun sug‘urtachiga beriluvchi, sug‘urta premiyasi o‘lchash va sug‘urta summasiga kiritilgan shartlarni o‘z ichiga oluvchi hujjat.*

*Sponsor – bironta tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko‘rsatuvchi xolis.*

*Strategiya – firmaning umumiy siyosati, bosh maqsadi.*

*Taklif – ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan va muayyan paytda bozorga chiqariladigan yoki keltirish mumkin bo‘lgan jami tovarlar va xizmatlar miqdori.*

*Taktika – strategiyani amalga oshirishdagi barcha shakl va usullar.*

*Talab – eng avvalo biron bir tovar yoki xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning bozorda namoyon bo‘lishi.*

*Tovarning hayotiy sikli – tovarning bozorda sotuvi, sotuvchiga soyda keltirib turish davri.*

*Tovarning hayotiylik davri – tovarni birinchi partiyasining bozorga qo‘yishdan to oxirgi partiyasi sotilgunga qadar bo‘lgan davr.*

*Turmush darajasi – kishilar hayoti y ehtiyojlarini qondirilishi me’yori.*

**Fond birjasi** – qimmatbaho qog'oz, oltin va chet el valutalari bozori.

**Ko'rsatkich** – reja topshiriqlarning ifodalanish shakli

**Ko'rsatkichlar tizimi** – topshiriqlarning mazmuni, mohiyati va ifodalanish majmui.

**Biznes reja** – strategik imkoniyatlarni belgilab beradigan asosiy hujjat.

**Krizis** – Iqtisodiy tanglik, tanazzul.

**Lider (yo'lboshchi)** – jamoa orasidagi nisbatan tashabbuskor harakatchan, mulohazali, yangiliklardan xabardor yangilikka intiluvchan xodim.

**Limit** – xo'jalik faoliyatining turli tomonlari miqdorini cheklanishi.

**Litsenziya** – texnikaviy-iqtisodiy, ilmiy yangiliklar egasining ularni ishlatish uchun beradigan ruxsati.

**Sertifikat** – tovarlarning aniq andozalar (standartlar) va texnik shartlarga mos kelishini ifodalovchi hujjat bo'lib, u tegishli davlat organlari tomonidan beriladi. Ekspertiza ma'lumotlariga asoslangan holda.

**Sertifikatlash** – tegishli hujjatni berilganligi va mahsulotni andoza, texnik shartlarga mos kelishini tasdiqlovchi harakat.

**Xarakter** – fe'l-atvor.

**Xizmat odobi** – bu ish yuzasidan jamoa a'zolari bilan munosabatlarning belgilangan shakli va tartiblari.

**Hujjat (dokument)** – ma'lumotlarni uzatish va saqlash uchun maxsus tuzilgan predmet.

***Qaror** – bu reja, topshiriq, buyruq rahbarlar tomonidan belgilanadigan boshqaruv mahsuli.*

***Qiziqishlar** -odamning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlar hissining nomoyon bo'lishi.*

***Kontrakt** – mamlakatlar, firma, korxona va birlashma orasida o'zaro huquq va majburiyatlarni belgilash, o'zgartirish va bekor qilish to'g'risidagi ikki tomonlama yozma kelishuv.*

***Konflikt** – xodimlarning manfaatlari, qadriyatlar va axloq normalarini qarama-qarshiligi harakati.*

***Shartnoma bayonoti** – brokerning mijoz foydasiga amalga oshiriladigan bironta bitimni tasdiqlab jo'nata digan bayonnomasi.*

***Shartnoma bazasi** – birja katirovkasiga mos bahoda birja shartnomasi bo'yicha qo'yishga ruxsat berilgan mahsulotning bir yoki bir necha navlari*

***Shartnoma intizomi** – shartnoma bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi.*

***Shartnoma mas'uliyati** – shartnoma majburiyatlarni bajarmaslikdan kelib chiqadigan javobgarlik.*

## I bo‘lim yuzasidan test savollarining javoblari

Test nomeri	Test javoblari	Test nomeri	Test javoblari
1	V	11	D
2	A	12	B
3	B	13	V
4	V	14	B
5	A	15	A
6	B	16	V
7	A	17	V
8	V	18	D
9	G	19	D
10	G	20	B

## II bo‘lim yuzasidan test savollarining javoblari

Test nomeri	Test javoblari	Test nomeri	Test javoblari
1	D	16	D
2	A	17	B
3	B	18	V
4	V	19	G
5	G	20	B
6	D	21	V
7	B	22	G

8	A	23	V
9	V	24	V
10	G	25	A
11	B	26	D
12	A	27	B
13	V	28	V
14	G	29	G
15	A	30	A

### III bo'lim yuzasidan test savollarining javoblari

Test nomeri	Test javoblari	Test nomeri	Test javoblari
1	B	11	A
2	V	12	V
3	A	13	B
4	B	14	G
5	V	15	V
6	G	16	A
7	D	17	D
8	A	18	A
9	B	19	A
10	G	20	B
		21	B

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni (yangi tahriri) 2004-yil 26-avgust.
2. «Korxonalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni –T.: «Adolat» 1992-yil.
3. «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 1999-yil.
4. I.Karimov. «Inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlash barcha islohotlari o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir», –T.: «O‘zbekiston» - 2008.
5. «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni –T.: 2003-yil 11-dekabr.
6. I.A.Karimov «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chiqurlashtirish yo‘lida». – T.: «O‘zbekiston», 1995-yil.
7. «2005–2007-yillarda fermer xo‘jaliklarni rivojlantirishning chora tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2004-yil 24-dekabr 607-son.
8. «Qishloq xo‘jaligi korxonalarida fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи Qarori 2002-yil 5-yanvar 8-son.
9. «Bozor islohotlarini chiqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor amalga oshirilishini

jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2005-yil 14-iyun.

10. «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2005-yil 14-iyun.

11. «Makrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni ragbatlantirish borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2005-yil 20-iyun.

12. «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rtalig‘i biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning farmoni 2003-yil 30-avgust.

13. «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun tizimni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2003-yil 357-son.

14. «Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yunalishlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2003-yil 24-mart PF-3226-son.

15. «Oziq - ovqat ekinlari maydonlarini optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2008-yil 20-sentabr, PF- 4041-son.

16. «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2002-yil 30-avgust «Xalq so‘zi».

17. «Qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘i joriy etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 1998 yil 10 oktabr.

18. «Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilaridan yagona yer solig‘ini undirish tartiblari to‘g‘risida»gi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 1998-yil 26-dekabr, 539сон.

19. «O‘zagrosug‘urta» DASKsi faoliyatini tashkil yetish masalalari to‘g‘risida»gi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-mart 125-sonli Qarori.

20. «Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni mablag‘ bilan ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2002- yil 7-noyabr 383-sonli.

21. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoiti yaratish asosiy vazifamizdir. —«Xalq so‘zi» 2007-yil 13-fevral.

22. Qishloq xo‘jalik korxonalarining biznes rejasi shakllarini to‘ldirish bo‘yicha qo‘llanma Toshkent, «Agrosanoat axboroti» xj.1998-yil.

23. A.Abdullayev, X.Aybeshov «Biznes reja» T.: «Moliya» 2002-yil.

24. X.A.Aybeshov «Kichik biznesni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari» Monografiya –Т.: «Ijod dunyosi» nashriyot uyi 2004-yil.
25. M.Muftaydinov, K.Yuldashev «Sharq iqtisodiy ta'limotlar tarixi» –Т.: A.Kodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002-yil.
26. Q.Yaxyoyev. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti – Т.: «Moliya» instituti nashriyoti, 2003, 248-bet.
27. Доброкин В.А и др. «Экономика сельского хозяйства» –М.: Агропромиздат, 1990 г.
28. Кепмбелл, Макконнелл, Стенли, Брю. «Экономикс» –М.: Республика, 1992 г.

## MUNDARIJA

**KIRISH.....3**

**1-BO'LIM**

**FANNING MAVZUSI, USULLARI VA VAZIFASI**

1.1.Qishloq xo‘jaligi – xalq xo‘jaligining muhim tarmog‘i.....	5
1.2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	7
1.3.Fermer xo‘jaligi iqtisodi fanining mavzusi va vazifalari.....	8
1.4 Fermer xo‘jaligi iqtisodi fanini o‘rganishning uslubiy asoslari.....	9

### ***1-bob. QISHLOQ XO‘JALIGIDA TADBIRKORLIKNING TASHKILIY - HUQUQIY SHAKLLARI***

1.1. Shirkat xo‘jaliklari tasnifi va tutgan o‘rni.....	12
1.2. Fermer xo‘jaliklari tasnifi va rivojlantirish istiqbollari.....	13
1.3. Dehqon xo‘jaliklari tasnifi.....	16
1.4. Fermer xo‘jaliklarini tashkil etish. Fermer xo‘jaliklarini tashkil etish shartlari va tartibi.....	19
1.5. Fermer xo‘jaliklari nizomi va mazmuni.....	22
1.6. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning huquqiy bazasi.....	23
1.7. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning muammolari.....	27

## **2-BO'LIM**

### **FERMER XO'JALIKLARI IQTISODIY SALOHIYATI**

2.1 Fermer xo'jaliklarda kapital qo'yilmalar va investitsiya siyosati.....	34
2.2. Fermer xo'jaligi ishlab chiqarish fondlari.....	45
2.3. Fermer xo'jaliklarda mehnat potensiali va ish haqi...57	
2.4. Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishi xarajatlari, foydasi va rentabelligi.....	65
2.5. Fermer xo'jaliklarida soliq va sug'urta.....	72

## **3-BO'LIM**

3.1. Fermer xo'jaliklari faoliyatini rejalashtirish va boshqarish.....	92
3. 2. Fermer xo'jaliklari biznes rejasi va uni tuzish xususiyatlari.....	94
3. 3. Fermer xo'jaliklari hisoboti.....	120
3.4. Fermer xo'jaliklari faoliyatini boshqarish.....	124
3.5. Fermer xo'jaliklarini tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar orasidagi munosabatlarni tartibga solish.....	130
<i>T A Y A N C H I B O R A L A R</i> .....	148
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	163

**A.ABDULLAYEV, H.AYBESHOV**

## **FERMER XO'JALIGI IQTISODI**

Toshkent—«Aloqachi»—2008

Muharrir: A.Eshov  
Tex.muharrir: A.Moydinov  
Musahhih: M.Hayitova  
Kompyuterda  
sahifalovchi: H.G'ulomov

Bosishga ruxsat etildi 28.11.08. Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Times Uz»  
garniturasi. Ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 11,5. Nashr  
bosma tabog'i 11,0. Tiraji 1000. Byurtma № 300.

**«Aloqachi matbaa markazi bosmaxonasi»da chop etildi. 700000.  
Toshkent shahri, A.Temur ko‘chasi, 108-uy.**

ISBN 978-9943-326-33-0

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-326-33-0.

9 789943 326330